



MAKTAB TA'LIMI  
Muammolar, izlanishlar, yechimlar

UO'K 373.3/5  
ISSN: 3060-4788

A.AVLONIIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIIY INSTITUTI  
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV USLUBIIY JURNAL

# MAKTAB TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

2026-yil, 8-son



A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining  
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал  
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal  
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

**MAKTAB TA'LIMI:**

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:**

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

**SCHOOL EDUCATION:**

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2026-yil,  
8-son

Toshkent – 2026



Maktabgacha  
va maktab  
ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**

**ISMAILOV** Abduvali Abdumalikovich

**Bosh muharrir o'rinbosari**

**RAJABOV** Sherzod Umurzoqovich

**Tahrir hay'ati:**

**YULDASHEV** Maksudjon Abdullayevich

**RADJABOV** Sardor Baxtiyorovich

**IBRAIMOV** Xolboy Ibragimovich

**PIOTR** Fokich Borovski

**GUNDA** Tire

**KOVALEVA** Galina Sergeyevna

**IBRAGIMOV** A'lamjon Amrilloevich

**ERGASHEVA** Malohat Tursunovna

**XAKIMOVA** Dildora Mashrabjonovna

**JUMANAZAROV** Sirojiddin Salaydinovich

**URINBAYEVA** Dilbar Bazarovna

**IBRAGIMOV** Abdumalik Gapparovich

**ALKAROV** Elyor Maxmudovich

**BADALOVA** Maqsuda Umarovna

**BOTIROV** Hamid Hakimovich

**OTAMURODOV** G'olibjon Ro'zimurodovich

**XURRAMOV** Isroil Abdurashidovich

**BABAYEVA** Nargiza Muzaffarovna

**Masul kotib:**

**DAMINOVA** Shoxista Kabulovna

**Adabiy muharrir:**

**MIRZOXIDOVA** Laylo Baxtiyorovna

**Tarjimon:**

**ABDULLAYEVA** Maxprat Nurmatovna



ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI  
PEDAGOGIK MAHORAT  
MILLIY INSTITUTI

**MAKTAB TA'LIMI:**

**MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR**  
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

**ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:**

**ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ**  
научно-теоретический  
и учебно-методический журнал

**Scientific-theoretical and**  
**educational-methodical journal**


**SCHOOL EDUCATION:**  
**PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS**

UO'K 373.3/.5

ISSN: 3060-4788

**Muassis:**

Abdulla Avloniy nomidagi  
pedagogik mahorat milliy instituti



**“Har bir muallimning  
saodati, davlatning tinchi  
va rohati yoshlarning yaxshi  
tarbiyasiga bog'liqdir”.**



# MUNDARIJA

# CONTENTS

## *Ta'lim menejmenti va boshqaruv*

**5** Ismailov Abduvali Abdumalikovich.

Umumta'lim muassasalarida  
timss xalqaro baholash natijalari  
asosida ma'lumotlar tahlili  
(data-driven) orqali ta'lim sifati  
boshqaruvini takomillashtirish

**14** Yaratov Jamil Vasilovich.

Maktab va oila hamkorligini  
rivojlantirish mexanizmlarini  
takomillashtirish

**21** Bahriddinova Gulruh Farhod qizi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkiloti  
direktorlarining raqobatni boshqarish  
kompetensiyasini takomillashtirish

**29** Mamanazarova Nargiza Komildjanovna,  
Turikova Lazokat Mashrabovna.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida  
HR-menejment va mehnat  
munosabatlarining rivojlanish  
tendensiyalarini sotsiologik  
so'rov natijalari asosida empirik tahlili

**36** Nuriyeva Umida Buribayevna.

Forsayt texnologiyasi asosida  
umumta'lim muassasalari  
boshqaruvini rivojlantirish mexanizmi  
va samaradorlik ko'rsatkichlari

## *Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

**42** Turdiyev Azizbek Anvarjonovich.

Xalq epik merosi (doston va  
maqollar)ning o'quvchilar xulq-atvor  
madaniyatini shakllantirishdagi  
didaktik imkoniyatlari



**50** Amirkulova Dilnoza Zokir qizi.

**Formativ va summativ baholash:  
qiyosiy-nazariy tahlil**

**56** Abdullayeva Muattaroy Xaliljon qizi.

**Zamonaviy darslik matnlari asosida  
o'quvchilarning nutqiy  
kompetensiyasini rivojlantirishning  
innovatsion yondashuvlari**

**65** Турдиева Мадина Рахматовна.

**Использование искусственного  
интеллекта на уроках литературы:  
методические приёмы развития  
критического мышления**

**71** Baxtiyorjonova Madinaxon Ma'mirjon qizi.

**Matematika darslarida sun'iy intellekt  
vositalaridan foydalanish: metodik  
yondashuvlar va amaliy tavsiyalar**

***Umumiy pedagogika,  
pedagogika tarixi va ta'lim***

**78** Dilnozakhon Buzrukkhonova  
Sarvarkhon qizi.

**The influence of youtube consumption  
on children's socialization skills from  
age three to five**

**84** Djanbayeva Sevara Farhod qizi.

**Badiiy-pedagogik yondashuv asosida  
tarbiya fanida axloqiy tushunchalarni  
o'zlashtirish**

***Malaka oshirish va qayta tayyorlash***

**91** Toxirova Nafisa Dilshod qizi.

**Pedagogik faoliyatda uchraydigan  
kasbiy muammolarga asoslangan  
maktab ichki kasbiy rivojlanish modeli**

# UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA TIMSS XALQARO BAHOLASH NATIJALARI ASOSIDA MA'LUMOTLAR TAHLILI (DATA-DRIVEN) ORQALI TA'LIM SIFATI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

*Ismailov Abduvali Abdumalikovich,*

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent*

*abduvaliismailov@gmail.com*

*<https://orcid.org/0009-0002-4228-5078>*

**Annotatsiya:** Umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish bugungi kunda O'zbekiston ta'lim sohasining ustuvor vazifalaridan biridir. IEA tashkiloti o'tkazgan TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturi natijalariga ko'ra, O'zbekiston unda ilk marta ishtirok etib, 8-sinf o'quvchilari matematikadan 44 ta davlat orasida 32-o'rinni (421 ball), tabiiy fanlardan esa 39-o'rinni (396 ball) egallagan. Maqola TIMSS natijalarini ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv yondashuvi bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishning yangi modelini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va statistik usullardan foydalanildi. O'zbekiston maktablarining TIMSS 2023 natijalari, jumladan School Questionnaire (maktab so'rovnomasi) ko'rsatkichlari, shuningdek yuqori natijali davlatlar (Singapur, Finlandiya, Janubiy Koreya) tajribasi tahlil qilindi. Natijada umumta'lim muassasalari uchun to'rt bosqichli data-driven boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Modelning asosiy yangiligi shundaki, u TIMSS tashxisini maktabning ichki boshqaruv sikli bilan bevosita bog'laydi. Taklif etilgan model O'zbekistonda ta'lim sifati boshqaruvini xalqaro darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** TIMSS 2023, ta'lim sifati, data-driven boshqaruv, umumta'lim muassasalari,

xalqaro baholash, boshqaruv modeli, maktab so'rovnomasi, IEA.

**Совершенствование управления качеством образования в общеобразовательных учреждениях на основе анализа данных (DATA-DRIVEN), полученных по результатам международного исследования TIMSS**

**Исмаилов Абдували Абдумаликович,**

*ректор Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони,*

*Доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент*

**Аннотация:** Совершенствование системы управления качеством образования в общеобразовательных учреждениях на основе международных стандартов является одной из приоритетных задач системы образования Узбекистана. Согласно результатам международной программы оценки TIMSS 2023, проведённой IEA, Узбекистан впервые принял в ней участие: учащиеся 8-го класса заняли 32-е место по математике среди 44 государств (421 балл) и 39-е место по естественным наукам (396 баллов). Статья посвящена разработке новой модели

повышения качества образования путём интеграции результатов TIMSS с подходом управления на основе данных (data-driven). В исследовании использованы методы сравнительного анализа, системного подхода и статистической обработки данных. Проанализированы результаты узбекистанских школ в TIMSS 2023, включая показатели School Questionnaire, а также опыт стран с высокими результатами (Сингапур, Финляндия, Республика Корея). В результате разработана четырёхэтапная модель управления на основе данных. Ключевая новизна модели состоит в том, что она напрямую связывает диагностику TIMSS с внутренним циклом управления школой.

**Ключевые слова:** TIMSS 2023, качество образования, управление на основе данных, общеобразовательные учреждения, международная оценка, модель управления, School Questionnaire, IEA.

**Improving educational quality management in general secondary schools through DATA-DRIVEN analysis based on the results of the TIMSS international assessment**

**Ismailov Abduvali Abdumalikovich,**  
Rector of the National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

**Abstract:** Improving the educational quality management system in secondary schools in line with international standards is one of the priority tasks of Uzbekistan's education system. According to the results of the TIMSS 2023 international assessment conducted by the IEA, Uzbekistan participated for the first time: eighth-grade students ranked 32nd in mathematics among 44 countries (421 points) and 39th in science (396 points). The article focuses on developing a new model for improving educational quality by integrating TIMSS results with a data-driven management approach. The study employs comparative analysis, a systematic approach, and statistical methods. The TIMSS 2023 results of Uzbekistan's schools, including School Questionnaire indicators, as well as the experience of high-performing countries (Singapore, Finland, the Republic of Korea), were analysed. As a result, a four-stage data-driven management model was developed. The key novelty of the model lies in directly linking TIMSS diagnostics with the school's internal management cycle.

**Keywords:** TIMSS 2023, educational quality, data-driven management, secondary schools, international assessment, management model, School Questionnaire, IEA.

Zamonaviy ta'lim siyosatida ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash va boshqarish markaziy o'rin tutadi. Ta'limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) o'tkazadigan TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) dasturi 1995-yildan buyon har to'rt yilda o'tkazib kelinmoqda va hozirgi kunda 28 yillik dinamik ma'lumotlarni qamrab oladi. Dastur UNESCOning Barqaror rivojlanish maqsadi 4 (SDG 4) bilan bevosita bog'liq bo'lib, mamlakatlarga o'z ta'lim tizimlari samaradorligini xalqaro miqyosda kuzatish imkonini beradi.

Shu bois TIMSS natijalari nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ta'lim boshqaruvi tizimining umumiy holatini ham aks ettiruvchi muhim tashxis vositasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aynan shu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida mamlakatimiz 2023-yilda TIMSS dasturida ilk marta ishtirok etdi; bu O'zbekiston ta'limi uchun xalqaro baholash maydoniga chiqishdagi muhim qadam bo'ldi. TIMSS 2023 natijalariga ko'ra, 8-sinf o'quv-



chilari matematikadan 421, tabiiy fanlardan 396 ball to'plab, keyingi tahlillar uchun dastlabki tayanch ko'rsatkich (baseline)ni shakllantirdi [6].

Ushbu natijalar mamlakat uchun qimmatli tashxis asosi bo'lib xizmat qiladi: ular yetakchi davlatlar, masalan, Singapur (8-sinf matematikasidan 605 ball) va Janubiy Koreya (596 ball) tajribasi bilan qiyoslash hamda rivojlantirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Bunda asosiy e'tibor natijaning o'ziga emas, balki undan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qanchalik samarali foydalanilayotganiga qaratiladi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, baholash natijalarini muntazam tahlil qilish va ularni asosli boshqaruv qarorlariga aylantirish ta'lim sifatini barqaror oshirishning muhim shartidir. Biroq O'zbekiston sharoitida TIMSS natijalarini ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvi bilan uyg'unlashtirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar deyarli yo'q. Aynan shu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi** – TIMSS xalqaro baholash natijalariga asoslangan data-driven boshqaruv modelini ishlab chiqish va uning O'zbekiston umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

- 1) O'zbekiston maktablarining TIMSS 2023 natijalarini xalqaro kontekstda tahlil qilish;
- 2) yuqori natijali davlatlarning baholash ma'lumotlaridan boshqaruvda foydalanish tajribasini o'rganish;
- 3) TIMSS tashxisini maktabning ichki boshqaruv sikli bilan bog'lovchi to'rt bosqichli modelni ishlab chiqish;
- 4) modelni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berish.

Mazkur tadqiqot sifat va miqdoriy usullarni uyg'unlashtirgan aralash (mixed-methods) yondashuvga asoslanadi. U xarakteriga ko'ra

tavsifiy-tahliliy bo'lib, mavjud xalqaro baholash ma'lumotlarini o'rganish orqali yangi boshqaruv modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi bosqichlar ketma-ketligida olib borildi: ma'lumotlarni yig'ish, qiyosiy tahlil, modellashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda faqat xalqaro miqyosda e'tirof etilgan birlamchi manbalardan foydalanildi: IEA TIMSS 2023 International Results (O'zbekiston va boshqa davlatlarning ko'rsatkichlari); IEA TIMSS 2023 International Database (o'quvchi, maktab va o'qituvchi darajasidagi kontekstual ma'lumotlar); OECD va UNESCO hisobotlari (xalqaro standartlar va SDG 4 ko'rsatkichlari); shuningdek O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlari.

Tahlilda quyidagi usullar qo'llanildi: qiyosiy tahlil (O'zbekiston natijalarini yetakchi davlatlar bilan solishtirish); statistik tahlil (TIMSS shkalasi, ya'ni xalqaro o'rtacha 500 ball asosida baholash); tizimli yondashuv (ta'lim boshqaruvini yaxlit tizim sifatida o'rganish); model-lashtirish (to'rt bosqichli boshqaruv modelini loyihalash).

Tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham e'tirof etish lozim. O'zbekiston TIMSS dasturida ilk marta ishtirok etgani sababli dinamik (vaqt bo'yicha) tahlil o'tkazish imkoni cheklangan; tadqiqot mavjud ikkilamchi ma'lumotlarga tayanadi; taklif etilayotgan model nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, uning amaliy samaradorligini baholash keyingi tadqiqotlarni talab qiladi.

TIMSS 2023 natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, yetakchi davlatlar bilan O'zbekiston o'rtasidagi tafovut faqat o'quvchilarning bilim darajasida emas, balki ta'lim sifatini boshqarish madaniyatida ham namoyon bo'ladi.


Yetakchi davlatlarda baholash natijalari muntazam ravishda boshqaruv qarorlariga aylantiriladi – bu data-driven yondashuvning mohiyatini tashkil etadi.

1-jadval.

**O'zbekiston natijalarini yetakchi davlatlar  
 bilan solishtirishma tahlili**  
 (8-sinf, matematika)

| Davlat nomi    | Ball | TIMSS<br>o'rtachasiga<br>(500) nisbatan |
|----------------|------|-----------------------------------------|
| Singapur       | 605  | +105                                    |
| Janubiy Koreya | 596  | +96                                     |
| O'zbekiston    | 421  | -79                                     |

Tadqiqot natijasida ta'lim sifatini boshqarishning modeli ishlab chiqildi. Model TIMSS tashxisini maktabning ichki boshqaruv jarayoni bilan bevosita bog'laydi va to'rt bosqichdan iborat:



Uzluksiz sikl: har bosqich keyingisini oziqlantiradi

**1-rasm. TIMSS-asoslangan to'rt bosqichli data-driven boshqaruv sikli**

1-bosqich – Ma'lumot yig'ish (Collect). Maktab darajasida TIMSS natijalari va kontekstual ma'lumotlar (o'qituvchilar salohiyati, o'quv resurslari, o'quvchilarning fanlarga munosabati) izchil ravishda to'planadi.

2-bosqich – Tahlil (Analyze). Yig'ilgan ma'lumotlar asosida maktabning kuchli hamda rivojlantirishni talab qiluvchi tomonlari aniqlanadi va xalqaro o'rtacha (500 ball) bilan, shuningdek yetakchi davlatlar ko'rsatkichlari bilan qiyoslanadi.

3-bosqich – Qaror qabul qilish (Decide). Tahlil asosida aniqlangan ustuvor yo'nalishlar

yuzasidan maqsadli boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi.

4-bosqich – Monitoring (Monitor). Qabul qilingan qarorlar amaliyotga tatbiq etiladi va natijasi kuzatib boriladi. Ushbu bosqich yangidan ma'lumot yig'ish bilan tutashib, uzluksiz takomillashtirish siklini hosil qiladi.

Modelning asosiy ilmiy yangiligi shundaki, u TIMSS xalqaro tashxisini maktab darajasidagi ichki boshqaruv sikli bilan bevosita bog'laydi. Aksariyat tadqiqotlar TIMSS natijalarini faqat milliy (makro) darajada tahlil qiladi; mazkur model esa ularni maktab rahbarining kundalik boshqaruv vositasiga aylantiradi.

IEA International Database ma'lumotlari O'zbekiston natijalarining nafaqat o'rtacha qiymatini, balki o'quvchilar o'rtasidagi taqsimotini

ham ochib beradi. TIMSS shkalasi to'rt chegara darajasidan iborat: past (400 ball), o'rta (475), yuqori (550) va ilg'or (625). IEA xulosasiga ko'ra, O'zbekiston o'quvchilari o'rtacha asosiy darajani namoyish etgan; biroq na matematika, na tabiiy fanlarda hech bir o'quvchi yuqori yoki ilg'or darajaga yeta olmagan, ishtirokchilarning qariyb to'rttdan bir qismi esa fan bo'yicha asosiy tushunchaga ham ega bo'lmagan<sup>1</sup>.


<sup>1</sup> TIMSS 2023 international results. Exhibit 2.1.4 (4-sinf tabiiy fanlar bo'yicha chegara darajalari taqsimoti). [https://timss2023.org/wp-content/uploads/2024/11/2-1-4\\_ach-g4s-bmk-dist.pdf](https://timss2023.org/wp-content/uploads/2024/11/2-1-4_ach-g4s-bmk-dist.pdf).

Persentil tahlili o'quvchilar o'rtasidagi tafovutni yaqqol ko'rsatadi: 4-sinf matematikasida eng past (5-persentil – 311 ball) va eng yuqori (95-persentil – 579 ball) natijalar orasidagi farq 268 ballni tashkil etadi<sup>2</sup>.


Bunday katta farq maktab ichida ta'lim sifati bir tekis emasligidan dalolat beradi va boshqaruv uchun muhim ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

lakat uchun ustuvor boshqaruv yo'nalishini belgilaydi.

TIMSS dasturining boshqaruv tadqiqotlari uchun eng qimmatli jihati shundaki, u faqat test natijalarini emas, balki maktab darajasidagi kontekstual omillarni ham o'lchaydi. Maktab so'rovnomasi bevosita maktab direktorlariga mo'ljallangan bo'lib, maktab resurslari, intizom va xavfsizlik holati hamda akade-



2-rasm. O'zbekiston TIMSS 2023 persentil taqsimoti



3-rasm. 4-sinf tabiiy fanlar: chegara darajalariga yetgan o'quvchilar ulushi

Chegara darajalari bo'yicha taqsimot eng katta zaxirani aniqlaydi: 4-sinf tabiiy fanlarda O'zbekiston o'quvchilarining atigi 56 foizi past chegaraga (400 ball) yetgan, xalqaro median esa 90 foizni tashkil qiladi [4]. Bu farq mam-

mik muvaffaqiyatga e'tibor kabi boshqaruvga taalluqli omillar haqida ma'lumot to'playdi. TIMSS metodologiyasiga ko'ra, bu omillarning bir qismi o'zgartirilishi mumkin bo'lgan toifaga kiradi – ya'ni to'g'ri boshqaruv qarorlari orqali yaxshilanishi mumkin.

Akademik muvaffaqiyatga urg'u – eng kuchli boshqaruv omili hisoblanadi.

<sup>2</sup> Exhibit D.1 (4-sinf matematika, [https://timss2023.org/wp-content/uploads/2024/11/D-1\\_ach-percentiles-g4m.pdf](https://timss2023.org/wp-content/uploads/2024/11/D-1_ach-percentiles-g4m.pdf)) va Exhibit D.4 (8-sinf tabiiy fanlar, [https://timss2023.org/wp-content/uploads/2024/11/D-4\\_ach-percentiles-g8s.pdf](https://timss2023.org/wp-content/uploads/2024/11/D-4_ach-percentiles-g8s.pdf)).




Maktab so'rovnomasi ma'lumotlari orasida boshqaruv ta'sirini eng yaqqol aks ettiruvchi omil – maktabning akademik muvaffaqiyatga qaratgan e'tibori. Xalqaro miqyosda 8-sinf matematikasi bo'yicha akademik muvaffaqiyatga “juda yuqori” urg'u beruvchi maktablar o'quvchilari o'rtacha 515 ball, “yuqori” urg'u beruvchilar 483 ball, “o'rta” urg'u beruvchilar esa 454 ball to'plagan; “juda yuqori” va “o'rta” toifalar orasidagi farq 61 ballni tashkil etadi [4]. Bu omilning ta'siri intizom omilidan ham kuchliroqdir.

kuzatiladi. Har ikkala omil ham maktab rahbari-ning bevosita ta'sir doirasiga kiradi; bu esa boshqaruv qarorlari ta'lim sifatiga real va o'lhovli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston maktab so'rovnomasi ko'rsatkichlari tahlili. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonga oid aniq ko'rsatkichlar o'ziga xos manzarani ochib beradi.

Keltirilgan raqamlar uch muhim xulosaga olib keladi. Birinchidan, intizom O'zbekistonning eng zaif boshqaruv bo'g'inidir: 8-sinfda maktablarning 50 foizini direktorlar “o'rta-



**4-rasm. Akademik muvaffaqiyatga urg'u va o'quvchilar yutug'i**  
**(xalqaro o'rtacha, 8-sinf)**

Intizom va xavfsizlik omili. Xalqaro miqyosda intizom va xavfsizlik bo'yicha “deyarli muammosiz” maktablarning 8-sinf o'quvchilari matematikadan o'rtacha 485 ball, “o'rtacha yoki jiddiy muammoli” maktablar o'quvchilari esa 443 ball to'plagan – oradagi farq 42 ball [4]. Tabiiy fanlarda ham shunga o'xshash holat

cha yoki jiddiy muammoli” deb baholagan, xalqaro o'rtacha ko'rsatkich esa atigi 14 foiz. O'zbekistonning intizom shkalasidagi qiymati 8,4–8,8 bo'lib, xalqaro markaziy nuqtadan (10,0) sezilarli darajada past. Ikkinchidan, akademik urg'u 8-sinfda kuchliroq namoyon bo'ladi:


2-jadval.

**Akademik urg'u**  
**(O'zbekiston, o'rtacha ball)**

| Sinf / Fan           | Juda yuqori | Yuqori | O'rta | Farq |
|----------------------|-------------|--------|-------|------|
| 4-sinf matematika    | 456         | 444    | 434   | 22   |
| 4-sinf tabiiy fanlar | 425         | 412    | 404   | 21   |
| 8-sinf matematika    | 457         | 419    | 407   | 50   |
| 8-sinf tabiiy fanlar | 427         | 393    | 388   | 39   |

**Intizom va xavfsizlik**  
(O'zbekiston, o'rtacha ball)

| Sinf / Fan           | Deyarli muammosiz | Ozgina    | Jiddiy    | Shkala |
|----------------------|-------------------|-----------|-----------|--------|
| 4-sinf matematika    | 448 (44%)         | 431 (9%)  | 441 (47%) | 8,4    |
| 4-sinf tabiiy fanlar | 416               | 403       | 409       | 8,4    |
| 8-sinf matematika    | 426 (36%)         | 429 (14%) | 415 (50%) | 8,8    |
| 8-sinf tabiiy fanlar | 400               | 404       | 390       | 8,8    |




**5-rasm. Maktab intizom taqsimoti: O'zbekiston va xalqaro o'rtacha (4-sinf)**

4-sinfda toifalar orasidagi farq atigi 22 ball bo'lsa, 8-sinfda u 50 ballga yetadi (457 va 407).

Uchinchidan, O'zbekistonda intizom bilan natija o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro tendensiyadan farq qiladi; bu intizomni baholash mezonlari hali xalqaro standartlarga to'liq mos

kelmasligidan dalolat beradi va modelni joriy etishda albatta hisobga olinishi lozim. Shu tariqa model nazariy tuzilma bo'lib qolmay, maktab so'rovnomasining real o'lchov mexanizmlariga asoslangan amaliy boshqaruv vositasiga aylanadi. O'zbekiston uchun modelning



**6-rasm. O'zbekiston: akademik urg'u ta'siri (matematika, 4 va 8-sinf)**


**Model bosqichlarining maktab so'rovnomasi bilan uyg'unligi**

| Model bosqichi   | Maktab so'rovnomasi mexanizmi                                    | Mezon                |
|------------------|------------------------------------------------------------------|----------------------|
| Ma'lumot yig'ish | Direktor so'rovnomasi: akademik urg'u, intizom, resurslar        | Xom ko'rsatkichlar   |
| Tahlil           | Maktab ballarini xalqaro shkala (markaz – 10) bilan solishtirish | Markazdan og'ish     |
| Qaror            | Eng katta ta'sirga ega omil yuzasidan maqsadli chora             | Ustuvorlik tartibi   |
| Monitoring       | Keyingi sikldagi shkala ko'rsatkichini kuzatish                  | O'sish yoki pasayish |

birinchi ustuvor yo'nalishi intizom va xavfsizlik mexanizmlari bo'lishi lozim, chunki aynan shu ko'rsatkich xalqaro o'rtachadan eng katta farq qiladi va to'liq maktab rahbarining ta'sir doirasiga kiradi.

Taklif etilayotgan model O'zbekiston uchun butunlay yangi tuzilma emas – u mavjud milliy

shkalasi va maktab so'rovnomasi ko'rsatkichlari bilan boyitadi va butunlay yangi tuzilma talab qilmaydi. Bundan tashqari, O'zbekistonning TIMSS dasturidagi ishtiroki Prezident farmoni PF-279 va tegishli me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlangan; bu esa modelning davlat siyosatiga muvofiqligini ko'rsatadi.



**7-rasm. Mavjud milliy tizim va TIMSS data-driven modelning uyg'unligi**

tizimga tayanadi. TIMSS 2023 Encyclopedia (O'zbekiston bo'limi) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda allaqachon ko'p bosqichli ichki nazorat tizimi amal qiladi: joriy, oraliq, bosqichli va yakuniy nazorat. Ta'lim muassasalari faoliyatini baholashning asosiy shakli – attestatsiya bo'lib, u ichki (o'z-o'zini baholash) va tashqi baholashni o'z ichiga oladi [2]. Taklif etilayotgan model aynan shu mavjud "o'z-o'zini baholash" tizimini xalqaro mezonlar (TIMSS

Tadqiqot natijalari TIMSS xalqaro baholash dasturi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini o'lchaydigan vosita, balki ta'lim sifatini boshqarishning strategik manbai ham bo'la olishini ko'rsatdi. O'zbekistonning TIMSS 2023 dasturidagi ilk ishtiroki natijasida shakllangan dastlabki tayanch ko'rsatkich keyingi boshqaruv qarorlari uchun xolis asos yaratadi.

Ishlab chiqilgan to'rt bosqichli data-driven boshqaruv modeli TIMSS tashxisini

maktabning ichki boshqaruv sikli bilan bog'laydi va maktab so'rovnomasining o'lchovli ko'rsatkichlariga tayanadi. O'zbekiston ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, intizom va xavfsizlik omili mamlakatning eng zaif boshqaruv bo'g'ini bo'lib, modelning birinchi ustuvor yo'nalishini belgilaydi; akademik muvaffaqiyatga urg'u esa, ayniqsa 8-sinfda, sezilarli ta'sirga ega.

Shuni ham qayd etish lozimki, taklif etilayotgan model nazariy jihatdan asoslangan; uning amaliy samaradorligini baholash uchun tajriba maktablarida sinovdan o'tkazish zarur. O'zbekiston TIMSS 2027 siklida ishtirok etgach, dinamik tahlil o'tkazish va modelning haqiqiy ta'sirini o'lchash imkoniyati tug'iladi. Kelgusi tadqiqotlar modelni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha aniq uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-son. 2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>
2. A.Ismailov, S.Palvannazirov, K.Karimberdiev, F.Kholmiraev Uzbekistan. TIMSS 2023 Encyclopedia. TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College va IEA, 2024. <https://timss2023.org>
3. Fishbein, B., Taneva, M., Kowolik, K. TIMSS 2023 User Guide for the International Database. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2025. <https://timss2023.org/data>
4. IEA. TIMSS 2023 International Results: School Environment, Exhibits 4.1.1-4.2.16. 2024. <https://timss2023.org/results>
5. UNESCO. Sustainable Development Goal 4: Quality Education, Indicator 4.1.1. UNESCO Institute for Statistics, 2023. <https://uis.unesco.org>
6. von Davier, M., Kennedy, A., Reynolds, K., Fishbein, B., Khorramdel, L., Aldrich, C., Bookbinder, A., Bezirhan, U., Yin, L. TIMSS 2023 International Results in Mathematics and Science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2024. [lsc.tpi-sc. timss.rs6460](https://timss2023.org)
7. S. Kh. Palvannazirov, "Uzbekistan's Participation in the TIMSS 2023 International Assessment: Results, Conclusions, and Strategic Opportunities," Sci. Innov., vol. 3, no. 12, 2024, [Online].
8. I. V. S. Mullis and M. O. Martin, "Using TIMSS and PIRLS to improve teaching and learning," Rech. En Éducation, no. 14, 2012, doi: 10.4000/ree.5835.



# MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Yaratov Jamil Vasilovich,**

*O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi  
Respublika kengashi raisining yoshlar  
masalalari bo'yicha maslahatchisi.*

*Tel.: 99-858-48-50*

*jamilyaratov845@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari Kuzatuv kengashining faoliyati, maqsad va vazifalari hamda vakolatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limni boshqarishda boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligi va bir-birini to'ldirishi ta'lim samaradorligini oshirishga bevosita ta'siri ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** maktab, ta'lim muassasasi, boshqaruv, boshqaruv organlari, kuzatuv kengashi, direktor, ota-onalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.

## Совершенствование механизмов развития сотрудничества школы и семьи

**Яратов Жамил Васильевич,**

*Советник по вопросам молодежи при  
Председателе Республиканского совета  
Профсоюза работников образования  
и науки Узбекистана*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются деятельность, цели, задачи и полномочия Наблюдательного совета общеобразовательных средних школ. Также выражено прямое влияние взаимного сотрудничества и взаимодо-

полняемости органов управления в сфере управления общеобразовательным средним образованием на повышение эффективности обучения.

**Ключевые слова:** школа, учебное заведение, руководство, органы управления, наблюдательный совет, директор, родители, органы гражданского самоуправления.

## Improving mechanisms for developing cooperation between school and family

**Yaratov Jamil Vasilovich,**

*Advisor on youth issues to the Chairman of the  
Republican Council of the Trade Union of  
Education and Science Workers of Uzbekistan*

**Abstract:** This article examines the activities, goals, tasks, and powers of the Supervisory Board of general secondary schools. Also, the direct impact of mutual cooperation and complementarity of management bodies in the management of general secondary education on increasing the effectiveness of education is expressed.

**Keywords:** school, educational institution, management, governing bodies, supervisory board, director, parents, citizens' self-government bodies.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “...Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz”. Yuqoridagilar-dan kelib chiqib, yurtimiz kelajagi bo‘lgan aziz farzandlarimizni ma’nan boy va axloqan etuk, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash avvalo ota-ona, mahalla, ta’lim muassasasi va keng jamoatchilikning muqaddas burchidir.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik muhitini tashkil etish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va intellektini rivojlantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maktab va ota-ona hamkorligi – o‘quvchi-ning sifatli ta’lim olishi, ruhiy va ma’naviy etuk shaxs bo‘lib shakllanishidagi eng muhim poydevor. Bu jarayon o‘zaro muloqot, ochiqlik va mas’uliyatni talab qiladi.

Maktabda berilayotgan bilim va axloqiy mezonlar uyda ham davom ettirilishi kerak. Ta’lim-tarbiya jarayonida ota-ona va o‘qituvchi talablari bir xil bo‘lsagina, bolada mas’uliyat hissi shakllanadi, aksincha, jarayonni tashkil etishda ota-ona va maktab jamoasi (kattalar) ning dunyoqarashi va yondoshuvi turlicha bo‘lsa, o‘zaro muloqot o‘rnatilmagan va tizimlashmagan bo‘lsa, o‘quvchi nomuvofiq munosabatlar ta’sirida kundalik ta’lim va hayot tarzini tanlashda, shakllantirishda ikkilanadi.

Aksariyat hollarda, o‘quvchining maktabda tarbiya va bilimni o‘zlashtirish darajasi oiladagi axloqiy mezonlar ustiga quriladi. Shu nuqtai nazardan, ota-ona maktab muhiti bilan muntazam samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishi ahamiyatli. Mashhur rus pedagogi V.Suxomlinskiy aytganidek, “Ildizlar oilada yotadi, undan shoxlar, gullar va mevalar keyinchalik

o‘sib chiqadi. Maktabning pedagogik donoligi oilaning axloqiy salomatligiga asoslanadi”.

Maktab ta’limining samaradorligini oshirishda ota-ona yoki oila hamkorligining ahamiyati yurtimiz olim va izlanuvchilari L.Gaynutdinova, E.Karimova, A.Usmanova, M.Djumaniyazova, F.Musurmonqulov, A.Olimov, N.El-murzaeva, xorijiy tadqiqotchilar T.M.Papsheva, T.V.Myagkostupova, E.Alieva, X.Zagladina, N.A.Shibaeva, A.M.Kamenskiy, A.Shlyayxer, R.Anderson, Joyce L.Epstein va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

L.Gaynutdinovaga ko‘ra, ta’lim muassalarida ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikning maqsadi – ota-onalarning ta’lim muassasalari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, yagona, insonparvar, do‘stona ta’lim muhitini yaratishga hissa qo‘shish, shu borada ularning pedagogik, huquqiy, psixologik, tibbiy, ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini muntazam oshirib borish hamda bolalarning maktabdagi muvaffaqiyatlarini rivojlantirishga yordam berishdan iborat [7].

Maktab va oilaning o‘zaro hamkorligi – bu pedagoglar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyati va muloqoti jarayonidagi aloqasidir. Uning natijasida ikkala tomon ham rivojlanadi. Demak, maktab va oilaning o‘zaro hamkorligi ularning rivojlanishining manbai va muhim mexanizmidir [5].

Bolaning ulg‘ayishiga yashab turgan muhiti, albatta, bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bolaning hattoki bir kunlik hayoti ham yagona muhitda emas, turli – oila, maktab, do‘stlar va boshqa muhitlarda o‘tadi. Maktab va ota-onalarning o‘zaro hamkorligi natijasida uyg‘unlashgan muhit bolaning maktab va maktabdan tashqarida ortiqcha ruhiy yuklamasiz, qulay va kam qarama-qarshilik sharoitida kamol topishiga imkon yaratadi.

Mutaxassislarning fikricha, “davlat ta’lim tizimining asosiy maqsadi – zamonaviy jamiyatda o‘zini namoyon qilish va rivojlantirishga

qodir bo'lgan shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratishdir. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalaydigan barcha ijtimoiy institutlar uchun asosiy yo'riqnoma bo'lishi lozim. Faqatgina, oila, maktab va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning birligigina har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yarata oladi" [10].

Ota-onalar bilan hamkorlik maktabda o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishi, umumiy rivojlanishi uchun muhim shartdir. Ota-onalarning ta'limga bo'lgan munosabati, ularning maktabga qiziqishi va farzandlari bilan muhokamalari ularning ta'lim darajasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

"Bola hayoti ikki muhim sohadan iborat: maktab va oila, ular o'zgarish va rivojlanishga duchor bo'ladi. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida oilaviy qadriyatlarning yo'qolishi boshqalar qatorida demografik muammolarining asosiy sabablaridan biriga aylandi. Shuning uchun maktab va oilaning hamkorligi muhim va dolzarb muammolardan biridir" [8].

2015-yilda PISA (Programme for International Student Assessment) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra ota-onasi deyarli har kuni farzandlari bilan "shunchaki suhbatlashib o'tirib vaqt o'tkazadigan", "tushlik yoki kechki ovqatni birgalikda qiladigan" yoki "maktabdagi muvaffaqiyatlarini muhokama qiladigan" bolalar 22-29 foizga ko'proq ehtimol bilan hayotdan qoniqish hissini tuyganlar [3].

Mutaxassislarning ta'kidlarini umumlash-tiradigan bo'lsak, maktab va oila hamkorligi bolaning nafaqat ta'lim olishi bilan bog'liq, balki tarbiya, ruhiy barqarorliklik va ijtimoiylashuv (atrofdagilar bilan to'g'ri muloqot o'rnatish) kabi sifatlarning namoyon bo'lishini faollashtirishga ko'maklashadi va uning jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan barkamol shaxs bo'lib voyaga etisha xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonida umumta'lim muassasasi kuzatuv kengashining **asosiy vazifasi** umumta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, umumta'lim muassasasi rahbarining muassasa faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, budjet, budjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida hisobotlarini tinglash, umumta'lim muassasasi rahbarining taqdimnomasi bo'yicha yillik moliyaviy rejalarni, ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini va muassasa mulkidan foydalanganlik uchun ijarahaqi miqdorini ko'rib chiqish va tasdiqlash, o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish, o'quvchilar va ular ota-onalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, umumta'lim muassasasining pedagog va rahbar xodimlari faoliyati to'g'risida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish hisoblangan, tarkibiga **muassasa faoliyatiga jiddiy hissa qo'shishga qodir eng faol ota-onalar**, bitiruvchilar, homiylar va boshqa shaxslar kiritiladigan, yuridik shaxs maqomisiz umumta'lim muassasalarining kuzatuv kengashlarini tashkil etish vazifasi belgilagan edi [1]. Ushbu vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2018-yil 26-dekabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 11-yanvarda 3118-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) 16-mh-son buyrug'i qabul qilingan [2].

Ayni paytda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yuqoridagi namunaviy nizom asosida kuzatuv kengashlari o'z faoliyatini olib bormoqda. Ammo, ushbu kuzatuv kengashlari o'z

oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga to'la erishayotganligi bo'yicha ota-onalar va pedagoglar o'rtasida turli bahslar mavjud.


Mazkur tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqarish mexanizmlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida sohaga oid idoraviy me'yoriy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari o'rganildi. Shuningdek, maktab boshqaruvi organlarining o'zaro hamkorligi va amaliy samaradorligi tahlil qilindi.

O'quvchilarning ijtimoiy-axloqiy rivojla-

lardan, pedagoglarning befarqligidan, bolalar jamoasidagi munosabatlardan norozilik bildirishlari mumkin.

Maktabda ta'lim sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyatini o'rganish maqsadida o'tkazgan so'rovnomaamizda qatnashgan 4 754 nafar pedagoglar **"Sizningcha, umumiy o'rta ta'lim sifatiga qaysi omil ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatadi?"**, savoliga ularning **1606 nafari (33,8 foiz) ota-onalarning o'z farzandi tarbiyasiga befarqligi**, deb javob bergan. 1-rasm.

Yuqoridagi so'rovnoma natijalaridan ham



**1-rasm. Maktabda ta'lim sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyatini o'rganish boyicha sorovnom natijasi**

nishi va bu boradagi amaliy vazifalarning muvaffaqiyatli yechimi faqat oila va maktabning o'zaro hamkorligi sharoitida amalga oshiriladi. Oila va maktabning hamkorligi esa tobora dolzarb masala bo'lib bormoqda. Har ikki tomon ham o'zlarining ta'lim-tarbiya faoliyatiga nisbatan qarashlari va e'tirozlarini bildiradilar. Masalan, pedagoglar ota-onalarning o'z farzandlarini ta'lim va maktab hayotiga befarq ekanligidan, tarbiya va axloqiy qadriyatlar darajasining pastligidan, ota-onalar esa farzandlariga berilayotgan haddan tashqari yuklama-

ko'rish mumkinki, ishtirokchilarning har 3 nafaridan bittasi ota-onaning o'z farzandiga munosabati uning maktabdagi ta'lim-tarbiyasi sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu ma'noda, ota-onani maktab maktab muhitiga, zarur hollarda maktab muammolariga jalb etish, uning ishtirokchisiga aylantirishning samarali yo'llarini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasasi va oila (ota-ona) hamkorligi muammolari va istiqbollari muhokama qilingan tadqiqot va ilmiy ishlarda ushbu



hamkorlikning samarali ekanligi bayon etilgan. Masalan, 2022-yilda O'zbekiston maktablarida o'tkazilgan PISA tadqiqoti natijalariga bag'ishlangan hisobotlarda ham 2018- va 2022-yillar oralig'ida ota-onalar ishtirokida ijobiy tendensiya kuzatilgan tizimlarda (ya'ni, o'z tashabbusi bilan farzandining natijalarini muhokama qiladigan ota-onalar ulushi kamroq qisqargan) matematika bo'yicha ko'rsatkichlar barqarorlashgani yoki yaxshilangani keltirilgan [9].

Bizningcha, asosiy masala ota-onani maktab bilan o'zaro manfaatli bog'lash mexanizmlarini, samarali hamkorlik yo'llarini ishlab chiqish nihoyatda muhim.

Bugun biz maktab va ota-onalar hamkorligining quyidagi yo'nalishlarini kuzatishimiz mumkin.

Maktab va ota-ona o'rtasidagi **doimiy aloqa**, ya'ni sinf rahbari va fan o'qituvchilari bilan muntazam fikr almashish, elektron platformalar orqali o'quvchining o'zlashtirishi va davomatidan doimiy xabardor bo'lish imkoniyati mavjud.

**Ota-onalar yig'ilishlarida** faqatgina baholar va o'zlashtirish muhokamasi emas, balki bolaning tarbiyasi, psixologik muammolari va kelajakdagi kasb tanlash masalalari bo'yicha mutaxassislar bilan ochiq muloqotlar tashkil etish

**Qo'shma tadbir va loyihalarda**, maktabdagi ochiq eshiklar kunida, fan to'garaklarida, sport musobaqalari va bayram tadbirlarida ota-onalarning faol ishtiroki oila va maktabni bir-biriga yaqinlashtirmoqda, o'zaro tushunish muhitini yaratmoqda.

Yuqoridagi mexanizmlar o'quvchilarning darslarda (faol) ishtirok etish ko'rsatkichini, o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, pirovardida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, bunda ota-onalarning ishtiroki yoki ishtirok etmasligi ularning xohish-istaklari bilan chegaralanib qolmoqda. Ham-

korlik, qachonki jozibali bo'lsa, unda ishtirok etuvchilar ulushi ortadi.

O'z oldiga ta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ta'lim muassasasining maqsadlari va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash, ta'lim muassasasida amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borishni maqsad qilgan umumiy o'rta ta'lim muassasasining **kuzatuv kengashi** tarkibida ham ota-onalarning ishtirokini kuzatishimiz mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi faoliyatini tartibga soluvchi Nizomda garchi umumiy son chegaralanmagan bo'lsada, kengash tarkibida 2 nafar ota-ona ishtiroki belgilangan. Mazkur miqdor (2 nafar ota-ona) o'rtacha hajmli maktabdagi 300-400 nafar oilaning (ota-onalarning) farzandining ta'lim olishi bilan bog'liq xohish-istaklari, tashabbuslari va fikrlarini tamsil eta oladimi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Masalan, qo'shni Qozog'iston Respublikasi maktablarida funksiyasi jihatidan O'zbekiston maktablaridagi Kuzatuv kengashiga teng Vasiylik kengashi faoliyat yuritib, unda har bir parallel sinfdan 1 nafardan, 1-11-sinflardan jami 11 nafar ota-ona, ularning yig'ilishida saylanib, Vasiylik kengashida ishtirok etadi [11].

Tasavvur qilaylik, har bir sinfdan 1 nafar ota-ona, o'rtacha hajmdagi maktabdagi 33 ta sinfdan 33 nafar ota-ona Kuzatuv kengashi ishida ishtirok etsa, kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalar bo'yicha barcha ta'lim ishtirokchilari uchun manfaatli qarorlar bilan yakunlanadi.

Ota-onalarning maktab boshqaruvi jarayonlarida ko'proq (ko'p sonli) ishtirok etishlari, natijada, maktab muhitida sodir bo'layotgan yangilik va o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari ikki tomonning o'zaro yaqinlashuviga, fikr

va qarashlar yakdilligiga olib keladi.

Mutaxassislarning fikricha, “guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning etishmasligi va kamligi ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisida (o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va rahbar) reallik haqida o‘zgacha, ko‘pincha buzilgan tasavvur paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin va shu sababli umumiy til topish qiyin bo‘ladi” [4].

Turli adabiyotlarda “ota-onalar qo‘mitasi” kabi norasmiy tuzilmalar orqali maktab hayotiga ota-onalarni jalb etish haqida so‘z boradi va afsuski, bu tuzilma ko‘p hollarda amaliyotda samarali ishlamaydi. Buning sabablaridan biri sifatida “ota-onalar qo‘mitasi” yig‘ilishlari, fikr va mulohazalari rasmiy tusga ega bo‘lmaganligi, ishtirokchilardan mas’uliyat (javobgarlik) talab etilmaligini ko‘rsatish mumkin.

Ota-onalar maktab hayotida kuzatuvchi emas, ta’lim muassasasining boshqaruvida bevosita ishtirok etishi ularni ta’lim muassasasiga tobora yaqinlashtiradi. Masalan, har bir sinfdan 1 nafar ota-onaning maktab rahbariyati tavsiyasi asosida emas, aynan sinf ota-onalarining saylovi orqali maktab Kuzatuv kengashida ishtirok etishi nafaqat kengash faoliyatining shaffoflashishiga, balki maktab va boshqa ko‘pchilik ota-onalar o‘rtasidagi “axborot ko‘prigi” bo‘lishga, o‘zaro tushunishga xizmat qiladi.

Bunda, eng e‘tiborli jihat – Kuzatuv kengashiga a‘zo bo‘lishi kutilayotgan nomzod ota-onaning kompetensiyali bo‘lishi (ta’lim,

moliya, huquq kabi sohalarda bilimga ega bo‘lishi) va haqiqatda sinfdagi ota-onalar tomonidan mas’uliyat yuklanishi – saylanishi asosiy qoida bo‘lishi kerak.

Kuzatuvlar va so‘rovlar orqali o‘rganilganda ta’lim muassasasi rahbarlarining xavotiri shundaki, ota-onalarning bu kabi yig‘ilish va maslahatlashuvlarda ishtirok etish xohishi yo‘q va ko‘pchilik ishtirok etadigan Kengash yig‘ilishlarida murosa qilish – barcha uchun manfaatli qaror qabul qilish murakkab, deb o‘ylashlarida.

Aslida ota-onalarni maktab boshqaruviga keng jalb qilish xavotir va xatarni emas balki, sifatli ta’lim boshqaruvini yuzaga keltiradi.

L.Yu.Grudsinaning fikriga ko‘ra “Oila – fuqarolik jamiyati ijtimoiy tizimining muhim institutlaridan biri bo‘lib, inson unda o‘z hayotining asosiy qismini o‘tkazadi. Oilaning maqsadi, moddiy ahvoli, a‘zolarining diniy qarashlari insonning hayot darajasini, uning ijtimoiy faolligini belgilab beradi, natijada u fuqarolik jamiyati muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir qiladi” [6].

Pirovard maqsadimiz komil insonni tarbiyalash ekan, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligini yanada rivojlantirish nafaqat ushbu institutlar, balki jamoatchilik vakillari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligiga ham bog‘liqligini aslo unutmashimiz kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 06/18/5538/1840-son, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-son; 07.11.2020-y., 06/20/6108/1483-son; 06/23/99/0403-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2018-yil 26-dekabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 11-yanvarda 3118-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) 16-mh-son buyrug'i. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2019 y., 10/19/3118/2468-son; 10/23/3118-2/0382-son).
3. A.Shlyayxer. Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimini qanday qurmoq kerak? Zamin nashr, 2022. 126-bet.
4. Д.Моринова. Школа, ученики, родители – как общаться друг с другом. <http://www.goethe.de/ins/ru/ru/spr/mag/25950580.html>
5. E.Karimova, A.Usmanova, M.Djumaniyazova. Jamoatchilik va ota-onalar bilan hamkorlik. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2025. 18-bet.
6. J.Shirinov. Mamlakatimiz milliy qonunchiligida fuqarolik jamiyati institutlari masalasi. Demokratlashtirish va inson huquqlari. Ilmiy-ma'rifiy jurnal. 1 [97] – 2023. 44-bet.
7. L. Gaynutdinova. Ta'lim muassalarida ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etishda innovatsion yondoshuvlar. International scientific and practical conference "International experience in the use of collaborative technologies in child rearing", April 22, 2025. 167-bet.
8. Н.А.Шибеева. Взаимодействие семьи и школы. <https://ustschool.edusite.ru/p46aa1/p12aa1.html>
9. PISA 2022 Results Factsheets Uzbekistan. 6-bet. [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/11/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes\\_2fca04b9/uzbekistan\\_482bdcce/2bb94bfl-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/11/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes_2fca04b9/uzbekistan_482bdcce/2bb94bfl-en.pdf).
10. Т.М.Папшева, Т.В.Мягкоступова. Взаимодействие школы и различных общественных учреждений. 2019 г. стр. 234-235 <https://elar.uspu.ru/handle/ru-uspu/34026>.
11. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V1700015584>. Об утверждении Типовых правил организации работы Попечительского совета и порядок его избрания в организациях образования. Приказ Министра образования и науки Республики Казахстан от 27 июля 2017 года № 355.

# UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORLARINING RAQOBATNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Bahriddinova Gulruh Farhod qizi,  
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat  
milliy instituti mustaqil izlanuvchisi  
gfarkhadovna11@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim tashkiloti direktorining raqobatni boshqarish kompetensiyasi tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, maktablarda raqobat muhitini shakllantirishdagi amaldagi holat hamda xorijiy tajriba asosida ushbu kompetensiyani takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida kompetensiyani rivojlantirishning bosqichma-bosqich texnologiyasi ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, raqobat, raqobat muhiti, ta'lim menejmenti, maktab direktori, raqobatbardoshlik, strategik boshqaruv, xorijiy tajriba.

**Совершенствование компетенции  
управления конкуренцией директоров  
общеобразовательных организаций**

**Бахриддинова Гулрух Фарход кизи,**  
Национальный институт педагогического  
мастерства имени А. Авлони,  
Независимый исследователь

**Аннотация:** В статье анализируется понятие компетенции управления конкуренцией директора общеобразовательной организации, её структурные компоненты, современное состояние формирования конкурентной среды в школах, а также направления совершенствования данной компетенции на основе зарубежного опыта. В результате исследования

разработана поэтапная технология развития компетенции.

**Ключевые слова:** компетенция, конкуренция, конкурентная среда, менеджмент образования, директор школы, конкурентоспособность, стратегическое управление, зарубежный опыт.

**Improving the competition management  
competence of general secondary education  
institution directors**

**Bakhriddinova Gulrukh Farkhod kizi,**  
Independent Researcher, A. Avloni  
National Institute of Pedagogical  
Excellence

**Abstract:** The article analyzes the concept of competition management competence of a general secondary education institution director; its structural components, the current state of forming a competitive environment in schools, and directions for improving this competence based on foreign experience. As a result of the study, a step-by-step technology for developing the competence was elaborated.

**Keywords:** competence, competition, competitive environment, education management, school director, competitiveness, strategic management, foreign experience.



O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida maktablarning raqobatbardoshligini oshirish, ta'lim sifatini xalqaro andozalar darajasiga yetkazish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [1], [2]. Bu boradagi asosiy mas'uliyat maktab direktoriga yuklatilgan bo'lib, aynan, direktor tashkilotning strategik rivojlanishini belgilaydi, pedagogik jamoani safarbar etadi va ta'lim muassasasini rivojlanayotgan raqobat sharoitida ota-onalar ishonchi, o'quvchilar tanlovi, moliyalashtirish va reyting tizimlari kontekstida boshqaradi.

Zamonaviy ta'lim menejmenti nazariyasida rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligi masalasi alohida o'rin tutadi [3]. Xususan, T. Bush ta'kidlaganidek, ta'lim tashkiloti rahbarining samaradorligi ko'p jihatdan uning tashqi muhit bilan munosabatlarni strategik boshqaralish qobiliyatiga bog'liq [3]. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pgina direktorlar boshqaruv tajribasiga ega bo'lsalar-da, raqobat muhitini ongli va tizimli boshqarish borasida maxsus tayyorgarlikka ega emaslar. Ular ko'pincha vaziyatga passiv moslashadilar, raqobatni "tahdid" sifatida idrok etadilar, holbuki u maktabni rivojlantirishning tabiiy va foydali omiliga aylantirilishi mumkin. Ushbu qarama-qarshilik mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi – maktabdirektorining raqobatni boshqarish kompetensiyasi tushunchasini nazariy jihatdan asoslash, uning tarkibiy qismlarini aniqlash, amaldagi holatni tahlil qilish hamda xorijiy tajriba asosida ushbu kompetensiyani takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: tegishli tushunchalarning ilmiy-nazariy tahlili; maktablardagi amaldagi holatni obyektiv va subyektiv omillar asosida tavsiflash; xorijiy tajribani qiyosiy o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish yo'llarini aniqlash; kompetensiyani takomillashtirishning amaliy texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimli va qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda modellashirish usullaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida ta'lim menejmenti va kompetentsiyaviy yondashuv nazariyasiga oid manbalar, xususan, I. Zimnyaya [8], [9] va A. Xutorskoyning [10] ishlari, shuningdek, T. Bush [3], M. Fullan [4], M. Porter [5] va P. Sengening [6] boshqaruv nazariyasiga oid asarlari qo'llanildi. Xorijiy tajribani o'rganishda qiyosiy-tipologik yondashuvdan foydalanilib, G'arb, Sharq va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari alohida tipologik guruhlar sifatida tahlil qilindi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda maktab direktorining raqobatni boshqarish kompetensiyasi birinchi marta mustaqil, olti komponentli tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan integrativ kompetensiya sifatida tizimlashtirilgan hamda uni takomillashtirishning amaliy, bosqichma-bosqich texnologiyasi ishlab chiqilgan. Maqolaning amaliy ahamiyati taklif etilgan model va mezonlarning malaka oshirish tizimida, shuningdek, direktorlarni attestatsiya qilish jarayonida bevosita qo'llanilishi mumkinligidadir.

### **Raqobatni boshqarish kompetensiyasining mohiyati va tarkibiy qismlari**

Pedagogika fanida "kompetensiya" tushunchasi shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin etiladi [8]. I. Zimnyayaning fikricha, kompetensiyalar natija-maqсадli asosda shakllantiriladi va ular shaxsning ijtimoiy-kasbiy faoliyatida amaliy tarzda namoyon bo'ladi [9]. A.Xutorskoy esa kompetensiyalarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, ularni kognitiv, faoliyat va qadriyat komponentlariga ajratadi [10].

Ushbu nazariy qarashlarga tayangan holda, raqobatni boshqarish kompetensiyasini quyidagicha ta'riflash mumkin: bu – maktab-direktorining tashqi muhitni (boshqa ta'lim tashkilotlari, ota-onalar ehtiyoji, jamoatchilik kutilmalari) tahlil qilish, maktabning o'ziga xos ustunlik yo'nalishini aniqlash va rivojlantirish, shuningdek uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlovchi strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. M.Porterning klassik raqobat nazariyasiga ko'ra, har qanday tashkilot o'z raqobatbardoshligini faqat aniq tanlangan strategik yo'nalish (differensiatsiya yoki xarajatlar-da ustunlik) orqali ta'minlay oladi [5], bu qoida ta'lim tashkilotlariga ham to'liq tatbiq etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu kompetensiya olti asosiy tarkibiy qismdan iborat: bilim, analitik, strategik, kommunikativ, innovatsion hamda shaxsiy-motivatsion komponentlar.

tashkilotdagi har qanday chuqur o'zgarish avvalo rahbarning shaxsiy tayyorligi va o'zgarishlarni boshqarish qobiliyatiga bog'liq [4], bu qoida shaxsiy-motivatsion komponentning alohida ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

### **1.1. Raqobat tushunchasining ta'lim sohasidagi talqini**

Iqtisodiy nazariyada raqobat resurslar, iste'molchi va bozor ulushi uchun kurash sifatida ta'riflanadi [5]. Ta'lim sohasida esa bu tushuncha o'ziga xos ma'no kasb etadi: bu yerda raqobat ta'lim tashkilotlarining o'quvchilar, malakali pedagog kadrlar, moliyaviy resurslar hamda jamoatchilik ishonchi uchun sog'lom musobaqasidir. Ta'lim sohasidagi raqobatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy yo'naltirilganlik (asosiy maqsad foyda emas, balki ta'lim sifatini oshirish), uzoq muddatlilik (natija bir necha yillik faoliyat davomida namoyon bo'ladi), ko'p subyektilik (davlat,

*1-jadval.*

### **Raqobatni boshqarish kompetensiyasining tarkibiy qismlari**

| <b>Tarkibiy qism</b>          | <b>Qisqacha mazmuni</b>                                              | <b>Namoyon bo'lish ko'rsatkichi</b>  |
|-------------------------------|----------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|
| Bilim komponenti              | Raqobat nazariyasi, ta'lim menejmenti va huquqiy baza bo'yicha bilim | Tushunchalarni izohlay olish         |
| Analitik komponent            | Tashqi va ichki muhitni tahlil qilish qobiliyati                     | SWOT/PESTEL tahlil o'tkazish         |
| Strategik komponent           | Rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish         | Aniq, o'lchanadigan maqsadlar        |
| Kommunikativ komponent        | Ota-onalar va jamoatchilik bilan ishonchli aloqa o'rnatish           | Shaffof va muntazam muloqot          |
| Innovatsion komponent         | Yangi g'oya va metodikalarni joriy etish                             | O'ziga xos ta'lim mahsuloti yaratish |
| Shaxsiy-motivatsion komponent | Liderlik, tashabbuskorlik, o'zgarishlarga tayyorlik                  | Jamoani safarbar eta olish           |

*Manba: muallif tomonidan [1], [5], [8], [9], [10] manbalar tahlili asosida tuzilgan.*

Ushbu olti komponent birgalikda yaxlit, integrativ kompetensiyani tashkil etadi va ular o'rtasidagi uyg'un rivojlanish direktorning maktabni raqobat sharoitida samarali boshqarishini ta'minlaydi. M.Fullan ta'kidlaganidek,

xususiy va nodavlat ta'lim tashkilotlarining bir vaqtda ishtirok etishi) hamda shaffoflik va hisobdorlikka bog'liqlik.

Shu bilan birga, P.Sengening o'rganuvchi tashkilot nazariyasiga ko'ra [6], raqobat faqat

qarama-qarshilik emas, balki tashkilotlarning bir-biridan o'rganish va birgalikda rivojlanish jarayoni sifatida ham qaralishi mumkin. Bu yondashuv "sog'lom raqobat" tushunchasining nazariy asosini tashkil etadi: maktablar bir-birini "yutish"i emas, balki har biri o'z ustunlik yo'nalishini topib, umumiy ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladigan tizim.

### **1.2. Direktorning kasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni**

Maktab direktorining kasbiy kompetensiyalari odatda quyidagi yirik guruhlariga ajratiladi: strategik-boshqaruv, pedagogik-metodik, moliyaviy-iqtisodiy, kadrlar bilan ishlash, kommunikativ va raqamli kompetensiyalar. Raqobatni boshqarish kompetensiyasi ushbu guruhlarining barchasi bilan uzviy bog'liq, ammo mustaqil mazmunga ega bo'lgan integrativ kompetensiya bo'lib, T.Bush ko'rsatganidek [1], u direktordan nafaqat ichki boshqaruv, balki tashqi muhit bilan strategik munosabatlarni ham boshqarish qobiliyatini talab qiladi.

### **2. Maktablarda raqobat muhitini shakllantirishdagi amaldagi holatning tahlili**

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, maktablarda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni ikki guruhga – obyektiv va subyektiv sabablarga ajratish mumkin. Obyektiv sabablarga maktablarning moddiy-texnik ta'minotidagi tengsizlik, hududiy joylashuvga bog'liq cheklovlar, me'yoriy-huquqiy bazada raqobatni rag'batlantiruvchi mexanizmlarning yetarli ishlab chiqilmaganligi kiradi. Subyektiv sabablar esa bevosita direktorning shaxsiy kompetentligi

bilan bog'liq bo'lib, ularga strategik boshqaruv bilimlarining yetishmasligi, raqobatga nisbatan salbiy stereotiplar, o'zgarishlarga qarshilik va tanqidiy tahlil madaniyatining yetarli shakllanmaganligi misol bo'ladi.

P.Sengening fikricha, tashkilotning o'rganuvchi (learning organization) sifatidagi salohiyati aynan uning tizimli fikrlash va jamoaviy tahlil madaniyatiga bog'liq [6] – bujihat maktablarda ham to'liq tatbiq etiladi: jamoaviy tahlil madaniyati zaif bo'lgan maktablarda raqobatga moslashish sur'ati past bo'ladi. Ushbu ikki guruh sabablarning o'zaro ta'siri natijasida ko'plab maktablar raqobatni ongli boshqarish o'rniga vaziyatga passiv moslashish yo'lini tanlaydi, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish sur'atlarini susaytiradi.

Direktorning ushbu sohadagi kompetentlik darajasini baholash uchun me'yoriy hujjatlarda belgilangan malaka talablariga [7] muvofiq holda quyidagi mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi: muhitni tahlil qilish, strategik rejalashtirish, ota-onalar bilan aloqa, innovatsion faollik va jamoani safarbar etish qobiliyati. Har bir mezon bo'yicha direktorning kompetentlik darajasini past, o'rta va yuqori sifatida tavsiflash mumkin, bu esa individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

### **2.1. Direktorlarning raqobat sharoitidagi faoliyatidagi tipik xatolar**

Amaliyotni kuzatish shuni ko'rsatadiki, direktorlar raqobat muhitida faoliyat yuritishda bir qator tipik xatolarga yo'l qo'yadilar: reaktiv (kechikkan) pozitsiya direktor faqat boshqa

2-jadval.

#### **Maktablarda raqobat muhitini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar**

| <b>Omillar guruhi</b> | <b>Namunaviy ko'rinishlari</b>                                                             |
|-----------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|
| Obyektiv sabablar     | Moddiy-texnik ta'minot tengsizligi; hududiy cheklovlar; me'yoriy bazaning yetarli emasligi |
| Subyektiv sabablar    | Strategik bilim yetishmasligi; raqobatga salbiy munosabat; o'zgarishlarga qarshilik        |

maktab “xavf” tug‘dirganda harakatga o‘tadi; muvaffaqiyatli tajribani tanqidiy tahlilsiz mexanik ko‘chirish; faqat akademik ko‘rsatkichlarga bir tomonlama e‘tibor berish, jamoa ruhiyati va ota-onalar ishonchini e‘tibordan chetda qoldirish; hamda strategik qarorlarni jamoa fikrini inobatga olmasdan yakka tartibda qabul qilish. M. Fullan ta’kidlaganidek [4], muvaffaqiyatli o‘zgarish jarayoni doimo jamoaning ishtiroki va ichki motivatsiyasiga tayanadi, aks holda tashqaridan kiritilgan har qanday islohot vaqtinchalik bo‘lib qoladi.

## **2.2. Raqobatbardoshlikni ta’minlovchi omillar**

Maktabning raqobatbardoshligi bir necha o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida shakllanadi: ta’lim sifati va o‘quvchilar natijalari, pedagogik jamoaning malakasi, maktab muhiti va psixologik iqlim, moddiy-texnik baza, qo‘shimcha ta’lim xizmatlari hamda maktabning tashqi obro‘si. Direktorning vazifasi ushbu omillarni alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida boshqarishdir. M. Porterning differentsiatsiya strategiyasiga muvofiq [5], direktor avval maktabning noyob ustunlik yo‘nalishini aniqlashi, so‘ngra shu yo‘nalishga resurs va e‘tiborni jamlashi maqsadga muvofiqdir.

## **3. Xorijiy tajriba: qiyosiy tahlil**

G‘arb mamlakatlarida (AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya) maktab direktorlarini tayyorlash tizimida raqobatni boshqarish kompetensiyasi menejment fanlaridan kelib chiqqan

holda shakllantiriladi [3]. Maktablarning katta mustaqilligi, ota-onalarning tanlash huquqi va ochiq reyting tizimlari raqobatni tabiiy omilga aylantiradi. T.Bush ko‘rsatganidek, Buyuk Britaniyada direktorlar milliy kasbiy malaka dasturi orqali tayyorlanadi, unda strategik rejalashtirish va o‘zgarishlarni boshqarish alohida modul sifatida o‘qitiladi [3].

Sharq mamlakatlarida (Yaponiya, Janubiy Koreya) esa raqobat ko‘proq akademik natijalar orqali namoyon bo‘ladi, biroq direktorlarning roliga jamoaviylik va uzluksiz sifat nazorati alohida o‘rin tutadi. Xususan, Yaponiyada direktorlar an’anaviy “hansei” o‘z-o‘zini tanqidiy tahlil qilish amaliyotiga asoslangan holda maktab faoliyatini muntazam qayta ko‘rib chiqadilar, bu esa M. Fullan tasvirlagan “uzluksiz o‘rganuvchi tashkilot” modeliga mos keladi [4].

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli mintaqalarida raqobatni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishning turlicha, ammo bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlari mavjud. Shu sababli xorijiy tajribani mexanik ravishda ko‘chirib o‘tkazish emas, balki milliy ta’lim tizimining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda tanlab moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

## **3.1. Xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish yo‘nalishlari**

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston sharoitida quyidagi yo‘nalishlar istiq-

3-jadval.

**Raqobatni boshqarish bo‘yicha xorijiy modellarning qiyosiy tahlili**

| Model                         | Raqobat mexanizmi                       | Direktorlarni tayyorlash o‘ziga xosligi    |
|-------------------------------|-----------------------------------------|--------------------------------------------|
| G‘arb (AQSH, Buyuk Britaniya) | Ota-onalar tanlovi, ochiq reyting       | Magistratura darajasidagi maxsus dasturlar |
| Sharq (Yaponiya, J. Koreya)   | Akademik natijalar, milliy attestatsiya | Uzoq amaliy tajriba va sertifikatlash      |
| MDH (Qozog‘iston, Rossiya)    | Aralash – reyting va resurs tanqisligi  | Endi shakllanayotgan, tizimli emas         |

bolli hisoblanadi: direktorlar uchun “strategik boshqaruv va raqobatbardoshlik” moduli asosidagi maxsus malaka oshirish kurslarini joriy etish (G‘arb tajribasi asosida) [3]; maktab direktorlarini lavozimga tayinlash va attestatsiya qilishda raqobatni boshqarish kompetensiyasini baholash mezonlarini kiritish (Sharq tajribasi asosida); ilg‘or direktorlar tajribasini tarqatish maqsadida mentorlik va maktablararo hamkorlik tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish; hamda raqobatni “hamkorlikdagi rivojlanish” sifatida talqin etuvchi milliy pedagogik madaniyatni shakllantirish [6].

Bunday moslashtirishni amalga oshirishda bosqichma-bosqich yondashuv tavsiya etiladi: dastlab pilot hududlarda sinovdan o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish, so‘ngra muvaffaqiyatli amaliyotni respublika miqyosida tarqatish. Ushbu yondashuv M.Fullan ta’kidlagan “kichik qadamlar orqali katta o‘zgarish” tamoyiliga mos keladi [4], bu esa keskin, tizimsiz islohotlarning salbiy oqibatlaridan saqlaydi.

#### **4. Kompetensiyani takomillashtirish texnologiyasi**

O‘tkazilgan tahlillar asosida direktorlarda raqobatni boshqarish kompetensiyasini takomillashtirishning to‘rt bosqichli texnologiyasi taklif etiladi: diagnostika (mavjud kompetensiya darajasini so‘rovnoma orqali aniqlash), nazariy tayyorgarlik (ma’ruza va seminarlar), amaliy mashg‘ulotlar (keys-stadilar va strategik reja loyihalash) hamda amaliyotga tatbiq va monitoring (natijalarni kuzatish).

Ushbu model “spiral” tamoyili asosida qurilgan bo‘lib, direktor har safar yangi bosqichni bosib o‘tgach, yuqoriroq darajada yana diagnostika bosqichiga qaytadi. Texnologiya-ning samaradorligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi: maktabga hujjat topshirgan o‘quvchilar sonining dinamikasi, ota-onalar qoniqish darajasi, maktab tashabbusi bilan amalga oshirilgan innovatsion loyihalar soni, hamda hududiy monitoring va reytinglardagi o‘rin o‘zgarishi.

Taklif etilayotgan texnologiyani respublika miqyosida joriy etishda bosqichma-bosqich yondashuv dastlab pilot hududlarda sinovdan o‘tkazish, so‘ngra natijalarni tahlil qilib, muvaffaqiyatli amaliyotni kengroq tarqatish tavsiya etiladi.

##### **4.1. Malaka oshirish kursi mazmuni**

Taklif etilayotgan texnologiyani amalga oshirish uchun malaka oshirish kursi quyidagi asosiy mavzularni qamrab olishi tavsiya etiladi: kompetensiya va raqobat tushunchalari, ta’lim sohasida raqobat muhiti; maktabning tashqi va ichki muhitini tahlil qilish (SWOT, PESTEL); maktabning raqobat strategiyasini ishlab chiqish; ota-onalar va jamoatchilik bilan ishonchli aloqa; xorijiy tajriba: G‘arb va Sharq modellari; hamda amaliy mashg‘ulot o‘z maktabi uchun raqobatbardoshlik rejasini loyihalash. Bunday kurs strukturasi T.Bushning [3] hamda M.Fullanning [4] amaliyotga yo‘naltirilgan tayyorgarlik tamoyillariga asoslanadi.

*4-jadval.*

#### **Kompetensiyani takomillashtirishning bosqichma-bosqich texnologiyasi**

| Bosqich              | Mazmuni                                                   | Natija                          |
|----------------------|-----------------------------------------------------------|---------------------------------|
| Diagnostika          | Mavjud kompetensiya darajasini so‘rovnoma orqali aniqlash | Individual kompetensiya profili |
| Nazariy tayyorgarlik | Ma’ruzalar, seminarlar orqali bilim olish                 | Nazariy bilimlar tizimi         |
| Amaliy mashg‘ulotlar | Keys-stadilar, strategik reja loyihalash                  | Amaliy ko‘nikmalar              |
| Amaliyotga tatbiq    | O‘z maktabida strategiya joriy etish, monitoring          | Real o‘zgarishlar               |



#### 4.2. Natijalar va muhokama

O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi asosiy natijalarga erishildi: birinchidan, raqobatni boshqarish kompetensiyasining olti komponentli tarkibiy tuzilishi asoslab berildi; ikkinchidan, maktablarda raqobat muhitini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar tizimlashtirildi; uchinchidan, G'arb, Sharq va MDH mamlakatlari tajribasining qiyosiy tahlili asosida milliy sharoitga moslashtirish yo'nalishlari aniqlandi; to'rtinchidan, kompetensiyani takomillashtirishning amaliy, to'rt bosqichli texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu natijalar I. Zimnyaya [8], [9] va A. Xutorskoy [10] tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyaviy yondashuv nazariyasini ta'lim menejmenti sohasida yanada rivojlantiradi va boyitadi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tashkiloti direktorining raqobatni boshqarish kompetensiyasi zamonaviy ta'lim menejmentining muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u direktordan tashqi muhitni tahlil qilish, strategik fikrlash, jamoani safarbar etish va ishonchli kommunikatsiya o'rnatish qobiliyatini talab etadi [1], [5], [9].

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga asos bo'ldi: birinchidan, raqobatni boshqarish kompetensiyasi olti komponentli (bilim, analitik, strategik, kommunikativ, innovatsion,

shaxsiy-motivatsion) tarkibiy tuzilishga ega; ikkinchidan, maktablarda raqobat muhitini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar mavjud bo'lib, subyektiv omillarning aksariyati maqsadli tayyorgarlik orqali bartaraf etilishi mumkin; uchinchidan, G'arb, Sharq va MDH mamlakatlari tajribasining qiyosiy tahlili milliy sharoitga moslashtirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi; to'rtinchidan, kompetensiyani takomillashtirishning to'rt bosqichli amaliy texnologiyasi ishlab chiqildi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish, xususan, kompetensiyani miqdoriy baholash usullarini takomillashtirish, turli mintaqalar tajribasini qiyosiy o'rganish, hamda raqamli texnologiyalarning ushbu kompetensiyaga ta'sirini chuqur tahlil qilish istiqbolli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan nazariy model va amaliy texnologiya nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega: ular malaka oshirish institutlari, xalq ta'limi boshqarmalari hamda amaliyotchi direktorlarning o'zlari tomonidan bevosita qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondashuvning izchil tatbiq etilishi O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, 2019-yil 8-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. 4th ed. – London: SAGE Publications, 2011. – 220 p.
4. Fullan M. Leading in a Culture of Change. – San Francisco: Jossey-Bass, 2001. – 199 p.
5. Porter M.E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: Free Press, 1980. – 396 p.
6. Senge P.M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. – New York: Doubleday, 1990. – 423 p.
7. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktab direktorlarining malaka talablari va lavozim yo'riqnomalari. – Toshkent, 2021.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
9. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
10. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.

# UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA HR-MENEJMENT VA MEHNAT MUNOSABATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI SOTSIOLOGIK SO'ROV NATIJALARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLILI

*Mamanazarova Nargiza Komildjanovna,*

*Oriental universiteti Pedagogika fanlari doktori, professor*

*Turikova Lazokat Mashrabovna,*

*Oriental universiteti Pedagogika fanlari falsafa doktori  
(PhD), dotsent*

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida HR-menejment asosida mehnat munosabatlari tashkil etishning amaldagi holatini aniqlash maqsadida respublikaning turli hududlaridagi maktab direktorlari, direktor o'rinbosarlari va pedagog xodimlar ishtirokida o'tkazilgan keng qamrovli sotsiologik so'rovnoma (1423 respondent) natijalari tahlil qilingan. "Tashkiliy-huquqiy", "HR-brend" va "ichki kommunikatsiya va psixologik muhit" bloklari bo'yicha olingan empirik ma'lumotlar asosida kadrlarni saralashdagi subyektivlik, moddiy rag'batlantirishning shaffof emasligi, xodimlarning iqtisodiy sodiqligi pastligi, kasbiy o'sish traektoriyasining yetishmasligi, ichki kommunikatsiya va psixologik muhitdagi uzilishlar hamda ilmiy salohiyatning pastligi kabi olti tizimli muammo aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** HR-menejment, mehnat munosabatlari, sotsiologik so'rovnoma, HR-arxitektura, kadrlar sodiqligi, innovatsion rekruting, KPI tizimi, ijtimoiy sheriklik, umumiy o'rta ta'lim.

**Эмпирический анализ тенденций развития HR-менеджмента и трудовых отношений в системе общего среднего образования по результатам социологического исследования**

**Маманазарова Наргиза Комилджановна,**

*доктор педагогических наук, профессор,*

*Университет Oriental*

**Турикова Лазокат Машрабовна,**

*доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент, Университет Oriental*

**Аннотация:** В статье представлены результаты масштабного социологического опроса (1423 респондента) директоров школ, их заместителей и педагогических работников из различных регионов республики, проведённого с целью выявления фактического состояния организации трудовых отношений на основе HR-менеджмента в системе общего среднего образования. На основе эмпирических данных, полученных по блокам "организационно-правовой", "HR-бренд" и "внутренняя коммуникация и психологический климат", выявлены шесть системных проблем: субъективность отбора кадров, непрозрачность материального стимулирования, низкая экономическая лояльность сотрудников, отсутствие траектории профессионального роста, разрывы во внутренней коммуникации и психологическом климате, а также низкий научный потенциал кадров.

**Ключевые слова:** HR-менеджмент, трудовые отношения, социологический опрос, HR-архитектура, лояльность персонала, инновационный рекрутинг, система KPI, социальное партнёрство, общее среднее образование.

**An empirical analysis of development trends in HR management and labor relations in the general secondary education system based on sociological survey findings**

**Mamanazarova Nargiza Komildjanovna,**  
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor,  
Oriental University

**Turikova Lazokat Mashrabovna,**  
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical  
Sciences, Associate Professor, Oriental University

**Abstract:** This article presents the results of

a large-scale sociological survey (1,423 respondents) of school principals, deputy principals, and teaching staff from various regions of the republic, conducted to determine the actual state of labor relations organization based on HR management in the general secondary education system. Based on empirical data obtained across the “organizational-legal”, “HR brand”, and “internal communication and psychological climate” blocks, six systemic problems were identified: subjectivity in staff selection, lack of transparency in material incentives, low economic loyalty among employees, the absence of a professional growth trajectory, gaps in internal communication and psychological climate, and low scientific potential among staff.

**Keywords:** HR management, labor relations, sociological survey, HR architecture, staff loyalty, innovative recruiting, KPI system, social partnership, general secondary education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktab ta’limini rivojlantirish, boshqaruvning yangi tamoyillarini va uzluksiz kasbiy rivojlanishni joriy etishga oid Farmon hamda Qarorlari (PF-5712, PF-79, PQ-4963) ijrosini ta’minlash umumiy o‘rta ta’lim tizimida kadrlar bilan ishlashning an’anaviy tizimidan shaffof, motivatsiyaga yo’naltirilgan va raqamlashgan HR mexanizmlariga o‘tishni obyektiv zaruriyatga aylantirdi [1, 2, 5]. Biroq har qanday boshqaruv modelini ilmiy asoslash uchun, avvalo, tizimning amaldagi real holatini obyektiv baholash zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim tizimida HR-menejment asosida mehnat munosabatlarini tashkil etishning amaldagi holatini keng qamrovli sotsiologik so‘rovnoma yordamida diagnostika qilish, aniqlangan tizimli muammolarni tavsiflash hamda ularning muallif tomonidan ilgari surilgan kompleks HR-menejment modeli mexanizmlari bilan qanchalik mos kelishini asoslab berishdan iborat [7, 10].

So‘rovnoma natijalari tizimdagi obyektiv va subyektiv omillarni o‘zaro qiyoslash, pedagog xodimlarning mehnat sharoitlaridan mamnunlik darajasini aniqlash hamda boshqaruvdagi “bo‘shliqlarni” ochib berish imkonini berdi [8].

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan HR-menejment modelining hayotiyligini tekshirish, shuningdek, ta’lim muassasalarida kadrlar boshqaruvi va mehnat munosabatlaridagi mavjud muammolarni real vaziyatda aniqlash maqsadida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma respublikaning turli hududlaridagi (Qoraqalpog‘iston respublikasi, Toshkent shahri va Farg‘ona viloyatlari) maktab direktorlari, direktor o‘rinbosarlari va pedagog xodimlar ishtirokida amalga oshirildi hamda jami 1423 nafar respondentni qamrab oldi. So‘rovnomada kadrlarni tanlash, mehnatga haq to‘lash tizimi, xodimlarni motivatsiya qilish, ichki kommunikatsiya va korporativ madaniyat kabi yo‘nalishlar bo‘yicha savollar qamrab olindi (1-jadval).

## Respondentlarning ijtimoiy-demografik tarkibi

| Mezon               | Toifa                   | Ulushi (%) |
|---------------------|-------------------------|------------|
| Jinsi               | Ayol                    | 73,4       |
| Jinsi               | Erkak                   | 26,6       |
| Yoshi               | 25 yoshgacha            | 11,2       |
| Yoshi               | 26-35 yosh              | 24,9       |
| Yoshi               | 36-50 yosh              | 46,2       |
| Yoshi               | 50 yoshdan yuqori       | 17,6       |
| Pedagogik ish staji | 3 yilgacha              | 15,2       |
| Pedagogik ish staji | 3-10 yil                | 20,2       |
| Pedagogik ish staji | 10-20 yil               | 25,6       |
| Pedagogik ish staji | 20 yildan ortiq         | 31,8       |
| Ma'lumoti           | Oliy (bakalavr)         | 84,6       |
| Ma'lumoti           | Magistr                 | 8,8        |
| Ma'lumoti           | Ilmiy daraja (PhD, DSc) | 1,2        |
| Lavozimi            | O'qituvchi              | 79,1       |
| Lavozimi            | Metod birlashma rahbari | 8,4        |
| Lavozimi            | Maktab ma'muriyati      | 6,5        |
| Hududi              | Shahar                  | 54,8       |
| Hududi              | Qishloq (chekka hudud)  | 40,7       |

Manba: mualliflik tadqiqoti asosida shakllantirilgan.

Tanlanma tarkibi respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (73,4%) ayollardan iboratligini, kadrlarning yarmiga yaqini (46,2%) 36-50 yosh oralig'idagi tajribali mutaxassislar ekanligini, shuningdek respondentlarning 57,4 foizidan ziyodi 10 yildan ortiq ish stajiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar tanlanmaning ishonchliligini ta'minlash bilan bir qatorda, yosh mutaxassislarning tizimga jalb etilishi (25 yoshgacha – atigi 11,2%) hamda ilmiy darajali kadrlar ulushining pastligi (1,2%) kabi

HR-strategik ahamiyatga ega muammolarni ham empirik jihatdan tasdiqlaydi [3, 4].

#### “Tashkiliy-huquqiy” blok bo'yicha tahlil natijalari.

Ushbu blok maktabdagi mehnat munosabatlarning huquqiy poydevorini – mehnat shartnomasi va ichki mehnat tartibi qoidalari bilan tanishtirish, ijtimoiy kafolatlarining ta'minlanishi, kadrlarni tanlashdagi adolat hamda ichki hujjatlarning o'z vaqtida yetkazilishini baholashga xizmat qildi (2-jadval).



**“Tashkiliy-huquqiy” blok bo'yicha statistik ko'rsatkichlar**

| Indikator                                                       | Ijobiy baho (%) | Salbiy/neytral baho (%) |
|-----------------------------------------------------------------|-----------------|-------------------------|
| Mehnat shartnomasi va ichki tartib qoidalari bilan tanishtirish | 74,5            | 25,5                    |
| Ijtimoiy kafolatlar va mehnat huquqlarining ta'minlanishi       | 75,1            | 24,9                    |
| Kadrlarni tanlashda adolat (meritokratiya) tamoyili             | 70,1            | 29,9                    |
| Ichki lokal hujjatlarning o'z vaqtida yetkazilishi              | 74,9            | 25,1                    |

*Manba: mualliflik tadqiqoti asosida shakllantirilgan.*

Blok bo'yicha eng muammoli nuqta sifatida kadrlarni tanlash jarayoni bilan bog'liq ko'rsatkich ajralib turadi. Respondentlarning qariyb 20 foizi (19,8%) ishga qabul qilish jarayonini adolatsiz deb baholagan, bu esa tizimda “tanish-bilishchilik” holatlarining hamon saqlanib qolganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mehnat intizomi nazorati bo'yicha ham norozilik nisbatan yuqori (18,5%) bo'lib chiqdi. Umumiy holda, blokning o'rtacha ijobiy ko'rsatkichi 73-75% oralig'ida bo'lib, bu maktablarda mehnat munosabatlarining huquqiy bazasi nisbatan mustahkam ekanligini, biroq kadrlarni sara-lash mexanizmini shaffolashtirish zarurligini ko'rsatadi [6].

**“HR-brend va xodimlar sodiqligi” bloki tahlili.**

Ushbu blok maktabning ish beruvchi sifati-dagi jozibadorligini hamda bu omilning peda-gog xodimlar sodiqligiga ta'sirini o'rganishga qaratildi (3-jadval).

Tahlil shuni ko'rsatadiki, maktablarda HR-brendning ma'naviy asoslari (kasbiy faxr – 78,2%, ijobiy imidj – 76,1%) yetarlicha mustahkam, biroq uning iqtisodiy va funksional asoslari ancha zaif. Xususan, “moddiy loyallik” ko'rsatkichi (64,8%) barcha indikatorlar orasida eng past bo'lib, har beshinchi pedagog moddiy jihatdan qulayroq taklif bo'lganda ish joyini almashtirishga tayyor ekanligini bildirgan. Bu holat kadrlar qo'nimsizligi xavfini kuchaytiruvchi obyektiv omil sifatida baholanadi (3-jadval).

**“HR-brend va xodimlar sodiqligi” bloki bo'yicha umumiy statistik jamlanma**

| Indikator                         | Ijobiy baho (%) | Salbiy/neytral baho (%) |
|-----------------------------------|-----------------|-------------------------|
| Ijobiy imidj                      | 76,1            | 23,9                    |
| Ish muhiti                        | 73,8            | 26,2                    |
| Professional o'sish imkoniyatlari | 72,6            | 27,4                    |
| Kasbiy faxr                       | 78,2            | 21,8                    |
| Moddiy loyallik                   | 64,8            | 35,2                    |
| Kelajakka ishonch                 | 71,4            | 28,6                    |

*Manba: mualliflik tadqiqoti asosida shakllantirilgan.*

### “Ichki kommunikatsiya va psixologik muhit” bloki tahlili.

Ushbu blok bo'yicha barcha oltita indikator 73-75% oralig'ida ijobiy baho olib, maktablardagi ichki muhitni “muvozanatlashgan barqarorlik” bosqichi sifatida tavsiflash mumkin (4-jadval).

### Aniqlangan tizimli muammolar va ularning HR-model asosidagi yechimlari.

O'tkazilgan so'rovnoma va statistik tahlillar natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida HR-menejment va mehnat munosabatlari tizimida oltita tizimli muammo aniqlandi. Har bir muammoning yechimi sifatida muallif tomo-

4-jadval

#### “Ichki kommunikatsiya va psixologik muhit” bloki bo'yicha statistika

| Indikator                 | Ijobiy baho (%) | Salbiy/neytral baho (%) |
|---------------------------|-----------------|-------------------------|
| Axborot almashinuvi       | 74,2            | 25,8                    |
| Fikr bildirish erkinligi  | 75,2            | 24,8                    |
| O'zaro ishonch va hurmat  | 74,6            | 25,4                    |
| Nizolarni hal etish       | 75,1            | 24,9                    |
| Ma'naviy-ruhiy muhit      | 74,0            | 26,0                    |
| Qo'llab-quvvatlash tizimi | 73,5            | 26,5                    |

Manba: mualliflik tadqiqoti asosida shakllantirilgan.

Shu bilan birga, deyarli barcha savollar bo'yicha o'rtacha 25-27 foiz xodimlarning neytral yoki norozi kayfiyatda ekanligi, taklif etilayotgan HR-modelda psixologik menejment va ichki kommunikatsiyalarni tubdan isloh qilish zarurligini empirik jihatdan asoslaydi.

nidan ilgari surilgan kompleks HR-menejment modelining tegishli mexanizmi taklif etiladi [7] (5-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'rovnoma natijasida aniqlangan har bir tizimli muammo taklif etilayotgan HR-menej-

5-jadval

#### Aniqlangan muammolar va ularni HR-model asosida bartaraf etish yo'nalishlari

| № | So'rovnomada aniqlangan muammo                                                    | Model asosidagi yechim (mexanizm)                                                                                      | Kutilayotgan natija                                                                 |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Kadrlarni saralashdagi subyektivlik va adolatsizlik (19,8% norozilik)             | AI-rekruting va raqamli skrining: inson omilini istisno qiluvchi avtomatik saralash tizimi                             | Kadrlar tanlashda shaffoflik va meritokratiyaning ta'minlanishi                     |
| 2 | Ustamalar belgilashdagi noshaffoflik va mezonlarning noaniqligi (20,4% norozilik) | KPI asosidagi rag'batlantirish: moddiy rag'batlantirishni tizim tomonidan avtomatik hisoblanuvchi natijalarga bog'lash | Mehnatga haq to'lashda adolat tamoyilining qaror topishi va motivatsiyaning ortishi |

|   |                                                                                             |                                                                                                        |                                                                       |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| 3 | Xodimlarning tashkilotga iqtisodiy sodiqligining pastligi (35,2% xavf guruhi)               | HR-analitika va ijtimoiy paket: xodimlarni tizimda ushlab qolishga qaratilgan sodiqlik dasturlari      | Kadrlar qo'nimsizligi (turnover rate) pasayishi va jamoa barqarorligi |
| 4 | Professional o'sish imkoniyatlarining yetarli emasligi (27,4% salbiy baho)                  | Individual rivojlanish traektoriyasi (IRT): har bir pedagog uchun shaxsiy kasbiy yuksalish xaritasi    | Pedagogik mahoratning uzluksiz o'sishi va ta'lim sifati yaxshilanishi |
| 5 | Ichki psixologik muhitning noqulayligi va qo'llab-quvvatlashning zaifligi (26,5% norozilik) | Empatik boshqaruv va tripartizm: rahbar-xodim o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi qayta aloqa tizimi | Sog'lom psixologik iqlim va korporativ ruhning shakllanishi           |
| 6 | Tizimda ilmiy salohiyatning pastligi (Magistr va PhD ulushi <10%)                           | Talantlar menejmenti: ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlar uchun alohida imtiyozlar tizimi    | Maktabning ilmiy-pedagogik salohiyati va innovatsion faolligi ortishi |

*Manba: mualliflik tadqiqoti asosida shakllantirilgan.*

ment modelining muayyan instrumenti orqali yechimga ega. Bu esa modelning nazariy jihatdan puxtaligini va amaliyotdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilganligini empirik jihatdan asoslaydi.

O'tkazilgan keng qamrovli sotsiologik so'rovnoma natijalari umumiy o'rta ta'lim tizimida HR-menejment asosida mehnat munosabatlarini tashkil etishning amaldagi holatida bir qator tizimli muammolar mavjudligini, xususan, kadrlarni saralashdagi subyektivlik, moddiy rag'batlantirishning noshaffofligi, xodimlarning iqtisodiy sodiqligi pastligi, kasbiy o'sish traektoriyasining yetishmasligi, ichki

kommunikatsiya va psixologik muhitdagi uzilishlar hamda ilmiy salohiyatning pastligini – empirik jihatdan tasdiqladi. Aniqlangan har bir muammoning muallif tomonidan ilgari surilgan kompleks HR-menejment modeli mexanizmlari bilan izchil mosligi ushbu modelning nafaqat nazariy jihatdan asoslanganligini, balki amaliyotda dolzarb ehtiyojga javob berishini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu modelning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida keng miqyosda joriy etilishi va uning uzoq muddatli natijalarini monitoring qilish dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarori.
4. Armstrong, M., & Taylor, S. (2020). Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice. Kogan Page Publishers.
5. Mamanazarova N.K. Xalq ta'limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish // Monografiya. Toshkent. – Tipograf, 2023. – 165 b.
6. OECD. TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 312 p.
7. World Bank. World Development Report 2018: Learning to Realize Education's Promise. – Washington, DC: World Bank, 2018. – 240 p.
8. Yodgorov J. Ijtimoiy tadqiqotlar metodologiyasi. – T.: "Adolat", 2020.

# **FORSAYT TEXNOLOGIYASI ASOSIDA**

## **UMUMTA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISH**

### **MEXANIZMI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI**

*Nuriyeva Umida Buribayevna,*

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,*

*O'quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va*

*apostel hizmatini ko'rsatish boshqarma boshlig'i o'rinbosari*

*E-mail: nurievaumida62@gmail.com*

*ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-3834-8535>*

*Phone: +998 97 722 50 19*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada forsayt texnologiyasi asosida umumta'lim muassasalari boshqaruvini rivojlantirishning nazariy asoslari, tashkiliy mexanizmlari va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Strategik foresight yondashuvining ta'lim boshqaruvidagi ahamiyati yoritilib, boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy indikatorlar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** forsayt texnologiyasi, strategik foresight, umumta'lim muassasasi, ta'lim boshqaruvi, strategik rejalashtirish, boshqaruv samaradorligi, samaradorlik ko'rsatkichlari, innovatsion boshqaruv, ta'lim menejmenti, strategik rivojlanish.

**Механизм развития управления  
общеобразовательными учреждениями  
и показатели его эффективности на основе  
технологии форсайта**

**Нуриева Умида Бурибаевна,**  
Заместитель начальника Управления по оценке  
знаний учащихся, анализу и предоставлению  
апостильных услуг Министерства дошкольного  
и школьного образования Республики  
Узбекистан

**Аннотация:** В данной статье проанализи-

рованы теоретические основы, организационные механизмы и показатели эффективности развития управления общеобразовательными учреждениями на основе технологии форсайта. Раскрыта роль подхода стратегического форсайта в управлении образованием, а также предложены основные показатели эффективности и практические рекомендации, направленные на повышение результативности управленческой деятельности.

**Ключевые слова:** технология форсайта, стратегический форсайт, общеобразовательное учреждение, управление образованием, стратегическое планирование, эффективность управления, показатели эффективности, инновационное управление, образовательный менеджмент, стратегическое развитие.

**Mechanism for developing the management  
of general secondary educational institutions  
and performance indicators based  
on foresight technology**

**Umida Buribayevna Nuriyeva,**  
Deputy Head of the Department for Student  
Knowledge Assessment, Analysis and Apostille  
Services, Ministry of Preschool and School  
Education of the Republic of Uzbekistan



**Abstract:** *This article analyzes the theoretical foundations, organizational mechanisms, and performance indicators for developing the management of general secondary educational institutions based on foresight technology. It highlights the significance of the strategic foresight approach in educational management and proposes key performance indicators along with practical recommen-*

*dations aimed at improving the effectiveness of management processes.*

**Keywords:** *foresight technology, strategic foresight, general secondary educational institution, educational management, strategic planning, management effectiveness, performance indicators, innovative management, education management, strategic development.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar umumta'lim muassasalarini boshqarishda zamonaviy strategik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi, mehnat bozori talablarining o'zgarishi hamda global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta'lim muassasalari rahbarlaridan uzoq muddatli istiqbolni oldindan ko'ra bilish va ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, strategik foresight (forsayt) texnologiyasi umumta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarni baholash hamda boshqaruv tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, umumta'lim muassasalari boshqaruvida forsayt texnologiyasidan foydalanishning tashkiliy mexanizmlari va samaradorlik ko'rsatkichlarini ilmiy asosda belgilash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy ishlarda strategik foresightning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari yoritilgan bo'lsada, ularni umumta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotiga moslashtirish, boshqaruv samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalarni takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolaning maq-

sadi forsayt texnologiyasi asosida umumta'lim muassasalari boshqaruvini rivojlantirish mexanizmini asoslash hamda uning samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Ta'lim tizimini strategik rivojlantirishda forsayt texnologiyasi kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarni oldindan aniqlash, istiqbolli rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beruvchi zamonaviy yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur texnologiya ta'lim muassasalari faoliyatini uzoq muddatli istiqbolda rejalashtirish, tashqi muhitdagi noaniqliklarga moslashish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [1].

L. Georghiou, J. Cassingena Harper, M. Keenan, I. Miles va R. Popper tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda forsayt texnologiyasi ekspert bilimlari, Delphi usuli, ssenariylar ishlab chiqish, texnologik yo'l xaritalari va manfaatdor tomonlar ishtirokini o'zaro uyg'unlashtiruvchi kompleks strategik boshqaruv vositasi sifatida tavsiflangan [2]. Mualliflarning ta'kidlashicha, ushbu yondashuv kelajakdagi rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

R. Popper forsayt metodologiyasini tizimli ravishda tahlil qilib, strategik rejalashtirishda qo'llaniladigan turli metodlarni integratsiyalash zarurligini asoslaydi [3]. Olimning

fikricha, sifat va miqdoriy tahlil usullarining uyg'unligi boshqaruv qarorlarining ishonchligini oshiradi hamda ta'lim tizimida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan baholash imkonini yaratadi.

I. Miles, O. Saritas va A. Sokolov ilmiy-texnologik rivojlanish jarayonida farsaytning o'rni tobora ortib borayotganini ta'kidlab, uni strategik innovatsiyalarni boshqarishning muhim instrumenti sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlarida ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini belgilashda foresight yondashuvi muhim omil sifatida ko'rsatilgan [4].

UNESCO ekspertlarining fikricha, zamonaviy ta'lim tizimi faqat mavjud muammolarni hal qilish bilan cheklanmasdan, kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga tayyor bo'lishi lozim. Shu bois ta'lim muassasalari boshqaruvida strategik fikrlash, innovatsion yondashuv va kelajak kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [5].

OECD tadqiqotlarida strategik foresight davlat boshqaruvi va ta'lim siyosatini takomillashtirishning muhim vositasi sifatida baholanadi. Tashkilot mutaxassislarining ta'kidlashicha, strategik prognozlash natijalari qaror qabul qilish sifati, boshqaruvning moslashuvchanligi hamda institutsional barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi [6].

P. Drucker boshqaruv nazariyasida tashkilot muvaffaqiyati kelajakni oldindan kutish emas, balki uni strategik qarorlar orqali shakllantirishga bog'liq ekanligini asoslaydi. Mazkur yondashuv ta'lim muassasalari boshqaruvida farsayt texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslaridan biri sifatida qoraladi [7].

H. Mintzberg strategik boshqaruv samaradorligi tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyati bilan belgilanishini ta'kid-

laydi. Olimning fikricha, zamonaviy rahbar strategik rejalashtirish bilan bir qatorda noaniqliklarni boshqarish va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash kompetensiyasiga ham ega bo'lishi lozim [8].

B.X. Karimova ta'lim muassasasini boshqarishda boshqaruv madaniyati, kreativ yondashuv va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sifati hamda tashkilot samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ilmiy asoslaydi. Muallif strategik boshqaruvida innovatsion yondashuvlardan foydalanish rahbar faoliyatining natijadorligini sezilarli darajada oshirishini qayd etadi [9].

D.U. Xolbo'tayeva pedagogik mahoratni rivojlantirishda rahbarning liderlik salohiyati, strategik fikrlashi va innovatsion boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [10]. Olimning fikricha, ushbu kompetensiyalar ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

M. Hamdamova uzluksiz ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va shaxsga yo'naltirilgan boshqaruvni rivojlantirish orqali ta'lim sifati hamda boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [11].

U.B. Nuriyeva ta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy yetakchiligi, boshqaruv madaniyati va zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim tashkilotining strategik taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [12]. Muallif rahbarning innovatsion fikrlashi va strategik qarorlar qabul qilish qobiliyati ta'lim boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini asoslaydi.

M. Conway strategik foresightni tashkilotlarning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy bos-

hqaruv vositasi sifatida baholaydi [13]. Uning fikricha, foresight jarayonida manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish va kelajakdagi xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

R. Slaughter kelajak tadqiqotlarini tashkilotlarning strategik rivojlanishini ta'minlaydigan ilmiy yo'nalish sifatida izohlaydi. Olim foresight yondashuvi rahbarlarda tizimli fikrlash, uzoq muddatli rejalashtirish va innovation boshqaruv madaniyatini rivojlantirishini ta'kidlaydi [14].

Yevropa Komissiyasining Competence Centre on Foresight dasturida megatrendlarni tahlil qilish, strategik ssenariylar ishlab chiqish va dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas elementi sifatida baholanadi [15]. Mazkur yondashuv umum ta'lim muassasalari boshqaruvini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval ma'lumotlari OECD tomonidan

*1-jadval*

**OECD tavsiya etgan strategik foresight elementlarining umumta'lim muassasalari boshqaruvi moslashtirilgan tahlili**

| <b>№</b> | <b>OECD foresight elementi</b>                           | <b>Umumta'lim muassasasi boshqaruvida qo'llanilishi</b>                                                                                 | <b>Kutilayotgan natija</b>                               |
|----------|----------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| 1        | Kelajak ssenariylarini ishlab chiqish (Future Scenarios) | Maktabning 2030–2040-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish                                                   | Strategik rivojlanishning aniq yo'nalishlari belgilanadi |
| 2        | Manfaatdor tomonlar ishtiroki (Stakeholder Stories)      | Direktor, o'qituvchi, ota-ona, o'quvchi va mahalla vakillarini strategik rejalashtirishga jalb qilish                                   | Qarorlarning sifat va shaffofligi oshadi                 |
| 3        | Muqobil ssenariylarni baholash                           | Optimistik, realistik va xavfli rivojlanish variantlarini ishlab chiqish                                                                | Noaniqlik sharoitida boshqaruv barqarorlashadi           |
| 4        | Futures Wheel usuli                                      | Har bir boshqaruv qarorining birlamchi, ikkilamchi va uzoq muddatli ta'sirini aniqlash                                                  | Qarorlarning salbiy oqibatlarini kamayadi                |
| 5        | Stress testing                                           | Maktab rivojlanish dasturini turli tashqi xavflar (raqamlashtirish, demografik o'zgarish, moliyalashtirish) bo'yicha sinovdan o'tkazish | Strategik rejaning barqarorligi oshadi                   |
| 6        | Strategik refleksiya                                     | Har yili rivojlanish strategiyasini qayta ko'rib chiqish                                                                                | Doimiy takomillashtirish mexanizmi yaratiladi            |
| 7        | Dalillarga asoslangan qarorlar                           | Statistik ma'lumotlar va monitoring natijalariga tayangan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish                                      | Boshqaruv samaradorligi ortadi                           |

tavsiya etilgan strategik foresight vositalarini umumta'lim muassasalari boshqaruviga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Hisobotda strategik foresight kelajakni bashorat qilish emas, balki bugungi qarorlarni kelajak ehtiyojlarini hisobga olgan holda qabul qilish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bunda kelajak ssenariylarini ishlab chiqish, manfaatdor tomonlarning fikrlarini inobatga olish, Futures Wheel va Stress Testing kabi vositalardan foydalanish boshqaruv tizimining moslashuvchanligini va barqarorligini oshirishi ta'kidlangan.

Jadvaldan ko'rinadiki, ushbu yondashuvlarni umumta'lim muassasalari boshqaruviga joriy etish strategik rejalashtirish sifatini oshirish, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ehtimoliy xavflarni oldindan baholash imkonini beradi. Ayniqsa, Futures Wheel usuli boshqaruv qarorlarining birlamchi va uzoq muddatli ta'sirlarini tizimli baholashga xizmat qilsa, Stress Testing usuli maktab rivojlanish strategiyasining turli ssenariylardagi barqarorligini aniqlash imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, forsayt texnologiyasi umumta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirishning istiqbolli strategik vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim tizimining tashqi va ichki muhitidagi o'zgarishlarni kompleks baholash, ehtimoliy rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish hamda uzoq muddatli strategik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish imkonini yaratadi. An'anaviy boshqaruvdan farqli ravishda, forsayt texnologiyasi manfaatdor tomonlarning hamkorligini kuchaytirish, innovatsion g'oyalarni shakllantirish va noaniqlik sharoitida boshqaruvning moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida umumta'lim muassasalari boshqaruvida strategik foresight elementlari

– kelajak ssenariylarini ishlab chiqish, manfaatdor tomonlar ishtirokini kengaytirish, muqobil rivojlanish variantlarini baholash, Futures Wheel, Stress Testing hamda dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmlarini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillari ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv ta'lim muassasalarining strategik rejalashtirish sifatini yaxshilash, boshqaruv risklarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida umumta'lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini baholashda strategik rejalashtirish sifati, manfaatdor tomonlar ishtiroki, innovatsion boshqaruv faoliyati, monitoring va tahlil tizimi, qarorlarning ilmiy asoslanganligi hamda boshqaruvning moslashuvchanligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi asoslandi. Mazkur ko'rsatkichlar ta'lim muassasalari rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish, boshqaruv natijadorligini baholash va strategik rivojlanish dasturlarini takomillashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida umumta'lim muassasalarida forsayt texnologiyasini amaliyotga joriy etish bo'yicha diagnostik metodikalarni ishlab chiqish, samaradorlik ko'rsatkichlarini empirik ma'lumotlar asosida baholash hamda raqamli boshqaruv platformalari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini tadqiq etish ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari rahbarlari, ta'lim siyosatini ishlab chiquvchilar va pedagogik menejment sohasidagi tadqiqotchilar uchun strategik boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Martin B.R. *Technology Foresight: Capturing the Benefits from Science-Related Technologies // Research Evaluation*. – 1995. – Vol. 5, No. 2. – P. 139–148.
2. Georghiou L., Cassingena Harper J., Keenan M., Miles I., Popper R. *The Handbook of Technology Foresight: Concepts and Practice*. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2008. – 560 p.
3. Popper R. *Foresight Methodology // Georghiou L., Cassingena Harper J., Keenan M., Miles I., Popper R. The Handbook of Technology Foresight*. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2008. – P. 44–88.
4. Miles I., Saritas O., Sokolov A. *Foresight for Science, Technology and Innovation*. – Cham: Springer International Publishing, 2016. – 276 p.
5. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 183 p. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707>
6. OECD. *Strategic Foresight for Better Policies: Building Effective Governance in the Face of Uncertain Futures*. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 168 p. – DOI: 10.1787/cd0a36cd-en.
7. Drucker P.F. *Management: Tasks, Responsibilities, Practices*. – New York: Harper & Row, 1973. – 839 p.
8. Mintzberg H. *The Rise and Fall of Strategic Planning*. – New York: Free Press, 1994. – 458 p.
9. Karimova B.X. Ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati. Pedagogik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2023. – 3-j. (4-son). – B. 918–924.
10. Xolbo'tayeva D.U. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: Science and Innovation, 2024. – 244 b.
11. Hamdamova M. *Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi)*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 224 b.
12. Nuriyeva U.B. Ta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish // Respublika konferensiya (ilmiy-amaliy anjuman) maqola va tezislarni to'plami: "Milliy iqtisodiyotni barqaror saqlashda "yashil iqtisodiyot", "yashil moliya", "yashil buxgalteriya" va ilg'or muhandislik maktablarini ilmiy-amaliy integratsiyalashtirish dolzarbligi". – 2025. – 30-may. – B. 708–710. – DOI: 10.5281/zenodo.21509553. – URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21509553>.
13. Conway M. *An Introduction to Strategic Foresight*. – Melbourne: Thinking Futures, 2019. – 156 p.
14. Slaughter R.A. *The Knowledge Base of Futures Studies*. Vol. 1. – Indooroopilly: Foresight International, 2005. – 412 p.
15. European Commission. *Competence Centre on Foresight: Megatrends Hub*. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2023.



# XALQ EPIK MEROSI (DOSTON VA MAQOLLAR)NING O'QUVCHILAR XULQ-ATVOR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Turdiyev Azizbek Anvarjonovich,  
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha  
va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari*

**Annotatsiya.** Maqolada xalq og'zaki ijodining bosh ustunlari – xalq epik merosi (dostonlar) hamda maqollarning o'quvchilar xulq-atvor madaniyatini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Dostonlarning sinkretik tabiati va ulardagi ideal obrazlar orqali o'smirlarda vatanparvarlik, oilaviy va umumbashariy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xalq maqollarining oltita asosiy tarbiyaviy yo'nalish bo'yicha tematik tasnifi keltirilib, ularning bola shaxsida kognitiv, motivatsion-qadriyatli va faoliyat-xulqiy mezonlarni faollashtirishdagi metaforik kuchi asoslangan. Doston va maqollar integratsiyasi o'quvchi xulqini tartibga soluvchi va globallashuv sharoitida manaviy immunitetni mustahkamlovchi qudratli didaktik vosita ekanligi isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** xalq epik merosi, doston, maqol, xulq-atvor madaniyati, didaktik imkoniyat, xalq pedagogikasi, tematik tasnif, ma'naviy-axloqiy tarbiya, kognitiv mezon, ideal obraz.

**Дидактический потенциал народного  
эпического наследия (эпосов и пословиц)  
в формировании культуры поведения  
учащихся**

**Турдиев Азизбек Анваржонович,**  
Заместитель министра дошкольного и  
школьного образования Республики  
Узбекистан

**Аннотация:** В статье проанализированы дидактические возможности основных компонентов устного народного творчества – народного эпического наследия (эпосов) и пословиц – в формировании культуры поведения учащихся. Раскрыты педагогико-психологические механизмы формирования у подростков патриотизма, семейных и общечеловеческих ценностей посредством синкретической природы эпических произведений и представленных в них идеальных образов. Кроме того, представлена тематическая классификация народных пословиц по шести основным воспитательным направлениям и обоснована их метафорическая сила в активизации когнитивного, мотивационно-ценностного и деятельностно-поведенческого компонентов личности ребенка. Доказано, что интеграция эпосов и пословиц является эффективным дидактическим средством, регулирующим поведение учащихся и укрепляющим их духовно-нравственный иммунитет в условиях глобализации.

**Ключевые слова:** народное эпическое наследие, эпос, пословица, культура поведения, дидактический потенциал, народная педагогика, тематическая классификация, духовно-нравственное воспитание, когнитивный компонент, идеальный образ.

**The didactic potential of folk epic heritage  
(Epics and Proverbs) in shaping students'  
behavioral culture**

**Azizbek Anvarjonovich Turdiyev,**  
Deputy Minister of Preschool and School  
Education of the Republic of Uzbekistan

**Abstract:** *The article provides a systematic analysis of the didactic potential of the folk epic heritage (epics/dastans) and proverbs in shaping the behavioral culture of general secondary school students. The pedagogical and psychological mechanisms of developing patriotism, family values, and universal ethical standards in adolescents through the syncretic nature of epics and their ideal character archetypes are thoroughly explored.*

*Furthermore, a thematic classification of Uzbek proverbs across six core educational dimensions is introduced, demonstrating their metaphorical impact on activating cognitive, motivational-value, and behavioral criteria in a child's personality. The study concludes that the integration of epics and proverbs serves as a powerful didactic tool that regulates student behavior and strengthens their spiritual immunity against global challenges.*

**Keywords:** *Folk epic heritage, dastan, proverb, behavioral culture, didactic potential, folk pedagogy, thematic classification, moral and ethical education, cognitive criterion, ideal image.*

Xalq ogʻzaki ijodi – millatning koʻp asrlilik hayotiy tajribasi, axloqiy ideal-lari, dunyoqarashi va estetik didini oʻzida mujassam etgan bebaho maʼnaviy xazinadir. Unda xalqning ezgulik va yovuzlik, adolat va zulm, mardlik va qoʻrqoqlik, sadoqat va xiyo-nat haqidagi tasavvurlari badiiy shaklda umum-lashgan boʻlib, bu tasavvurlar avlod-dan-avlo-dga uzatilib, millatning maʼnaviy qiyofasini shakllantirib kelgan. Oʻtgan asrlarda hozirgi zamonga xos matbuot, oʻquv dargohlari, mada-niyat markazlari, radio, televidenie va internet kabi taʼlim-maʼrifat tizimi shakllanmagan edi. Shu bois yosh avlodni hayotga tayyorlash, unga axloqiy meʼyorlarni singdirish, milliy oʻzlikni anglatish vazifalari, asosan, xalq ogʻzaki ijodi zimmasiga yuklangan. Natijada ogʻzaki ijod oʻzbek xalq pedagogikasining tarixiy zamini-ni tashkil etgan [2]. Bu anʼananing tarbiyaviy salohiyati bugungi kunda ham oʻz qimmatini yoʻqotgani yoʻq, aksincha, globallashuv sharo-i-tida yoshlarning maʼnaviy immunitetini mus-tahkamlashda xalq ogʻzaki ijodi namunalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Xalq ogʻzaki ijodining rang-barang janrlari – ertak, maqol, topishmoq, qoʻshiq, rivoyat va afsonalar orasida doston janri maʼnaviy-axloqiy tarbiya nuqtai nazaridan alohida oʻrin egallaydi.

Chunki doston oʻzining keng koʻlamli ijti-moiy-gʻoyaviy mazmuni, mukammal badiiy-estetik qurilishi va ijro sanʼati bilan bolani uzoq muddat davomida oʻz taʼsir doirasida ushlab tura oladi, unga butun boshli axloqiy ideallar tizimini singdiradi. Ushbu paragrafda maktab yoshidagi bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiya-lashda xalq dostonlarining ijtimoiy-gʻoyaviy mazmuni va tarbiyaviy taʼsiri ijtimoiy-peda-gogik jihatdan tahlil qilinadi.

Avvalo, doston janrining mohiyatini aniqlab olish zarur. “Doston” soʻzi fors tilidan olingan boʻlib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” maʼnolarini anglatadi. Oʻzbek ogʻzaki ijodidagi doston folklorshunoslik ilmida sinkretik, yaʼni oʻzida bir necha sanʼat turini birlashtirgan janr sifa-tida eʼtirof etiladi. Taniqli folklorshunos olim, professor M.Saidov ogʻzaki dostonning toʻrt asosiy belgisini koʻrsatib oʻtgan: birinchidan, dostonning sheʼriy va nasriy parchalardan ibo-rat badiiy matni boʻlishi; ikkinchidan, uning oʻziga xos kuy-ohangi mavjudligi; uchinchidan, ijrochining doʻmbira yoki qoʻbiz chala bilishi; toʻrtinchidan, baxshining yoqimli ovozga hamda qoʻshiq aytish mahoratiga ega boʻlishi [8]. Bu belgilar dostonning tinglovchiga soʻz, musiqa, ovoz va ijro sanʼatining uygʻunlashgan taʼsiri orqali yetib borishini taʼminlaydi – bu

esa uning tarbiyaviy quvvatini boshqa janrlarga nisbatan kuchaytiradi.

Ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni va badiiy yo'nalishiga ko'ra o'zbek xalq dostonlari ikki katta guruhga bo'linadi: qahramonlik (jangnoma) dostonlari hamda ishqiy-romantik (liro-epik) dostonlar [5]. Birinchi guruhga "Alpomish", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Malika Ayyor", "Ravshan" kabi asarlar; ikkinchi guruhga "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Kuntug'mish", "Rustamxon" singari dostonlar kiradi. Qahramonlik dostonlarida vatan va el-yurt himoyasi, tashqi dushmanga qarshi kurash, mardlik va jasorat birinchi o'ringa chiqsa, ishqiy-romantik dostonlarda saxiy va pok muhabbat, sadoqat, insoniy fazilatlar ulug'lanadi. V.Jirmunskiy va H.Zarifov ta'kidlaganidek, qahramonlik eposi xalqning o'z ozodligi, mustaqilligi va adolat uchun olib borgan kurashi tarixini badiiy shaklda aks ettiradi [9]. Shu ma'noda doston – millatning tarixiy xotirasi va axloqiy vasiyatnomasi sifatida namoyon bo'ladi.

"Alpomish" dostoni – o'zbek qahramonlik eposining cho'qqisi bo'lib, unda vatanga sadoqat, oila va el-yurtga muhabbat, dushman oldida bukilmalik, ahdga vafodorlik kabi oliy fazilatlar tarannum etiladi. Dostonning markaziy ziddiyati – qahramonning yurti va sevgilisidan judoligi hamda qahramonona qaytishi asosida qurilgan bo'lib, bu voqealar zanjiri bolaga sabr-matonat, irodasi kuchlilik va o'z orzusiga sadoqatning qadrini singdiradi. Barchin obrazi o'zbek qizlarining aql-farosati, iffati, matonati va yoriga sadoqati timsoli sifatida gavdalanib, u orqali yosh avlodda ayol zotiga hurmat va oila muqaddasligi hissi tarbiyalanadi. Sodiq Qultoy obrazi halol mehnat, vafodorlik va kamtarinlikni ulug'lasa, salbiy qahramonlarning (Surxayil, Ultontoz kabi) xor bo'lishi orqali yovuzlik, xiyonat va hasadning muqarrar mahkumligi yosh tinglovchiga ishonarli tarzda uqtiriladi.

Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarda adolatsizlikka qarshi kurash, ojiz va bechoralarni

himoya qilish, el-yurt tinchligi uchun fidoyilik g'oyalari markaziy o'rinni egallaydi. Go'ro'g'li – nafaqat jasur sarkarda, balki adolatparvar rahnamo sifatida tasvirlanib, uning timsolida oddiy xalqning adolatli hukmdor haqidagi orzusi mujassamlashgan. Turkumdagi Avazning tarbiyalanishi voqeasi orqali farzand tarbiyasi, avlod tarbiyasiga mas'uliyat va yosh avlodni mardlik ruhida voyaga yetkazish g'oyalari ilgari suriladi. Ishqiy-romantik dostonlarda esa insoniy munosabatlarning nozik qirralari yoritiladi: "Kuntug'mish" dostonida oilaviy sadoqat, sabr va vafo; "Oshiq G'arib va Shohsanam"da pok muhabbat, ahdga sodiqlik va intilish orqali maqsadga erishish ulug'lanadi. Bu dostonlar bolada sof his-tuyg'u, boshqa inson qalbiga nisbatan mas'uliyat va axloqiy poklik tushunchalarini shakllantiradi.

Dostonlarning yana bir muhim ijtimoiy-g'oyaviy xususiyati – ularda xalqlar do'stligi va birdamligi g'oyasining keng targ'ib qilinishidir. Doston qahramonlari ko'pincha turli elatlar vakillari bilan birodarlashadi, yovuzlikka qarshi birgalikda kurashadi. Bu holat bugungi ko'pmillatli jamiyat sharoitida yoshlarni baynalmilallik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shuningdek, dostonlarda ifodalanagan ezgulik-yovuzlik, halollik-xiyonat, mardlik-qo'rqqoqlik kabi qarama-qarshiliklar bolaga axloqiy tushunchalarni aniq va obrazli tarzda farqlashni o'rgatadi. Ijobiy va salbiy qahramonlarning yonma-yon tasvirlanishi bolada ezgulik tomonida turish, adolatni qo'llab-quvvatlash hissini tabiiy ravishda uyg'otadi.

Dostonlarda ayol qahramonlar obrazi ham alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega. "Qirq qiz" dostonida Guloyim boshchiligidagi qizlarning vatan himoyasida ko'rsatgan jasorati orqali jinsidan qat'i nazar, har bir inson Vatan oldidagi burchga sodiq bo'lishi lozimligi tarannum etiladi. Bunday obrazlar qizlarda matonat, jur'at, o'z qadrini bilish va vatanparvarlik

tuyg'ularini, o'g'il bolalarda esa ayol zotiga hurmat hissini kamol toptiradi. Dostonlardagi Barchin, Oybarchin, Guloyim singari ayol timsollari o'zbek xalqining ayolga bo'lgan yuksak hurmati, uning aql-farosati va matonatiga ishonchi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu obrazlar zamonaviy jamiyatda gender muvozanatiga asoslangan, har ikki jins vakillarida o'zaro hurmat va teng mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiruvchi tarbiya uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa dostonlar bolalarni nafaqat milliy, balki umumbashariy axloqiy me'yorlar ruhida tarbiyalashga yo'naltiradi.

Dostonning asosiy tarbiyaviy mexanizmi – ijobiy qahramonning ideal inson sifatida namoyon bo'lishi va bolada unga intilish, taqlid qilish istagini uyg'otishidir. Yuqorida qayd etilganidek, maktab yoshi, ayniqsa o'smirlik davri – shaxsning o'z idealini, ibrat namunasini izlovchi davr. Aynan shu bosqichda doston qahramonlari – Alpomish, Go'ro'g'li, Barchin kabi timsollar bola uchun axloqiy orientir, o'ziga xos "ma'naviy tarbiya dasturi"ni o'zida mujassam etgan namuna vazifasini bajaradi. Bola qahramonning mardligiga, sadoqatiga, olijanobligiga havas qilib, unga o'xshashga intiladi va shu yo'l bilan ijobiy fazilatlarni o'zlashtiradi [3].

Dostonlar vositasida tarbiyalanadigan muhim fazilatlardan biri – vatanparvarlikdir. Dostonlarda xalqning tarixiy o'tmishi, urf-odatlar, qadriyatlari va orzu-umidlari aks etgan. Bola doston orqali o'z xalqining qahramonona tarixi, boy madaniy merosi bilan tanishadi, o'zini shu buyuk merosga voris deb his qiladi. Bu esa unda milliy g'urur, vatanga muhabbat va uni himoya qilishga tayyorlik tuyg'ularini kamol toptiradi. Mehnatsevarlik ham dostonlarning muhim tarbiyaviy g'oyasidir: doston qahramonlari halol mehnat, chorvachilik, dehqonchilik va hunar bilan mashg'ul bo'lib, ularning muvaffaqiyati yalqovlik emas,

balki tirishqoqlik va mahorat mahsuli sifatida tasvirlanadi. Shu tariqa bola halol mehnatning qadrini, rizq-ro'zning tirishqoqlik orqali topilishini anglab boradi.

Oilaviy qadriyatlar va ota-onaga hurmat tarbiyasi ham dostonlarda muhim o'rin tutadi. Dostonlarda ota-ona duosi, oila muqaddasligi, avlodlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va mehr-oqibat ulug'lanadi. Ushbu g'oyalar xalq og'zaki ijodining rivoyat va afsonalarida ham yorqin ifodalangan: masalan, ona duosining ijobat bo'lishi, ilm olishga intilish, olijanoblik kabi ma'naviy g'oyalar yosh avlodga ibrat qilib taqdim etiladi [7]. Do'stlik va sadoqat, adolat va haqiqat tushunchalari esa doston qahramonlarining o'zaro munosabatlari, sinovli vaziyatlardagi axloqiy tanlovi orqali bolaga singdiriladi. Bola qahramonning og'ir damlarda do'stga sodiq qolishi, haqiqat yo'lida toblani ko'rishiga guvoh bo'lib, sadoqat va adolatning hayotiy qimmatini idrok etadi.

Dostonlarning tili ham tarbiyaviy jihatdan alohida e'tiborga molik. Doston matnida xalq hikmatlari, maqollar, ibratli ifodalar, badiiy tasvir vositalari keng qo'llaniladi. Tadqiqotchilarning lingvostatistik tahlillari doston tilining leksik boyligi va obrazlilik darajasi nihoyatda yuqori ekanligini ko'rsatadi [6]. Dostonni tinglash yoki o'qish jarayonida bola nafaqat axloqiy tarbiya oladi, balki ona tilining boyligi, nafosati va ifoda imkoniyatlaridan bahramand bo'ladi, nutqi boyiydi, badiiy didi o'sadi. Doston tarkibidagi maqollar esa xalqning axloqiy tajribasini nihoyatda ixcham va teran shaklda ifodalab, bolaga hayotiy hikmatni singdiradi [4]. Shu tariqa doston bir vaqtning o'zida axloqiy, estetik va nutqiy tarbiya vazifalarini kompleks tarzda bajaradi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari orasida maqol o'zgacha o'rin tutadi: unda ixchamlik va chuqurlik, soddalik va falsafiylik uyg'un birlashadi. Maqol – tilning, ijtimohning va axloqiy idrokning nihoyatda ixcham shaklda mujassam

bo'lgan noyob hodisasidir. Xalq asrlar mobaynida sinovdan o'tkazgan hayotiy hikmat aynan maqol tilida avlodidan avlodga o'tib, yashab qolgan. O'zi tajriba emas, tajribaning kvintessensiyasi bo'lgan maqol bolaga hayotiy vaziyatni izohlab berishdan ko'ra o'sha vaziyatni o'zi ichidan ko'rishga ko'maklashadi.

Maqolning tarbiyaviy imkoniyatlari uning janr xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ertak yoki doston axloqiy g'oyani sarguzasht va obrazlar tizimi orqali, uzun yo'l bilan yurakka yetkazadi. Maqol esa to'g'ridan-to'g'ri, ammo ko'rsatma sifatida emas, balki obraz orqali: "Manglay teringiz bilan topilgan mol – halol" deb aytadi va bola o'zi xulosa chiqaradi. Aynan shu xususiyati bevositalik va obrazlilikning bir maqolda tutashishi uni xulq-atvor madaniyatini shakllantirishning kam uchraydigan qudratli vositasiga aylantiradi.

Birinchi yo'nalish: vatanparvarlik tarbiyasida maqollarning imkoniyatlari. Vatanga muhabbat – xulq-atvor madaniyatining boshqa barcha fazilatlari tutashadigan markaziy halqa. "Vatan va vatanparvarlik" mavzusida to'plamda qirqdan ziyod maqol mavjud bo'lib, ular uchta qatlamni qamraydi: vatanga mehr, vatan himoyasi va elga xizmat.

"Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas" maqolning badiiy tuzilishida takror (iteratsiya) ishlatilgan: "qadr" so'zi ikkala yarmida ham bor, ammo mazmun turlicha. Vatan qadri va inson qadri bir narsa emas, biroq maqol ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligini aytadi. Bu axloqiy-falsafiy qonuniyatdir: o'zini to'la idrok etgan insongina o'zi tegishli yaxlitlik – xalq va vatanni ham idrok eta oladi. O'qituvchi "Vataningizni yaxshi ko'rasizmi?" deb so'ramaydi bu savolning javobi hamisha "ha"

*1-jadval.*

**O'zbek xalq maqollarining xulq-atvor madaniyatini shakllantirish  
yo'nalishlari bo'yicha tematik tasnifi**

| <b>Tarbiyaviy yo'nalish</b> | <b>Asosiy mavzular</b>             | <b>Namuna maqollar</b>                                                                 | <b>Sinf</b> | <b>Mezon</b>           |
|-----------------------------|------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|-------------|------------------------|
| <b>Vatanparvarlik</b>       | Yurt, el, ona<br>Vatanga sadoqat   | "Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas",<br>"Elga xizmat – oliy himmat"            | 5-7         | Motivatsion-qadriyatli |
| <b>Halollik va mehnat</b>   | Halol mehnat, tekinxo'rlik tanqidi | "Ishlab topganning oshi – lazzatli", "Manglay teringiz bilan topilgan mol – halol"     | 4-6         | Faoliyat-xulqiy        |
| <b>To'g'riso'zlik</b>       | Rostgo'ylik, so'zda turish         | "Aytilgan so'z – otilgan o'q",<br>"Bilmaganni bildim dema, Qilmaganni qildim dema"     | 5-7         | Kognitiv               |
| <b>Do'stlik va sadoqat</b>  | Do'stga vafo, birodarlik           | "Daraxt – ildizi bilan, odam – do'stlari bilan", "Sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi" | 4-6         | Motivatsion-qadriyatli |
| <b>Adolat va vijdon</b>     | Haqiqat, vijdon, tenglik           | "Vijdondan kechgan yiqilar",<br>"Adovat emas, adolat yengar"                           | 5-7         | Kognitiv               |
| <b>Nutq madaniyati</b>      | So'z odobi, muomala                | "Bir shirin so'z bitkazar, Ming ko'ngilning yaracin",<br>"Hikmat – bir hovuch oltin"   | 5-6         | Faoliyat-xulqiy        |



bo'ladi. To'g'ri yo'l: "Vatandan uzoqda yashagan odam nimani eng ko'p sog'inadi?" shunda bola o'z ichki javobi orqali maqolning ma'nosiga o'zi yetib keladi.

"Elga xizmat – oliy himmat" – to'rt so'z, besh bo'g'in, ammo tubsiz mazmun. "Oliy himmat" – arabcha himma ("yuksak intilish") so'zidan. Demak, maqol elga xizmatni burch deb emas, insonning eng yuksak hayotiy maqsadi deb ta'riflaydi. Bu g'oya Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"idagi "to'rt narsa" konsepsiyasiga, Forobiyning "Fozil odamlar shahri"dagi komil inson obraziga uyg'un. Maqol shaklan maqtov, mohiyatan yo'l ko'rsatuvchi.

"Er yigit o'zi uchun tug'ilar, Eli uchun o'lar" – bu maqol "Alpomish" dostonidagi o'sha yettiyillik zindonni – Alpomishning vatanga qaytish uchun bardosh bergan fidoiyligini – yurakdan tushuntirib beradi. O'qituvchi doston va maqolni birga berganda tarbiyaviy ta'sir oydinlashadi: bolalar maqolning nima deganini ko'zga ko'rinmas satrlar orasida emas, Alpomishning hayoti orqali ko'radilar. Kognitiv jihatdan bu Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi"ni ishga soladi: bola o'zi tushunolmaydigan mavhum axloqiy tushunchani konkret obraz orqali o'zlashtiradi.

Ikkinchi yo'nalish: mehnat va halollik tarbiyasida maqollarning pedagogik tahlili. To'plamda mehnat va halollik mavzusidagi maqollar soni oltmishdan oshib ketadi – bu bironbir boshqa mavzudan ko'ra ko'p. Xalqning mehnatga munosabati nechog'lik teran va ko'p qatlamli ekanligini ana shu raqamning o'zi aytib beradi. Mazmun jihatidan ular uch yo'nalishga tarqaydi: mehnatning sharaf-u hurmati, tekinxo'rlikning ayovsiz tanqidi, halol mehnat natijasining qadri.

"Ishlab topganning oshi – lazzatli" mazmunan juda sodda ko'rinadi. Ammo "osh" so'zi o'zbek madaniyatida "nasiba", "rizq", "umr" ma'nosini ham ko'taradi; "lazzatli" esa moddiy ta'mdan ko'ra ko'proq ma'naviy qoniqish-

ni ifodalaydi. Shu tariqa maqol bolaga "oziq-ovqat" haqida emas, mehnatdan tug'iladigan ichki xotirjamlik haqida gapiradi.

"Dili pokning ishi – pok" – garchi "halollik" bo'limidan joy olgan bo'lsa-da, u aslida xulq-atvor madaniyatining umumiy falsafiy asosini bayon etadi: ichki va tashqi poklikning ajralmasligi.

Uchinchi yo'nalish: to'g'riso'zlik va va'daga sadoqatni tarbiyalashda maqollar. "Aytilgan so'z – otilgan o'q" o'zbek maqollari orasida metafora jihatidan eng kuchlilaridan biri. "So'z" va "o'q"ning o'rtasidagi o'xshatishning aniqligi hayratomuz: ikkalasi ham otilgandan keyin qaytib olinmaydi; ikkalasi ham "yara-laydi" yoki zarar, yoki naf. Bu metafora bolaga so'zning voqelikni o'zgartiruvchi kuchga ega ekanligini ko'rsatadi, ya'ni til faqat axborot emas, balki amal ham.

"Bilmaganni bildim dema, Qilmaganni qildim dema" parallelizm tuzilishi maqolga ritmik kuch beradi: ikkala misra bir xil tuzilgan, ammo mazmun ikki turli yolg'onni bilim sohasidagi va amal sohasidagi aynan bir xil kesimda qoralaydi.

"Asli qora oqarmas, Asli buzuq tuzalmas" tabiiy qonun orqali axloqiy hukm chiqariladi: rang o'zgarmasligi fizik haqiqat; yomonlikning tuzalmasligi axloqiy ogohlantirish.

To'rtinchi yo'nalish: do'stlik va sadoqat tarbiyasida maqollarning pedagogik tahlili. O'smirlik davrida tengdoshlar munosabati birinchi o'ringa chiqadi. Xalq maqollari aynan shu psixologik maylga mos tarzda gapiradi; o'smir ularda o'zining savoliga javob topadi.

"Daraxt – ildizi bilan, odam – do'stlari bilan" maqolning obrazli yadrosi "daraxt – odam" muqoyasasidan iborat. Daraxtni tuproqdan ajratsak – xazon; odamni do'stlardan ajratsak – ma'nosizlik. "Ildiz" ko'rinmaydi, ammo tiriklik undan. Shu tariqa do'stlik "ko'zga yaxshi ko'ringan narsa" sifatida emas, yashashning asosi sifatida taqdim etiladi. Bolada maqol

do'stni "qadrlamasdan" yashash mumkin emasligini o'zi his etgan narsaga ulanib tushuntiradi.

"Sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi" maqol sadoqatni inson umrining eng uzun o'lchami o'lim bilan bog'laydi. Bu giperbolaning kuchi: "sodiq do'st" tushunchasiga berishilayotgan vazn nechog'lik katta ekanligi seziladi.

Beshinchi yo'nalish: adolat va vijdon haqidagi maqollar. Adolat mavzusidagi maqollar to'plamning falsafiy jihatdan eng og'ir, mulo-hazaga da'vat etuvchi guruhi. "Vijdondan kechgan yiqilar" maqol vijdonni tashqi ijtimoiy tartibning emas, ichki nazoratchining o'rniga qo'yadi.

"Adovat emas, adolat yengar" tuzilishi paradoksali: adovat kuchli, jasur, ochiq; adolat – tinch, kam gapiruvchi. Ammo maqol "yengadi" deydi. Bolaga bu yoshida kuch nimada – jism-oniy ustunlikdami, prinsipdami – degan savolni uyg'otadi.

"Birovni qarg'asang, o'zingga urar" "bume-rang" prinsipi. Yomonlik uni niyyatlovchiga qaytadi.

Oltinchi yo'nalish: nutq va muomala madaniyatini shakllantirishda maqollar. "Bir shirin so'z bitkazar, Ming ko'ngilning yaracin" badiiy jihatdan eng mukammal maqoldan biri. Son kontrasti (bir – ming) giperbolani yarata-di: bittagina so'z – minglab jarohatga malham. "Yara" – jismoniy metafora: his-tuyg'u jismo-niy zararga tenglashtiriladi, va bola hamdardlik tuyg'usini bevosita "teri orqali" his etganday idrok etadi.

"Hikmat – bir hovuch oltin" o'zi hikmat haqida hikmat. "Bir hovuch" – kichik, ammo oltin. Kam, to'g'ri gap – ko'p gapdan qimmat. Tarbiyaviy ta'siri: "O'ylab, o'lchab gapir" o'gi-tini butun bir falsafaga aylantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalq og'za-ki ijodining ikki muhim ustuni – doston va maqollar shunchaki adabiy material emas, bal-ki o'quvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy jihatdan transformatsiya qiluvchi va tizimli ijtimoiy-lashtiruvchi qudratli didaktik vositadir. Xalq dostonlari bolalarda vatanparvarlik, mardlik va ajdodlar ruhiga hurmat tuyg'ularini uyg'otib, ular uchun yuksak axloqiy ideal va taqlid na-munasi vazifasini bajaradi. Xalqchil obrazlar-ning axloqiy tanlovi va ularning oqibatlari ba-diiy o'qish, sahnalashtirish hamda qahramonlar xulqini baholash kabi metodlar orqali tahlil etil-ganda, o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishti-rokchisiga aylanadi, unda hayotiy ziddiyatlarni to'g'ri baholash va mustaqil qaror qabul qilish layoqati shakllanadi.

Xalq maqollari esa o'zining ixchamligi, badiiy mukammalligi va falsafiy teranligi tu-fayli bola xotimasida tez muhrlanib, kundalik hayotiy vaziyatlarda tayyor xulq-atvor ando-zasi hamda ichki ijtimoiy kompas vazifasini o'taydi. Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ha-lollik va odob kabi milliy qadriyatlarni qam-rab olgan bu aforizmlar bola xulqini tartib-ga soluvchi nazorat mexanizmi bo'lib, uning mustaqil o'zini-o'zi tarbiyalash salohiyatini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ansatbayev N. Xalq dostonlarining milliy madaniyatimizda tutgan o'rni // Journal of New Century Innovations. – 2023. – Vol. 40, Issue 1. – B. 146.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 169.
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 24.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 5.
5. Mirzayev T., Sarimsoqov B. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti // O'zbek folklorida epik janrlar. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 14.
6. O'rinboyeva D. O'zbek xalq og'zaki dostonlari tilining lingvostatistik tahlili. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2009. – B. 6.
7. Saidakbarova Yu.T. Xalq rivoyatlari va afsonalarining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati // Scientific Progress. – 2022. – 3-jild, 6-son. – B. 132–134.
8. Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1969. – B. 30–61.
9. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, 1947. – С. 19.

# FORMATIV VA SUMMATIV BAHOLASH: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL

*Amirkulova Dilnoza Zokir qizi,*

*Samarqand davlat chet tillar institute, mustaqil tadqiqotchi*

*E-mail: dilnozaamirkulova10@gmail.com*

*Tel: 998945340887*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada formativ va summativ baholash tushunchalarining nazariy-metodologik mohiyati chuqur qiyosiy tahlil qilindi. Ikki yondashuvning tarixiy kelib chiqishi, maqsad, vaqt, xavf darajasi va teskari aloqa mezonlari bo'yicha farqlari tizimlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi va amaliy integratsiya imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda M.Skriven, P.Blek, D.Uilyam, D.Sadler, V.Harlen, M.Taras kabi olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinib, formativ va summativ baholashni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish o'rniga, ularni yagona baholash tizimining ikki funktsional qutbi sifatida ko'rish zarurligi asoslandi. Xulosa qilib aytilganda, samarali ta'lim tizimi ikki yondashuvni tizimli uyg'unlashtirishga asoslanishi lozim.

**Kalit so'zlar:** formativ baholash, summativ baholash, pedagogik baholash, teskari aloqa, o'quv jarayoni, baholash nazariyasi, ta'lim sifati.

## Comparative-theoretical analysis of formative and summative assessment

**Amirkulova Dilnoza,**

*Independent researcher Samarkand State  
Institute of Foreign Languages*

**Abstract:** This article presents an in-depth comparative-theoretical analysis of the concepts of formative and summative assessment. The historical origins of the two approaches are examined, and their differences in terms of purpose, timing,

stakes, and feedback are systematized. The theoretical perspectives of M.Scriven, P.Black, D.Wiliam, D.R.Sadler, W.Harlen, and M.Taras are analyzed to argue that formative and summative assessment should not be treated as opposing categories but as two functional poles of a single assessment system. The article concludes that an effective educational system must be built on the systematic integration of both approaches rather than their separation.

**Keywords:** formative assessment, summative assessment, pedagogical assessment, feedback, learning process, assessment theory, quality of education.

## Сравнительно-теоретический анализ формативного и суммативного оценивания

**Амиркулова Дилноза Зокир кизи,**

*Самаркандский государственный институт  
иностранных языков, Самостоятельный  
исследователь*

**Аннотация:** В данной статье представлен глубокий сравнительно-теоретический анализ понятий формативного и суммативного оценивания. Рассматривается историческое происхождение обоих подходов, систематизируются их различия по цели, времени проведения, уровню риска и обратной связи. Анализируются теоретические взгляды М.Скривена, П.Блека, Д.Уильяма, Д.Сэдлера, В.Харлен и М.Тараса, на основании которых обосновывается, что формативное и суммативное оценивание не сле-

*дует рассматривать как противоположные категории, а как два функциональных полюса единой системы оценивания. Делается вывод о том, что эффективная система образования должна строиться на системной интеграции обоих подходов.*

**Ключевые слова:** *формативное оценивание, суммативное оценивание, педагогическое оценивание, обратная связь, учебный процесс, теория оценивания, качество образования.*

**T**a'lim sifatini oshirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining markaziy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda, bunda baholash tizimining nazariy va amaliy jihatdan qanday tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Baholash shunchaki o'quvchi bilimni o'lchash vositasi emas, balki butun o'quv jarayonining yo'nalishi, sifati va natijadorligini belgilovchi pedagogik mexanizmdir. Ushbu mexanizmning ikki asosiy funksional shakli – formativ (jarayonli) va summativ (yakuniy) baholash, bu ikkisi pedagogika fanida uzoq vaqtdan beri alohida-alohida o'rganilib kelinmoqda, biroq ularning o'zaro nisbati, farqlari va bir-biriga ta'siri masalasi hanuzgacha to'liq yakunlangan ilmiy konsensusga ega emas.

Formativ baholash tushunchasi o'quvchining o'quv jarayoni davomida erishayotgan natijalarini kuzatish, unga tezkor va konstruktiv fikr-mulohaza berish hamda shu asosda ta'lim jarayonini moslashtirishga qaratilgan bo'lsa, summativ baholash odatda o'quv davri (chorak, semestr, kurs) yakunida o'quvchi erishgan natijani rasmiy tarzda qayd etish va sertifikatlash maqsadini ko'zlaydi. Ushbu ikki yondashuv, ko'pincha, bir-biriga zid, hatto raqobatdosh tushunchalar sifatida talqin qilinadi: formativ baholash “o'rganish uchun baholash” (assessment for learning), summativ baholash esa “o'rganilganni baholash” (assessment of learning) sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Biroq so'nggi ilmiy tadqiqotlar – bu ikki tushunchani mutlaqo qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki yagona baholash tizimining ichki bog'liq

bo'lgan ikki funksional qutbi sifatida ko'rish zarurligini asoslamoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shunda ko'rinadiki, ko'plab amaliyotchi pedagoglar va hatto ta'lim siyosati ishlab chiquvchilar formativ va summativ baholashni bir-biridan mutlaqo ajratilgan, hatto qarama-qarshi tushunchalar sifatida qabul qiladilar, bu esa amaliyotda baholash tizimining bir tomonlama (odatda faqat summativ yo'nalishda) rivojlanishiga olib keladi. Bunday holat, o'z navbatida, o'quv jarayonining rivojlantiruvchi salohiyatini pasaytiradi va baholashni faqat nazorat vositasiga aylantirib qo'yadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – formativ va summativ baholash tushunchalarining nazariy-metodologik mohiyatini chuqur qiyosiy tahlil qilish, ularning tarixiy kelib chiqishi, asosiy farqlovchi mezonlari hamda o'zaro bog'liqlik shakllarini ilmiy jihatdan asoslashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) formativ va summativ baholash tushunchalarining tarixiy-nazariy kelib chiqishini tahlil qilish; 2) ikki yondashuvning asosiy farqlovchi mezonlarini tizimlashtirish; 3) ularning o'zaro ziddiyati va integratsiyasi bo'yicha zamonaviy ilmiy munozaralarni yoritish; 4) amaliyotda ikki yondashuvni uyg'unlashtirish modellarini tahlil qilish.

**Formativ va summativ baholash tushunchalarining tarixiy-nazariy kelib chiqishi.** “Formativ” va “summativ” baholash atamalari birinchi marta amerikalik pedagog-metodolog



M.Skriven tomonidan 1967-yilda o'quv dasturlarini baholash nazariyasi doirasida ilmiy muomalaga kiritilgan. Skriven formativ baholashni "davom etayotgan faoliyatni takomillashtirish" vositasi, summativ baholashni esa "yakunlangan mahsulot yoki natijani baholash" vositasi sifatida farqlagan. Muhimi shundaki, Skrivenning o'zi bu ikki tushunchani bir-biriga qarama-qarshi emas, balki baholashning ikki turli funksiyasi sifatida ko'rgan ya'ni, uning fikricha, deyarli har qanday baholash instrumenti nazariy jihatdan ham summativ, ham formativ funksiyani bajarish salohiyatiga ega, biroq faqat ba'zilar amalda formativ vazifani samarali bajaradi [7].

Keyinchalik B.Blum va uning hamkasblari Skrivenning g'oyasini ta'lim baholash nazariyasiga moslashtirib, formativ baholashni o'quv jarayoniga bevosita integratsiya qilishning amaliy modellarini ishlab chiqdilar. 1990-yillarning oxiri va 2000-yillar boshida P.Blek va D.Uilyam tomonidan o'tkazilgan 250 dan ortiq tadqiqotni umumlashtiruvchi fundamental tahlil formativ baholash nazariyasini zamonaviy pedagogikaning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Ularning tadqiqotlari formativ baholashning o'quvchi o'zlashtirishiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab, uni "baholash orqali o'qitish" (assessment for learning) konsepsiyasining nazariy poydevoriga aylantirdi [2].

D.Uilyam va P.Blek tomonidan o'tkazilgan yana bir muhim tadqiqotda formativ va summativ baholash funksiyalarini bir-biridan farqlash mezonlari ilmiy jihatdan aniqlashtirilib, ikkala funksiya bir xil baholash instrumenti asosida ham amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatilgan [12].

Bu xulosa keyinchalik V.Harlen va M.Jeyms tomonidan yanada rivojlantirilib, formativ va summativ baholashning talablari (ishonchlilik, mezon bazasi, e'tibor markazi) bir-biridan tub-

dan farq qilishi, shu sababli ularni sodda tarzda bir-biriga "yig'indi" qilib bo'lmazligi asoslab berilgan [5].

**Formativ va summativ baholashning asosiy farqlovchi mezonlari.** Formativ va summativ baholash o'rtasidagi farqlarni tizimli tushunish uchun ularni bir nechta asosiy mezon bo'yicha qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Birinchi mezon – **maqsad:** formativ baholashning asosiy maqsadi o'quv jarayonini real vaqt rejimida yo'naltirish va tuzatishdan iborat bo'lsa, summativ baholash o'quv natijasini rasman qayd etish va sertifikatlashga xizmat qiladi. Ikkinchi mezon – **vaqt:** formativ baholash o'quv jarayoni davomida uzluksiz va tez-tez amalga oshirilsa, summativ baholash odatda o'quv davri yakunida, nisbatan kamroq chastotada o'tkaziladi. Uchinchi mezon – **xavf darajasi** (stakes): formativ baholash odatda past xavfli (low-stakes) bo'lib, o'quvchi xatosi jazolanmaydi, aksincha o'rganish imkoniyati sifatida qaraladi; summativ baholash esa yuqori xavfli (high-stakes) bo'lib, natija o'quvchining keyingi ta'lim yoki kasbiy yo'liga bevosita ta'sir qiladi. To'rtinchi mezon – **teskari aloqa:** D.Xetti va H.Timperli tomonidan o'tkazilgan 800 dan ortiq meta-tahlilga asoslangan tadqiqotda ko'rsatilishicha, formativ baholashda teskari aloqa lahzali, konkret va vazifaga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchiga keyingi qadamni aniq ko'rsatadi; summativ baholashda esa teskari aloqa odatda kech beriladi yoki umuman berilmaydi, chunki uning asosiy vazifasi rivojlantirish emas, balki qayd etishdir [6]. Beshinchi mezon – **o'quvchi roli:** formativ baholashda o'quvchi faol ishtirokchi, o'z-o'zini va tengdoshlarini baholashga jalb etilgan subyekt sifatida qatnashadi, summativ baholashda esa ko'pincha passiv, faqat baho oluvchi rolida qoladi.

Quyidagi jadvalda ushbu besh asosiy mezon bo'yicha formativ va summativ baholashning qiyosiy tavsifi keltirilgan (1-jadval):

**Formativ va summativ baholashning qiyosiy tahlili**

| Mezon         | Formativ baholash                         | Summativ baholash                             |
|---------------|-------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| Maqsad        | O'quv jarayonini yo'naltirish va tuzatish | O'quv natijasini qayd etish va sertifikatlash |
| Vaqt          | Uzluksiz, o'quv jarayoni davomida         | Yakuniy – davr, kurs yoki chorak oxirida      |
| Xavf darajasi | Past (low-stakes)                         | Yuqori (high-stakes)                          |
| Teskari aloqa | Lahzali, konkret, vazifaga yo'naltirilgan | Kech yoki umuman berilmaydi                   |
| O'quvchi roli | Faol ishtirokchi, o'z-o'zini baholaydi    | Ko'pincha passiv, faqat bahoni qabul qiladi   |

**Formativ va summativ baholash o'rtasidagi ziddiyat va nazariy integratsiya masalasi.** Formativ va summativ baholashni sodda tarzda ikki qarama-qarshi qutb sifatida taqdim etish zamonaviy baholash nazariyasida jiddiy tanqidga uchramoqda. M. Taras o'zining ta'sirchan nazariy maqolasida formativ baholashning summativ baholashdan mustaqil, alohida hodisa emasligini, aksincha “formativ baholash – summativ baholash ustiga qo'shilgan, o'quvchi tomonidan foydalaniladigan teskari aloqa” ekanligini asoslaydi. Uning fikricha, har qanday formativ baholash jarayoni avvalo qandaydir sifat haqida hukm (ya'ni, summativ komponent) chiqarishdan boshlanadi, farq faqat shu hukmning keyin qanday ishlatilishida o'quvchi rivojlanishi uchunmi yoki faqat qayd etish uchunmi namoyon bo'ladi [9].

R.Bennett o'zining tanqidiy sharhida formativ baholash tushunchasining hozirgi holatida “yetarlicha aniq belgilanmagan artefaktlar va amaliyotlar to'plami” ekanligini ta'kidlab, uning samaradorligi haqidagi umumlashtirilgan da'volarga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini ko'rsatadi. Bennetning fikricha, formativ baholashning ta'siri fan sohasi xususiyatlarini, o'lchov tamoyillarini va o'qituvchining metodik tayyorgarligini hisobga olmasdan, umumiy va universal deb talqin qilinmasligi kerak. Bu

tanqidiy pozitsiya formativ va summativ baholashni oddiy “yaxshi-yomon” dixotomiyasiga tushirib qo'ymaslik, balki ularning har birini o'z kontekstida, ilmiy asoslangan tarzda qo'llash zarurligini ko'rsatadi [1].

V.Harlen va M.Jeyms tomonidan taklif etilgan yana bir muhim nazariy pozitsiyaga ko'ra, formativ va summativ baholashning talablari ishonchlilik (reliability), baholash mezonlari bazasi va e'tibor markazi bir-biridan tubdan farq qiladi, shu sababli oddiy formativ baholash natijalarini yig'ib, ulardan summativ xulosa chiqarish metodologik jihatdan asossizdir [5]. Bu xulosa amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi: ko'plab ta'lim tizimlarida (jumladan, O'zbekistonda ham) formativ baholash ballari mexanik ravishda yakuniy bahoga qo'shib yuboriladi, bu esa Harlen va Jeyms nuqtai nazaridan ikkala baholash turining o'ziga xos funksiyasini buzadi.

**Amaliyotda integratsiya modellari va istiqbollari.** Formativ va summativ baholashni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish o'rniga, ularni izchil uyg'unlashtirish g'oyasi so'nggi yillarda ustuvor nazariy yo'nalishga aylandi. D.Boud tomonidan taklif etilgan “barqaror baholash” (sustainable assessment) konsepsiyasi bu borada alohida ahamiyatga ega: unga ko'ra, baholashning maqsadi nafaqat joriy o'quv davri

natijasini qayd etish, balki o'quvchida butun umr davomida o'z bilimni mustaqil baholay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Boudning fikricha, formativ va summativ baholash – bir-biriga zid emas, balki o'quvchining “baholovchi mulohaza” (evaluative judgement) qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona uzluksiz jarayonning ikki bosqichidir [4].

D.Uilyam o'zining “Embedded Formative Assessment” (Integratsiyalashgan formativ baholash) konsepsiyasida formativ baholashni alohida, qo'shimcha faoliyat sifatida emas, balki kundalik o'qitish jarayonining ajralmas qismi sifatida loyihalashtirish zarurligini asoslaydi. Uning modeliga ko'ra, o'qituvchi formativ baholashni besh asosiy strategiya orqali dars jarayoniga singdirishi mumkin: o'quv maqsadlari va muvaffaqiyat mezonlarini aniq belgilash, samarali sinf muhokamalarini tashkil etish, konstruktiv teskari aloqa berish, o'quvchilarni bir-birlari uchun o'quv resursi sifatida faollashtirish hamda o'quvchilarni o'z ta'limining egasi sifatida faollashtirish [11].

Nazariy jihatdan, formativ baholashning psixologik asosi L.Vygotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” (ZPD) nazariyasida ham topiladi. Vygotskiyga ko'ra, o'quvchi mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar yoki kuchliroq tengdoshi yordamida uddalay oladigan vazifalar zonasi mavjud bo'lib, formativ baholash aynan shu zonada o'quvchiga yo'naltiruvchi yordam (scaffolding) berish orqali rivojlantirishni ta'minlaydi. Summativ baholash esa, o'z navbatida, ushbu rivojlanish jarayonining muayyan bosqichidagi natijasini qayd etib, keyingi rivojlanish zonasini belgilash uchun boshlang'ich nuqta vazifasini o'taydi – bu esa ikki yondashuvning nazariy jihatdan bir-birini to'ldiruvchi, uzviy bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi [10].

D.Sadlarning baholash nazariyasi ham ushbu integratsiya g'oyasini asoslashda muhim

rol o'ynaydi: uning fikricha, samarali baholash – u formativ bo'ladimi yoki summativ – o'quvchi maqsadni bilishi, joriy holatini anglashi va bo'shliqni to'ldirish yo'lini ko'rishi kerak bo'lgan yagona jarayonning turli ko'rinishlaridir. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ta'lim tizimlari uchun eng maqsadga muvofiq yondashuv – formativ va summativ baholashni ikki alohida, raqobatdosh tizim sifatida emas, balki yagona baholash arxitekturasining o'zaro to'ldiruvchi ikki komponenti sifatida loyihalashtirishdir. Bunday integratsiyalashgan yondashuv, bir tomondan, o'quv jarayonining rivojlantiruvchi salohiyatini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan, ta'lim tizimining hisobdorlik va sertifikatlash vazifalarini ham ta'minlaydi [7].

O'tkazilgan qiyosiy-nazariy tahlil formativ va summativ baholashning zamonaviy pedagogika fanidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatini ochib berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu ikki tushunchani oddiy qarama-qarshi kategoriyalar sifatida talqin qilish metodologik jihatdan asossiz bo'lib, ular aslida yagona baholash tizimining o'zaro bog'liq ikki funksional qutbini tashkil etadi. M.Skrivendan boshlab P.Blek, D.Uilyam, D.Sadler, V.Harlen va M.Taras kabi olimlarning nazariy merosi shuni tasdiqlaydiki, formativ baholashning summativ baholashdan farqi uning tabiatida emas, balki natijaning qanday ishlatilishida o'quvchi rivojlanishi uchunmi yoki faqat rasmiy qayd etish uchunmi namoyon bo'ladi.

Tahlil davomida aniqlangan besh asosiy farqlovchi mezon – maqsad, vaqt, xavf darajasi, teskari aloqa xarakteri va o'quvchi roli amaliyotchi pedagoglarga ikki yondashuvni ongli va maqsadli tarzda qo'llash uchun aniq mezonlar tizimini taqdim etadi. Shu bilan birga, D.Boud va D.Uilyam tomonidan taklif etilgan integratsiya modellari formativ va summativ baholashni bir-biriga qarshi qo'yish o'rniga, ularni yagona pedagogik arxitektura doirasida uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Amaliy nuqtai nazardan, ushbu xulosalar ta'lim muassasalari va o'qituvchilar uchun muhim yo'l-yo'riq beradi: baholash tizimini loyihalashtirishda formativ va summativ komponentlarni mexanik ravishda aralashtirib yubormasdan, balki har birining o'ziga xos funksiyasini (rivojlantiruvchi va sertifikatlov-

chi) alohida hurmat qilgan holda, ularni izchil va ilmiy asoslangan tarzda bir-biriga bog'lash zarur. Kelgusi tadqiqotlar ushbu nazariy modelni turli ta'lim bosqichlari (maktabgacha, umumiy o'rta, oliy ta'lim) va turli fan sohalarida amaliy sinovdan o'tkazishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bennett, R. E. Formative assessment: A critical review. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 2011, 5–25.
2. Black, P., & Wiliam, D. Inside the black box: Raising standards through classroom assessment. *Phi Delta Kappan*, 1998, 139–148.
3. Bloom B.S. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longman, 1956, 34–98.
4. Boud, D. Sustainable assessment: Rethinking assessment for the learning society. *Studies in Continuing Education*, 2000, 151–167.
5. Harlen, W., & James, M. Assessment and learning: Differences and relationships between formative and summative assessment. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 1997, 365–379.
6. Hattie, J., & Timperley, H. The power of feedback. *Review of Educational Research*, 2007, 81–112.
7. Sadler, D. R. Formative assessment and the design of instructional systems. *Instructional Science*, 1989, 119–144.
8. Scriven, M. The methodology of evaluation. In R. W. Tyler, R. M. Gagné, & M. Scriven (Eds.), *Perspectives of curriculum evaluation* (AERA Monograph Series on Curriculum Evaluation, No. 1). Chicago: Rand McNally, 1967, 39–83.
9. Taras, M. Assessment – summative and formative – some theoretical reflections. *British Journal of Educational Studies*, 2005, 466–478.
10. Vygotsky, L. S. *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978, 56–87.
11. Wiliam, D. *Embedded formative assessment*. Bloomington, IN: Solution Tree Press, 2011, 76–90.
12. Wiliam, D., & Black, P. Meanings and consequences: A basis for distinguishing formative and summative functions of assessment? *British Educational Research Journal*, 1996, 537–548.

# ZAMONAVIY DARSLIK MATNLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

*Abdullayeva Muattaroy Xaliljon qizi,  
Quva tumani 60-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Tel: +998 (91) 129-59-19  
E-mail: h6223513@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy ona tili ta'limida darslik matnlarining o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda matn bilan ishlashning nazariy asoslari yoritilib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar tavsiflanadi. Xususan, matn asosida tashkil etilgan interfaol metodlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, muloqot madaniyati hamda ijodiy yondashuvni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, darslik matnlari asosida ishlab chiqilgan mualliflik metodlarining amaliy qo'llanilishi va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni misollar asosida asoslanadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan matn bilan ishlash faoliyati o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, kommunikativ faolligini oshirish hamda ona tili darslari samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy kompetensiya, darslik matnlari, innovatsion yondashuvlar, ona tili ta'limi, matn bilan ishlash, interfaol metodlar, og'zaki nutq, yozma nutq, kommunikativ kompetensiya, ijodiy fikrlash.

**Инновационные подходы к развитию  
речевой компетенции учащихся на основе  
современных учебных текстов**

**Абдуллаева Муаттарой Халилжон кизи,**  
Учитель родного языка и литературы средней  
общеобразовательной школы № 60 Кувинского  
района Ферганской области

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются дидактические возможности современных учебных текстов в развитии речевой компетенции учащихся на уроках родного языка. Освещаются теоретические основы работы с текстом, а также анализируются инновационные подходы, направленные на совершенствование устной и письменной речи обучающихся. Особое внимание уделено интерактивным методам, основанным на работе с учебными текстами, способствующим развитию самостоятельного мышления, логического анализа, коммуникативной культуры и творческих способностей учащихся. Кроме того, представлены авторские методические подходы, их практическое применение и влияние на повышение эффективности образовательного процесса.



Результаты исследования свидетельствуют о том, что организация работы с текстом на основе современных педагогических подходов способствует развитию речевой компетенции, повышению коммуникативной активности учащихся и совершенствованию качества преподавания родного языка.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, учебные тексты, инновационные подходы, обучение родному языку, работа с текстом, интерактивные методы, устная речь, письменная речь, коммуникативная компетенция, творческое мышление.

### **Innovative approaches to developing students' communicative competence through modern textbook texts**

**Abdullayeva Muattaroy Khaliljon qizi,**

*Teacher of Native Language and Literature,  
Secondary School No. 60, Quva District*

**Abstract:** *This article examines the didactic potential of modern textbook texts in developing*

*students' communicative competence in native language education. The study discusses the theoretical foundations of text-based instruction and describes innovative approaches aimed at improving students' oral and written communication skills. Particular attention is paid to interactive methods based on textbook texts that foster independent thinking, logical reasoning, communication culture, and creative abilities. In addition, the article presents author-developed instructional methods, their practical application, and their contribution to enhancing the effectiveness of the teaching and learning process. The findings indicate that text-based learning activities organized in accordance with modern pedagogical approaches play a significant role in developing students' communicative competence, increasing their communicative engagement, and improving the overall quality of native language instruction.*

**Keywords:** *communicative competence, textbook texts, innovative approaches, native language education, text-based learning, interactive methods, oral communication, written communication, communicative skills, creative thinking.*

**Z**amonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni izchil joriy etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati hamda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. [6:2; 7:4] Zamonaviy ta'lim konsepsiyasida o'quvchining faqat grammatik bilimlarni egallashi emas, balki ularni turli kommunikativ vaziyatlarda amaliy qo'llay olishi, matnni tahlil qilishi, mustaqil xulosa chiqarishi va o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda asosli bayon eta olishi muhim natija sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida darslik matnlarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda matn bilan ishlashning innovatsion yondashuvlarini amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-metodik masalalardan biri hisoblanadi.

Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning til me'yorlarini egallashini ta'minlash bilan bir qatorda ularda nutqiy madaniyatni, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni, matn bilan ishlash ko'nikmalarini hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdan iborat. Darsliklarda berilgan badiiy, ilmiy va publistik matnlar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, matn mazmunini anglash, tahlil qilish, baholash va o'z munosabatini asoslab ifodalash uchun keng imkoniyat yaratadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, matn bilan ishlash jarayoni ko'pincha matnni o'qish va qayta hikoya qilish bilan cheklanib, uning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. [4:4]

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar matn bilan ishlashni o'quvchining faol bilish

jarayoniga aylantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvlarda o'quvchi matnni tahlil qiladi, savollar yaratadi, voqealar rivojini davom ettiradi, dialog tuzadi, matnni transformatsiya qiladi hamda yangi mazmun yaratadi. Natijada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, mantiqiy fikrlashi, ijodkorligi va kommunikativ faolligi izchil rivojlanadi.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** zamonaviy darslik matnlarining o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda matn bilan ishlashga asoslangan innovatsion yondashuvlarning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy **yangiligi** darslik matnlari asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mualliflik interfaol metodlarining yagona metodik tizim sifatida tavsiya etilgani hamda ularni ona tili darslari amaliyotida qo'llash mexanizmlarining ishlab chiqilgani bilan belgilanadi. Xususan, "Matnni davom ettir", "Savol generatori", "Matn asosida dialog yaratish" va boshqa innovatsion metodlarning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritiladi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** shundaki, maqolada tavsiya etilgan metodik yondashuvlar ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar hamda pedagogika yo'nalishi talabalari uchun darslik matnlari asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni taqdim etadi. Mazkur metodlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, matn bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Zamonaviy ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslari.** Nutqiy kompetensiya zamonaviy ta'lim tizimida shakllantirilishi zarur bo'lgan

tayanch kompetensiyalardan biri hisoblanadi. U o'quvchining til birliklarini bilishi bilan bir qatorda, ulardan turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq, aniq va samarali foydalana olish qobiliyatini ham ifodalaydi. Nutqiy kompetensiyaning rivojlanganligi o'quvchining fikrini og'zaki va yozma shaklda ravon bayon etishi, suhbatdoshni tushunishi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi hamda matn bilan mustaqil ishlay olishi orqali namoyon bo'ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ona tili ta'limida grammatik bilimlarni o'zlashtirish yakuniy maqsad sifatida emas, balki o'quvchining kommunikativ faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli dars jarayonida o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qib anglash, og'zaki muloqot qilish va yozma fikr bayon etish ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning til imkoniyatlaridan amaliy faoliyatda ongli va samarali foydalanishiga xizmat qiladi. [8:21]

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda matn bilan ishlash alohida o'rin tutadi. Matn o'quvchilar uchun nafaqat til birliklarini o'rganish manbai, balki fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'z munosabatini ifodalash vositasi ham hisoblanadi. Darsliklarda berilgan badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar turli nutqiy vaziyatlarni yaratish imkonini beradi. Matn mazmunini tahlil qilish, asosiy g'oyani aniqlash, voqealarni qiyoslash, muallif pozitsiyasini baholash va matn asosida yangi g'oyalar yaratish kabi faoliyatlar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini izchil rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda matn bilan ishlash jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday metodlar o'quvchini tayyor bilimni o'zlashtiruvchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Matnni davom ettirish, savollar yaratish, dialog tuzish, matnni transformat-

siya qilish va ijodiy topshiriqlarni bajarish kabi faoliyatlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, ularning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Shunday qilib, zamonaviy ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish faqat til qoidalarini o'rgatish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarni matn bilan mustaqil ishlashga, o'z fikrini asosli bayon etishga hamda samarali muloqot olib borishga tayyorlashni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlarga erishishda darslik matnlarining didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

**Zamonaviy darslik matnlarining didaktik imkoniyatlari.** Zamonaviy ona tili darsliklari kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilib, o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish hamda ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik materiallar bilan boyitilgan. Darsliklarda berilgan matnlar nafaqat til hodisalarini o'rganish vositasi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilishi, ijodiy yondashuvi va kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim pedagogik resurs hisoblanadi.

Matn o'quvchining til birliklarini tabiiy nutqiy vaziyatda kuzatishi, ularning qo'llanish xususiyatlarini anglab yetishi hamda fikrni mazmunli va izchil ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Turli janr va uslubdagi matnlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar axborotni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va baholash kabi intellektual amallarni bajaradilar. Bu esa ularning nafaqat nutqiy, balki bilish kompetensiyalarining ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ona tili darsliklarida uchraydigan badiiy, ilmiy-ommabop, publitsistik va axborot matnlari mazmuni hamda tuzilishiga ko'ra o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos

tanlangan. Bunday matnlar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish, matn mazmunini anglash va unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarni aks ettiruvchi matnlar o'quvchilarni fikrlashga, bahs-munozarada ishtirok etishga va o'z nuqtayi nazarini asoslashga undaydi.

Ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, matnning didaktik imkoniyatlari undan qanday metodik yondashuv asosida foydalanilishiga bevosita bog'liq. Agar matn faqat o'qish va mazmunini so'zlab berish bilan cheklansa, uning rivojlantiruvchi salohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi. Aksincha, matn bilan ishlash jarayoni interfaol metodlar, muammoli topshiriqlar, ijodiy mashqlar va hamkorlikdagi faoliyat bilan uyg'unlashtirilsa, o'quvchilar matnni chuqurroq anglaydi, o'z fikrini erkin ifodalaydi hamda yangi bilimlarni mustaqil ravishda egalaydi. [2: 5; 3: 6]

Shu jihatdan zamonaviy darslik matnlari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib, ularni ta'lim jarayonida innovatsion metodlar asosida qo'llash pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Matn bilan ishlashning interfaol yondashuvlari o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ularning og'zaki va yozma nutqini tabiiy hamda izchil rivojlantirish imkonini beradi. (1-jadval)

**Darslik matnlari asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari.** Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda matn bilan ishlash o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli ona tili darslarida darslik matnlaridan foydalanishda an'anaviy o'qish va mazmunni qayta hikoya qilish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchini faol muloqot, tahlil va ijodiy faoliyatga jalb etuvchi

### Zamonaviy darslik matnlarining didaktik imkoniyatlari

| Darslik matnining didaktik imkoniyati | Rivojlantiriladigan kompetensiya           | Kutilayotgan natija                        |
|---------------------------------------|--------------------------------------------|--------------------------------------------|
| <b>Matn mazmunini tahlil qilish</b>   | Nutqiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi | Asosiy g'oyani aniqlaydi, xulosa chiqaradi |
| <b>Savollar tuzish</b>                | Kommunikativ kompetensiya                  | Muloqot madaniyati rivojlanadi             |
| <b>Dialog yaratish</b>                | Og'zaki nutq kompetensiyasi                | Erkin fikr almashadi                       |
| <b>Matnni davom ettirish</b>          | Ijodiy fikrlash kompetensiyasi             | Yangi g'oyalar yaratadi                    |
| <b>Matnni transformatsiya qilish</b>  | Yozma nutq kompetensiyasi                  | Mustaqil matn yaratadi                     |
| <b>Bahs-munozara</b>                  | Ijtimoiy kompetensiya                      | Fikrini asoslab himoya qiladi              |

innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn asosida tashkil etilgan interfaol faoliyatlar o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, o'z fikrini asosli bayon etish hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot doirasida darslik matnlari asosida qo'llash mumkin bo'lgan bir qator mualliflik metodlari taklif etildi. Ushbu metodlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. [9: 112]

Taklif etilgan metodlar o'zining didaktik maqsadi va tashkil etish xususiyatiga ko'ra bir-birini to'ldiradi. Jumladan, **“Matnni davom ettir”** metodi o'quvchilarning tasavvuri va bog'lanishli nutqini rivojlantirishga xizmat qilsa, **“Savol generatori”** metodi matnni chuqur anglash, tahliliy fikrlash va mustaqil savol tuzish ko'nikmalarini shakllantiradi. **“Matn asosida dialog yaratish”** metodi esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, fikr almashish madaniyatini shakllantirish hamda o'quvchilarning og'zaki nutqini faollashtirish imkonini beradi.

Mazkur metodlarning umumiy xususiyati shundaki, ular o'quvchini tayyor bilimni qa-

bul qiluvchi emas, balki matnni tahlil qiluvchi, baholovchi va yangi mazmun yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Natijada o'quvchilarda nutqiy kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari – matnni anglash, mantiqiy fikrlash, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish hamda samarali muloqot olib borish ko'nikmalari kompleks tarzda shakllanadi.

#### “Matnni davom ettir” metodining pedagogik imkoniyatlari

Ona tili ta'limida matn bilan ishlash o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq amaliyotda matn ustida ishlash ko'pincha matnni o'qish, mazmunini qayta hikoya qilish yoki savollarga javob berish bilan cheklanib qolmoqda. Bunday yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va mustaqil nutqini rivojlantirish imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmaydi. Shu sababli matnni faol o'zlashtirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan foydalanish muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Matnni davom ettir” metodi o'quvchilarning matn mazmunini chuqur anglash, voqealar rivojini mantiqan davom ettirish hamda o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda erkin ifodalash ko'nikmala-



rini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv hisoblanadi. [8: 143] Mazkur metodda o'quvchi tayyor matnni qabul qiluvchi emas, balki uning mazmunini tahlil qiluvchi, yangi g'oyalar yaratuvchi va matnni mustaqil davom ettiruvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi.

Metodning didaktik maqsadi o'quvchilarda bog'lanishli nutqni rivojlantirish, tasavvur doirasini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashni faollashtirish hamda matn bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, metod o'quvchilarning voqealarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash va o'z nuqtayi nazarini asosli bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodni qo'llash jarayonida o'qituvchi dars mavzusiga mos badiiy yoki ilmiy matnni tanlaydi va o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qiladi. Matnning eng qiziqarli yoki muammoli qismida o'qish to'xtatiladi hamda o'quvchilarga voqealar rivojini mustaqil davom ettirish

vazifasi beriladi. Topshiriq og'zaki yoki yozma shaklda bajarilishi mumkin. Yakuniy bosqichda o'quvchilar tomonidan yaratilgan matnlar muhokama qilinadi, turli yechimlar qiyoslanadi va eng mantiqiy hamda ijodiy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Masalan, 11-sinf ona tili darsligida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi suhbat aks etgan matn o'qilgandan so'ng voqea eng muhim nuqtada to'xtatiladi. O'quvchilarga: *“Agar siz Alisher Navoiy o'rnida bo'lganingizda, Husayn Boyqaroning fikriga qanday javob bergan bo'lardingiz?”* mazmunidagi topshiriq beriladi. Ushbu topshiriq o'quvchilarni matn mazmunini chuqur tahlil qilishga, tarixiy shaxslarning fikrlash uslubini anglashga hamda o'z munosabatini mantiqiy dalillar asosida bayon etishga undaydi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur metoddan muntazam foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, bog'lanishli matn tuzish ko'nikmalarini rivoj-



1-rasm. “Matnni davom ettir” metodini qo'llash bosqichlari



lantiradi, lugʻat boyligini kengaytiradi hamda ijodiy fikrlashini ragʻbatlantiradi. Eng muhimi, oʻquvchilar matnni shunchaki oʻqib chiqish bilan cheklanmay, uning mazmunini chuqur anglaydi, voqealarni tahlil qiladi va yangi mazmun yaratishga intiladi. Natijada dars jarayoni oʻquvchi markazli, interfaol va samarali pedagogik faoliyatga aylanadi.

### **“Savol generatori” metodining pedagogik imkoniyatlari**

Matn bilan ishlash jarayonida oʻquvchilarning faolligini oshirish va matn mazmunini chuqur anglashga erishish samarali savollarni shakllantirish bilan chambarchas bogʻliq. Taʼlim amaliyotida savollarni, odatda, oʻqituvchi tayyor holda beradi, oʻquvchilar esa ularga javob qaytarish bilan cheklanadi. Bunday yondashuv oʻquvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy koʻnikmalarini toʻliq rivojlantirish imkonini bermaydi. Shu bois oʻquvchilarning oʻzlari savol tuzish jarayoniga faol jalb etilishi muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Savol generatori” metodi oʻquvchilarning matn mazmunini chuqur tahlil qilishi, muhim gʻoyalarni

ajrata olishi hamda mustaqil ravishda mazmunli savollar yaratish koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. [9: 165] Ushbu metod oʻquvchini tayyor javobni izlovchi emas, balki savol qoʻyish orqali bilimni mustaqil kashf etuvchi faol ishtirokchiga aylantiradi.

Metodning didaktik maqsadi oʻquvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, matnni anglash darajasini chuqurlashtirish, muloqot madaniyatini shakllantirish hamda nutqiy kompetensiyani takomillashtirishdan iborat. Savol tuzish jarayonida oʻquvchilar matnning asosiy va ikkinchi darajali gʻoyalarni ajratadi, sabab-oqibat bogʻliqligini aniqlaydi, muallif pozitsiyasini baholaydi hamda oʻz munosabatini asoslashga intiladi.

Metodni qoʻllash jarayonida oʻquvchilar avvalo matnni diqqat bilan oʻqiydilar va uning mazmunini tahlil qiladilar. Shundan soʻng ular matn yuzasidan turli darajadagi savollarni ishlab chiqadilar. Savollar faktik, tahliliy, muammoli va ijodiy xarakterga ega boʻlishi mumkin. Keyingi bosqichda oʻquvchilar oʻzaro savollar almashib, ularga javob beradilar, javoblarning toʻliqligi va mantiqiyiligini baholaydilar ham-

*2-jadval*

### **“Savol generatori” metodini qoʻllash algoritmi**

| Bosqich                                 | Oʻqituvchi faoliyati                                                                | Oʻquvchi faoliyati                                                                          |
|-----------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Matnni tanishtirish</b>              | Dars mavzusiga mos matnni tanlaydi va oʻquvchilarga taqdim etadi.                   | Matnni diqqat bilan oʻqiydi va mazmuni bilan tanishadi.                                     |
| <b>Matnni tahlil qilish</b>             | Yoʻnaltiruvchi savollar orqali matnning asosiy gʻoyasini aniqlashga yordam beradi.  | Matn mazmunini tahlil qiladi, asosiy va ikkinchi darajali gʻoyalarni ajratadi.              |
| <b>Savollar yaratish</b>                | Faktik, tahliliy va ijodiy savollar tuzish boʻyicha yoʻriqnoma beradi.              | Matn asosida turli darajadagi savollarni mustaqil ishlab chiqadi.                           |
| <b>Savollar almashinuvi va muhokama</b> | Guruhlar oʻrtasida savollar almashinuvini tashkil etadi va muhokamani boshqaradi.   | Boshqa guruhlarining savollariga javob beradi, fikr bildiradi va munozarada ishtirok etadi. |
| <b>Baholash va refleksiya</b>           | Eng mazmunli savollarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va fikr-mulohaza bildiradi. | Oʻz faoliyatini tahlil qiladi, yangi bilim va xulosalarini ifodalaydi.                      |

da eng mazmunli savollar yuzasidan umumiy muhokama olib boradilar.

Masalan, 8-sinf ona tili darsligidagi ekologiya mavzusiga oid matn o'rganilgach, o'quvchilarga matn asosida kamida beshta savol tuzish topshirig'i beriladi. Bunda savollarning turli darajada bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, **“Matnda qanday ekologik muammo haqida so'z yuritilgan?”** kabi faktik savollar bilan bir qatorda, **“Agar siz ushbu muammoni hal etish imkoniga ega bo'lsangiz, qanday takliflarni ilgari surgan bo'lardingiz?”** kabi tahliliy va ijodiy savollar ham tuziladi. Mazkur faoliyat o'quvchilarning matnni chuqurroq anglashiga hamda o'z fikrini asosli bayon etishiga xizmat qiladi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, “Savol generatori” metodidan muntazam foydalanish o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi, tanqidiy fikrlashini faollashtiradi, savol berish va savolga javob qaytarish madaniyatini shakllantiradi. Natijada o'quvchilar matnni yuzaki emas, balki mazmunan tahlil qilishga, dalillarni izlashga va o'z fikrini mantiqiy asoslashga odatlanadilar. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, dars jarayonidagi faolligini va mustaqil ta'lim olish motivatsiyasini ham oshiradi.

### **“Matn asosida dialog yaratish” metodining pedagogik imkoniyatlari**

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muloqotga asoslangan ta'lim muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, matn asosida tashkil etilgan dialogik faoliyat o'quvchilarning og'zaki nutqini faollashtirish, fikrini erkin va asosli ifodalash, suhbatdoshning nuqtayi nazarini tinglash hamda muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. [9: 174] Shu bois ona tili darslarida matn mazmunini dialog orqali qayta talqin qilishga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muallif tomonidan taklif etilgan “Matn asosida dialog yaratish” metodi o'quvchilarning matn mazmunini chuqur anglash, qahramonlar xarakterini tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash hamda muloqot jarayonida fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Ushbu metodda o'quvchilar tayyor dialogni o'qib chiqish bilan cheklanmay, matn mazmunidan kelib chiqib yangi dialog yaratadilar, qahramonlar o'rtasidagi munosabatni mustaqil talqin qiladilar va turli kommunikativ vaziyatlarni modelashtiradilar.

Metodning didaktik maqsadi o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish, matnni tahlil qilish ko'nikmalarini takomillashtirish hamda ijodiy va tanqidiy fikrlashni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur metod o'quvchilarning til vositalaridan kommunikativ vaziyatga mos ravishda foydalanish, fikrini dalillar bilan asoslash va suhbat davomida muloqot etikasiga rioya qilish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Metodni qo'llash jarayonida o'qituvchi avvalo dars mavzusiga mos matnni tanlaydi va o'quvchilar bilan birgalikda uning mazmunini tahlil qiladi. Keyingi bosqichda o'quvchilar juftlik yoki kichik guruhlariga bo'linib, matndagi qahramonlar, voqealar yoki muammoli vaziyatlar asosida dialog yaratadilar. Tayyorlangan dialoglar sinfda namoyish etiladi, o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, yaratilgan dialoglarning mazmuni, nutqiy ifodasi va mantiqiyligi yuzasidan muhokama olib boriladi. Yakuniy bosqichda eng muvaffaqiyatli dialoglar tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqariladi.

Masalan, 10-sinf ona tili darsligida berilgan ijtimoiy mavzudagi matn o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga matn qahramonlari o'rtasida bo'lib o'tishi mumkin bo'lgan dialogni yaratish topshirig'i beriladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, nutq uslubi va matnda ilgari surilgan g'oyadan kelib chiqib muloqotni

mustaqil tashkil etadilar. Ushbu faoliyat na-faqat matn mazmunini chuqurroq anglashga, balki o'z fikrini ravon, mantiqiy va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalashga ham xizmat qiladi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, "Matn asosida dialog yaratish" metodidan muntazam foydalanish o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi, og'zaki nutqini boyitadi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Eng muhimi, o'quvchilar matnni passiv o'quv material sifatida emas, balki real kommunikativ vaziyatlarni yaratishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida qabul qiladilar. Natijada ular o'z fikrini erkin bayon etish, boshqalarning fikrini tinglash va asosli munozara olib borish ko'nikmalarini egallaydilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy darslik matnlari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarga ega. Matn bilan ishlashni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish, mustaqil fikrlash hamda og'zaki va yozma nutqini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida tavsiya etilgan "Matnni davom ettir", "Savol generatori" va "Matn asosida dialog yaratish" metodlari o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi, ularning kommunikativ faolligi, ijodiy fikrlashi va muloqot madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi asoslandi.

Mazkur metodlarni ona tili darslarida tizimli qo'llash o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirish, fikrini erkin va mantiqiy bayon etish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda jamoada samarali hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu metodlar darslik matnlarining didaktik imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ta'lim jarayonini interfaol tashkil etish va kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga samarali tatbiq etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur metodlarni turli sinflar va fanlar kesimida amaliy sinovdan o'tkazish, ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tajriba-sinov ishlari orqali baholash hamda raqamli ta'lim vositalari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini o'rganish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. [4: 18; 9: 201]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU, 2006.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. *Ona tili. 10-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik*. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. *Ona tili. 11-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik*. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
4. Ona tili fanidan Milliy o'quv dasturi (5–11-sinflar). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
5. Ochilov M. va boshq. *Pedagogika*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmoni. *O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida*. – Toshkent, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-apreldagi 187-son qarori. *Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida*. – Toshkent, 2020.
8. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. *Ona tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Noshir, 2009.
9. Richards J. C. *Approaches and Methods in Language Teaching*. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
10. Tomlinson B. *Developing Materials for Language Teaching*. 2nd ed. – London: Bloomsbury Academic, 2013.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИЁМЫ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

*Турдиева Мадина Рахматовна,  
главный специалист отдела филологических наук  
Национального института педагогического  
мастерства имени А.Авлони  
E-mail: madinaturdiyevaa2898@gmail.com*

**Аннотация:** Статья посвящена методическим возможностям использования искусственного интеллекта для развития критического мышления учащихся на уроках литературы. Развитие критического мышления рассматривается как одна из основных задач литературного образования, осуществляемая в процессе анализа художественного текста, опираясь на правила рецептивной эстетики. В статье предлагается методическая модель, в которой искусственный интеллект используется не как источник готовых интерпретаций, а как инструмент организации проверочной, аналитической и исследовательской деятельности учащихся. Представленные методические приемы направлены на формирование навыков анализа художественного текста, критической оценки информации, медиаграмотности и самостоятельного чтения. Использование искусственного интеллекта в рамках предложенной модели способствует развитию критического мышления школьников, сохраняя при этом ведущую роль учителя в проектировании образовательного процесса.

**Ключевые слова:** критическое мышление, анализ художественного текста, цифровая образовательная среда, методика преподавания литературы, искусственный интеллект, медиаграмотность, фактчекинг.

**Adabiyot darslarida sun'iy intellektdan  
foydalanish: tanqidiy fikrlashni  
rivojlantirish usullari**

*Turdiyeva Madina Raxmatjon qizi,  
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy  
institutini filologiya bo'limi bosh mutaxassisi*

**Annotatsiya:** Maqola adabiyot darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun sun'iy intellektdan foydalanishning uslubiy imkoniyatlariga bag'ishlangan. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish retseptiv estetika qoidalariga tayan-gan holda badiiy matnni tahlil qilish jarayonida amalga oshiriladigan adabiy ta'limning asosiy va-zifalaridan biri sifatida qaraladi. Maqolada sun'iy intellektdan tayyor talqinlar manbai sifatida emas, balki o'quvchilarning tekshirish, tahliliy va tadqiqo-tchilik faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida foy-dalaniladigan uslubiy model taklif etilgan. Taqdim etilgan metodik usullar badiiy matnni tahlil qilish, axborotni tanqidiy baholash, mediasavodxonlik va mustaqil kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish-ga qaratilgan. Taklif etilgan model doirasida sun'iy intellektdan foydalanish ta'lim jarayonini loyiha-lashda o'qituvchining yetakchi rolini saqlab qolgan holda maktab o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit soʻzlar:** *tanqidiy fikrlash, badiiy matn tahlili, raqamli taʼlim muhiti, adabiyot oʻqitish metodikasi, sunʼiy intellekt, mediasavodxonlik, faktcheking.*

**Using artificial intelligence in literature lessons: methodological methods for developing critical thinking**

**Turdiyeva Madina Raxmatjon qizi,**  
*Chief Specialist of the Department of Philological Sciences of National Institute of Pedagogical Excellence named after A. Avloni*

**Abstract.** *The article is dedicated to the methodological possibilities of using artificial intelli-*

*gence to develop students' critical thinking in literature lessons. The development of critical thinking is considered one of the primary tasks of literary education, carried out through the analysis of literary text based on the rules of receptive aesthetics. The article proposes a methodological model in which artificial intelligence is used not as a source of ready-made interpretations, but as a tool for organizing students' verification, analytical, and research activities. The presented methodological techniques are aimed at developing skills in analyzing the literary text and critically evaluating the work.*

**Keywords:** *critical thinking, artistic text analysis, digital educational environment, literature teaching methodology, artificial intelligence, media literacy, fact-checking.*

В последнее время в образовательной повестке во всем мире актуален переход от традиционной ориентации школьного обучения на формирование знаний по предметам к созданию условий для развития современных компетенций XXI века. Одним из наиболее последовательных воплощений этой логики применительно к критическому мышлению стала модель “4К” (критическое мышление, коммуникация, кооперация, креативность), сформулированная Б. Триллингом и Ч. Фаделом в работе “21st Century Skills: Learning for Life in Our Times”. Критическое мышление в данной работе трактуется как умение работать с противоречивой и избыточной информацией, что прямо соотносит компетенцию с условиями современной информационной среды [8]. По мнению Д.Халперна, критическое мышление также включает в себя оценку самого мыслительного процесса – хода рассуждений, которые привели к выводам, или тех факторов, которые были учтены при принятии решения [6]. Данный процесс является неотъемлемой частью уроков литературы.

Урок литературы обладает особым дидактическим ресурсом для развития этой компетенции, так как художественный текст по самой своей природе не предполагает понимание без его тщательного анализа. В методике преподавания литературы разработка вопросов и заданий, ведущих ученика от первичного восприятия к аналитическому осмыслению произведения, рассматривается как центральная методическая задача: анализ художественного текста строится как последовательность операций, в которой читатель сначала формулирует вопрос к тексту, затем ищет опору для ответа в самом тексте и лишь затем соотносит частное наблюдение с целостной трактовкой произведения. Иными словами, критическое мышление на уроках литературы рассматривается не как общепредметный навык, а является рабочим механизмом самого литературоведческого анализа.

В методике преподавания литературы способность школьника формулировать вопросы к тексту традиционно рассматривается как показатель перехода от репро-



дуктивного восприятия к аналитическому. Анализ художественного произведения рассматривается как движение от целостного впечатления через вычленение элементов текста (сюжет, композиция, система персонажей, речевая организация) к синтезу – новому, уже опосредованному пониманию произведения. Существенно, что на каждом из этих этапов ученик действует не как пассивный получатель авторской интерпретации учителя, а как субъект, формулирующий и проверяющий собственную гипотезу о смысле текста. В условиях цифровой образовательной среды перед учителем стоит двойная задача: использовать технологии для поддержания интереса обучающихся к чтению и не допустить, чтобы ИИ подменял собой их самостоятельную мыслительную деятельность при работе с текстом. В ряду предпосылок, повлиявших на повышение популярности использования инструментов с ИИ в образовании, можно выделить глобальные процессы, связанные с пандемией COVID-19 [2]. Она оказала большое влияние на изменение привычных стандартов и методов образовательного процесса. Что именно представляет собой мыслительная деятельность в рамках уроков литературы и почему её нельзя делегировать ИИ без потерь, объясняет рецептивная эстетика – теория, оформившаяся в немецком литературоведении 1960–1970-х годов, согласно которому художественный текст содержит “пустые места” – это сигналы, которыми автор намеренно оставляет часть смысла незаданной, вынуждая читателя достраивать её самостоятельно [1]. Именно эта операция и есть чтение как мыслительный акт: не восприятие готового смысла, а его порождение читателем в ответ на структуру текста. Отсюда следует практический вывод для урока литературы: если незаданное в тексте запол-

няет не ученик, а генеративная модель, ученик не читает текст в том смысле, в каком чтение определено рецептивной эстетикой, – он знакомится с чужой (машинной) интерпретацией. Цифровая среда добавляет к традиционным источникам многозначности (историческая дистанция, индивидуальный читательский опыт, множественность литературоведческих школ) новый источник – сгенерированные ИИ тексты, изображения и интерпретации. Эти продукты формально заполняют пространство неопределённости текста, но делают это не на основе целостного авторского замысла, а на основе статистической регулярности обучающей выборки. Следовательно, сопоставление авторского заполнения текстовых лагун с машинным становится не техническим упражнением, а прямым продолжением рецептивно-эстетической традиции анализа: ученик, сравнивая два способа “достраивания” текста, вынужден эксплицировать критерии, по которым он отличает индивидуальный авторский стиль от сгенерированного ИИ.

Распространённое в педагогической среде опасение состоит в том, что доступность готовых пересказов, сгенерированных ИИ ответов и кратких изложений снижает у школьника мотивацию к самостоятельному чтению первоисточника. Продуктивным решением данной проблемы является переключение с дихотомии “запретить/разрешить” на вопрос о логике внедрения ИИ в структуру учебного занятия: на каком этапе допускается делегирование некоторых операций, а на каком – оно лишает смысла саму учебную задачу [4]. В современных реалиях ученик пользуется генеративными инструментами независимо от позиции учителя, и единственный способ сохранить контроль над качеством образовательного процесса перенести работу с этими инструментами

в границы урока, где она может быть методически организована [3]. Переопределение позиции ученика по отношению к ИИ на уроках литературы означает отказ от роли пассивного получателя текста (в том числе сгенерированного) в пользу роли эксперта, проверяющего машинный (чужой) текст на соответствие первоисточнику. Такая переориентация не отменяет насторожённости, зафиксированной в цитированных выше источниках, а канализирует её в конкретное учебное действие: ученик не “доверяет или не доверяет” нейросети в целом, а проверяет конкретное утверждение по конкретному тексту, которым он уже владеет. Педагогическая логика здесь совпадает с логикой фактчекинга, которая для условий школьного обучения (пока преимущественно на материале новостных и общественно-политических текстов, а не художественной литературы) разработана в статье В.А. Рубцовой и Г.Э. Даниленко “Интернет-источники и школьное обучение: поиск информации, достоверность и фактчекинг”. В данной работе описывается фактчекинг как навык, требующий не общей подозрительности к источнику, а конкретных операций сопоставления утверждения с проверяемым основанием [5].

Ниже описывается комплекс приёмов, реализующих принцип “ученик как проверяющий” при использовании ИИ на уроках литературы:

**1. Фактчекинг.** Учитель намеренно вводит в устное или письменное изложение содержания знакомого учащимся произведения одно или несколько ложных утверждений (искажение сюжетного факта, приписывание реплики не тому персонажу, неверная деталь портрета или пейзажа) и предлагает классу выявить и опровергнуть искажение со ссылкой на конкретный фрагмент текста.

Методическая ценность приёма в том, что он требует не общего впечатления о произведении, а точного знания текста и умения оформить опровержение как аргумент с указанием текстовой опоры, то есть тренирует ровно ту операцию, которая в структуре анализа художественного текста выделяется как проверка гипотезы по тексту. В данном случае, по всей видимости, срабатывает и психологическая особенность ребёнка – тяга к нахождению и исправлению чужих ошибок.

7. Imaniah, I., Dewi, N., & Zakky, A. *Youtube kids channels in developing young children's communication skills in english: parents' beliefs, attitudes, and behaviors*. 2020, June 30. [https://www.researchgate.net/publication/342643784\\_YOUTUBE\\_KIDS\\_CHANNEL\\_S\\_IN\\_](https://www.researchgate.net/publication/342643784_YOUTUBE_KIDS_CHANNEL_S_IN_)
8. Jones, T., & Cuthrell, K. YouTube: Educational potentials and pitfalls. *Computers in the Schools*, 28(1), 2011, pp. 75-85. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/07380569.2011.553149>
9. Maftutah, D., Jannah, S. R., & Utama, F. Fingerboard Media Development Calculate for the Cognitive Improvement of Teachers at RA Muslimat NU 1 Tulus Rejo. *Journal of Childhood Development*, 1(1), 2021, pp.31-45. <http://download.garuda.kemdikbud.go.id/article.php?article=2808411&val=24943&title>
10. Nansen, B., & Jayemanne, D. Infants, Interfaces and Intermediation: Digital Parenting and the Production of “iPad Baby” Videos on YouTube. *Journal of Broadcasting & Electronic Media*, 60(4), 2016, pp. 587–603. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/08838151.2016.1234475>
11. Soriano, M. A. L., & Ruiz, M. J. G. The Impact of the “Ms. Rachel” Educational Video on the Communication Skills Development of a Child. *International Journal of Curriculum and Instruction*, 16(2), 2024, pp. 230–245. <https://ijci.globets.org/index.php/IJCI/article/view/1455#>

# BADIIY-PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYA FANIDA AXLOQIY TUSHUNCHALARNI O'ZLASHTIRISH

*Djanbayeva Sevara Farhod qizi,  
Guliston davlat pedagogika instituti  
Pedagogika mutaxassisligi magistranti  
E-mail: sevarafarhodqizi@gmail.com,  
998999843900*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 7-sinfida tarbiya fanini o'qitishda badiiy pedagogik yondashuv asosida animatsion dublyaj texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarda axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda badiiy pedagogikaning nazariy asoslari hamda Edgar Deyl, Jerom Bruner, Lev Vigotskiy, Konstantin Ushinskiy kabi olimlarning ta'limotlari tahlil qilingan. Badiiy-pedagogik yondashuv asosida animatsion dublyaj texnologiyasidan foydalanish tarbiya fanida axloqiy tushunchalarni hissiy-idrok orqali singdirishning samarali va innovatsion usuli bo'lib, u o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchi va ijodkorga aylantiradi hamda ularning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Badiiy pedagogika, animatsion dublyaj texnologiyasi, axloqiy tushunchalar, tarbiya fani, 7-sinf o'quvchilari, estetik did, milliy musiqa, obrazli tafakkur, interaktiv ta'lim, pedagogik samaradorlik.*

**Художественно педагогический подход в усвоении нравственных понятий в предмете воспитание**

*Джанбаева Севара Фарход кизи,  
Гулистанский государственный педагогический институт, Магистрант по специальности педагогика*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности усвоения нравственных понятий учащимися 7-х классов общеобразовательных школ при преподавании предмета воспитание на основе художественно-педагогического подхода с применением технологии анимационного дубляжа. В исследовании проанализированы теоретические основы художественной педагогики, а также учения таких учёных, как Эдгар Дейл, Джером Брунер, Лев Выготский, Константин Ушинский. Освещено, что использование технологии анимационного дубляжа на основе художественно-педагогического подхода является эффективным и инновационным способом привития нравственных понятий через чувственно-эмоциональное восприятие в предмете воспитание, который превращает учащихся из пассивных слушателей в активных участников и творцов, а также обеспечивает их духовно-нравственное совершенствование.*

**Ключевые слова:** *Художественная педагогика, технология анимационного дубляжа, нравственные понятия, предмет воспитания, учащиеся 7-х классов, эстетический вкус, национальная музыка, образное мышление, интерактивное обучение, педагогическая эффективность.*

**Artistic pedagogical approach in mastering moral concepts in the subject of upbringing**

**Djanbayeva Sevara Farhod qizi,**  
Gulistan State Pedagogical Institute Master's  
student in pedagogy


**Abstract:** This article addresses the issues of enhancing the effectiveness of mastering moral concepts among 7th-grade students in secondary schools when teaching the subject of upbringing through the application of animation dubbing technology based on an artistic-pedagogical approach. The study analyzes the theoretical foundations of artistic pedagogy as well as the doctrines of scholars such as Edgar Dale, Jerome Bruner, Lev Vygotsky, and

Konstantin Ushinsky. It is highlighted that the use of animation dubbing technology on the basis of the artistic-pedagogical approach serves as an effective and innovative method of instilling moral concepts through sensory-emotional perception in the subject of upbringing, transforming students from passive listeners into active participants and creators, while ensuring their spiritual and moral development.

**Keywords:** Artistic pedagogy, animation dubbing technology, moral concepts, upbringing subject, 7th-grade students, aesthetic taste, national music, imaginative thinking, interactive education, pedagogical effectiveness.

Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiya fanining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda chunki bu fan o'quvchilarning axloqiy ongi, estetik didi, ijtimoiy mas'uliyati va milliy o'zligini tizimli ravishda shakllantiruvchi asosiy pedagogik soha hisoblanadi [23]. Tarbiya fanining markazida inson qalbiga yo'l topish ezgu fazilatlarni hissiy-idrok asosida singdirish va barkamol shaxsni voyaga yetkazish g'oyasi turadi [12]. Shu bois tarbiya fani bugungi ta'lim tizimida o'quvchini ma'naviy jihatdan mustahkamlash uni jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan vatanparvar, halol, mehnatsevar va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishning eng muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. Biroq pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki an'anaviy tarbiya darslarida o'quvchilar ko'pincha passiv tinglovchi rolida qolib ketishadi axloqiy qadriyatlar esa quruq qoidalar va nasihatlar shaklida yetkaziladi [18]. Bu esa o'quvchilarning darsga qiziqishini pasaytiradi axloqiy tushunchalarni yuzaki o'zlashtirishga olib keladi va eng muhimi bu tushunchalar o'quvchining shaxsiy e'tiqodiga aylanmaydi [11]. Xususan, Vasiliy Suxomlinskiy ta'kidlaganidek maktab amaliyotida o'quvchilarning qalbiga ta'sir etuvchi badiiy vositalardan foy-

dalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi natijasida tarbiya jarayoni ko'pincha formal tus oladi [18]. Badiiy pedagogika bu muammoni hal qilishning samarali yo'li hisoblanadi chunki u ta'lim-tarbiya jarayonini san'atning turli usullari vositalari va ifoda shakllari orqali amalga oshirishga qaratilgan [12]. Badiiy pedagogikaning mohiyati shundaki u pedagogika va san'atni uyg'unlashtirib o'qitish va tarbiyalashni yanada samarali qiziqarli qiladi [16]. U nafaqat adabiyot, musiqa, teatr, rassomchilik kabi an'anaviy san'at turlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi balki butun ta'lim muhitini badiiy loyihalashni o'zida aks ettiradi [8].



**1-rasm. Badiiy pedagogikaning asosiy tamoyillari**

Badiiy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri obrazlilik bo'lib dars va tarbiyaviy ishlar badiiy obrazlar voqealar va tasvirlar orqali yetkazilishi kerak [9]. Bu o'quvchida chuqur hissiyot uyg'otadi [21]. Yana bir muhim tamoyil hissiyotga ta'sir qilishidir chunki o'quvchilarni faqat aqliy emas balki hissiy jihatdan ham jalb qilish san'at orqali emotsional rivojlanishga xizmat qiladi [1]. Ijodiy faoliyatga yo'naltirish tamoyili ham muhim o'rin tutadi chunki o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay balki mustaqil fikrlash tasavvur qilish va yangi g'oyalar yaratishga o'rganadi [19]. Zamonaviy raqamli texnologiyalar badiiy pedagogikaga yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

**Edgar Dale** tomonidan ishlab chiqilgan tajriba konusi nazariyasi ta'lim jarayonida bilimni o'zlashtirish darajasi o'quvchining faol ishtirokiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Unga ko'ra inson faqat eshitish orqali olgan ma'lumotini kamroq eslab qoladi ko'rish orqali o'zlashtirilgan bilim esa nisbatan mustahkamroq bo'ladi lekin eng samarali natija o'quvchi o'zi bevosita ishtirok etgan ya'ni tajriba qilgan muhokama qilgan yoki amalda bajargan faoliyat orqali erishiladi [4]. Bu nazariya animatsion dublyaj texnologiyasining asosiy pedagogik mantiqini tashkil etadi chunki bu texnologiyada o'quvchi nafaqat ko'radi va eshitadi balki o'zi qahramon obraziga kirishib ovoz berish orqali faol ishtirok etadi [7].

**Jerome Bruner** tomonidan ilgari surilgan narrativ tafakkur nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha inson atrof-muhitni oddiy faktlar orqali emas balki mazmunli hikoyalar obrazlar va hayotiy vaziyatlar orqali chuqurroq tushunadi. Shu sababli ta'lim jarayonida bilimlar tayyor holda berilmasdan balki o'quvchini izlanishga savol berishga taxmin qilishga va xulosa chiqarishga undaydigan tarzda tashkil etilishi lozim [2]. Animatsion dublyaj

texnologiyasi aynan bu nazariyaga to'liq mos keladi chunki o'quvchi hikoya syujeti ichiga kiradi, qahramonning ichki kechinmalarini o'z tuyg'ulari orqali his qiladi va axloqiy qaror qabul qilish jarayonida mustaqil fikrlaydi [6].

**Lev Vygotskiy** nazariyasiga ko'ra inson rivoji ijtimoiy-madaniy muhit muloqot va faoliyat jarayonida shakllanadi bunda ayniqsa badiiy faoliyat shaxsning yuqori psixik vazifalarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. U san'at va badiiy obrazlarni inson tafakkuri va hissiyotlari o'rtasidagi murakkab bog'lovchi vosita sifatida baholab obrazli tafakkur orqali bola nafaqat borliqni aks ettiradi balki uni qayta talqin qiladi, mazmun jihatdan boyitadi va shaxsiy munosabatini shakllantiradi deb hisoblaydi [21]. Bu nazariyaviy asos animatsion dublyaj texnologiyasining psixologik samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

**Konstantin Ushinskiy** ilgari surgan milliylik va xalqchillik tamoyillari shuni anglatadiki tarbiya jarayoni o'quvchining yashash muhiti milliy qadriyatlari urf-odatlar va ruhiy dunyosi bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Uning "Tarbiya xalq ruhiga mos bo'lishi kerak" degan fikri aslida shuni nazarda tutadiki o'quvchi o'ziga yaqin tushunarli va hayotiy bo'lgan badiiy materiallar orqali tarbiyalansa bu jarayon ancha samarali kechadi [20]. Shu sababli tadqiqotda milliy musiqa dutor rubob doira nay kabi cholg'u asboblari asosidagi fon musiqalari qo'llanildi.

Tarbiya fanida badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar kompleks xarakterga ega bo'lib ular nazariy asoslarning yetarli ishlab chiqilmaganligi metodik ta'minotning sustligi amaliyotdagi uzilishlar hamda zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyaning past darajada ekanligi bilan izohlanadi [6]. Xususan, badiiy pedagogika imkoniyatlarining yetarlicha tizimlashtirilmaganligi hamda o'qituvchilarning



ushbu yo'nalishdagi metodik tayyorgarligi yetarli emasligi asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki tarbiya darslarida animatsion dublyaj texnologiyasidan maqsadli foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishi va faolligini sezilarli oshirishi axloqiy tushunchalarni his qilish darajasida o'zlashtirishga yordam berishi va an'anaviy o'qitishga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori samaradorlikka erishish imkonini berishi ilmiy faraz sifatida ilgari surildi [7]. Bu farazni tekshirish maqsadida Sirdaryo viloyati Guliston shahri 7-sonli umumta'lim maktabining 74 nafar 7-sinf o'quvchilari tajriba guruhi sifatida, Sirdaryo viloyati Xovos tumani 1-umumta'lim maktabining 75 nafar 7-sinf o'quvchilari esa nazorat guruhi sifatida jalb qilindi. Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitishda badiiy pedagogika imkoniyatlaridan animatsion dublyaj texnologiyasi orqali samarali foydalanish metodikasini takomillashtirishga oid ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: badiiy pedagogika imkoniyatlarining pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, animatsion dublyaj texnologiyasi asosida darslarni loyihalash metodikasini takomillashtirish, texnologiyaning samaradorligini tajriba-sinov yo'li bilan tekshirish va natijalarni matematik-statistik usulda tahlil qilish.

Badiiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonini san'atning turli usullari vositalari va ifoda shakllari orqali amalga oshirishga qaratilgan yo'nalish bo'lib uning markazida obraz hissiyot va maqsadli ta'sir komponentlarining uzviy birligi turadi [23]. Obraz badiiy pedagogikaning markaziy unsuri bo'lib u orqali voqelik badiiy shaklda aks ettiriladi va o'quvchining tafakkuri va tasavvurini kengaytiradi [16]. Hissiyot badiiy pedagogikaning yuragi hisoblanib badiiy asarlarni o'qish yoki tomosha qilish jarayoni-

da o'quvchi qahramonlar bilan birga quvonadi qayg'uradi hayajonlanadi va bu olingan bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi [21]. Maqsadli ta'sir esa ta'lim va tarbiya jarayonini tasodifiy emas balki aniq maqsad asosida tashkil etilishini ta'minlaydi [20]. Tarbiya fanida badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish uchun to'rt blokli konseptual model ishlab chiqildi. Maqsadli blokda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi ma'naviy-axloqiy va estetik barkamol shaxsni tarbiyalash ekanligi belgilandi. Asosiy maqsad tarbiya darslarida badiiy pedagogika imkoniyatlaridan animatsion dublyaj texnologiyasi orqali samarali foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat [6]. Tashkiliy-metodologik blokda badiiy-pedagogik shaxsga yo'naltirilgan faoliyatli integrativ va multisensor yondashuvlar, ko'rgazmalilik, hissiyotga ta'sir, faollik, ijodkorlik, milliy qadriyatlar uyg'unligi, refleksivlik va tizimlilik tamoyili hamda o'qituvchining badiiy raqamli kompetensiyasi, animatsion va multimedia vositalarining mavjudligi, milliy musiqa va yosh xususiyatlarini hisobga olish shart-sharoitlari belgilandi.

Umuman olganda tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki badiiy-pedagogik yondashuv asosida animatsion dublyaj texnologiyasini qo'llash orqali tarbiya fanida axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin [59] Bu texnologiya o'quvchini passiv kuzatuvchi va tinglovchi roldan chiqarib faol ishtirokchi ijodkor va qahramonlarning ichki kechinmalarini o'z his-tuyg'ulari orqali his qiluvchi subyektga aylantiradi [15]. Natijada axloqiy tushunchalar yod olish emas balki his qilish va ichki e'tiqodga aylanish imkonini beradi [7].

Animatsion materiallar Veo va Runway sun'iy intellekti asosidagi video generatsiya platformalari yordamida yaratildi va bu platformalar yozma matn asosida o'rta

asrlar O'rta Sharq va O'rta Osiyo muhitidagi 3D animatsion sahnalarni avtomatik tarzda yaratish imkonini beradi. Jarayon besh bosqichdan iborat edi:

Birinchi bosqichda darslikdagi hikoya matni ssenariyga ya'ni muloqot ko'rinishiga o'girilib har bir sahna alohida tavsiflandi.

Ikkinchi bosqichda har bir sahna uchun AI platformasiga matn kiritilib 6-10 soniyalik animatsion lavhalar generatsiya qilindi.

Uchinchi bosqichda lavhalar InShot yoki CapCut kabi mobil montaj dasturlari orqali ketma-ket biriktirildi.

To'rtinchi bosqichda o'zbek milliy musiqasi dutor, sato, nay asboblari asosidagi fon musiqasi ovoz ko'lamini pasaytirilgan holda qo'shildi.

Beshinchi bosqichda tayyor animatsion material sinfda proyektor orqali namoyish etildi.

Milliy musiqa tanlovining mezonlarida musiqa mavzuning axloqiy ruhiga mos bo'lishi o'zbek milliy cholg'u asboblari dutor rubob doira nay ustuvorlik qilishi musiqa sur'ati animatsiyaning harakatlanish tempi bilan uyg'unlashishi muloqot sahnalarida musiqa ovoz ko'lamini 20-25% dan oshmasligi va ovozlashtirish uchun qulay fonni ta'minlashi talab qilindi. Shu sababli o'quvchilarni yoshini ham inobatga olgan holda Dilhiroj Farg'onacha va Shashmaqom musiqalari tanlab olindi.

Ovozlashtirish faoliyati olti qadamda tashkil etildi:

Birinchi qadamda o'quvchilar animatsion filmni birinchi marta to'liq tomosha qilib qahramonlar va voqealar bilan tanishdi.

Ikkinchi qadamda guruh ichida 3-4 nafar o'quvchi qahramon rollarini tanladi va qolganlar rejissyor va tanqidchi rolida kuzatib turdi.

Uchinchi qadamda har bir qahramon o'z dialogini o'rgandi.


To'rtinchi qadamda animatsiya ekranda ko'rsatilib turgan paytda o'quvchilar animatsion qahramonlarning lab harakatlari va mimikasiga qarab o'z ovozlari bilan sinxronlashtirishdi.

Beshinchi qadamda birinchi urinishdan so'ng guruh muhokama qilib qaysi o'quvchi qahramonning hissiyotini to'g'ri ifodaladi ovoz tembri va sur'at animatsiyaga mos keldimi degan savollarga javob izladi va zarur holda sahna qayta takrorlandi.

Oltinchi qadamda esa ovozlashtirish tugagach o'qituvchi "Qahramon nima his qildi?", "Siz uning o'rnida bo'lsangiz nima derdingiz?", "Bu hodisa hayotingizda uchraganmi?" kabi savol-topshiriqlar orqali axloqiy refleksiya tashkil etdi.

Tadqiqot davomida har bir dars uchun 40-54 soniyalik animatsion video yaratildi va bu vaqt o'lchamining tanlanishi pedagogik asosga ega chunki qisqa formatdagi video o'quvchilarning diqqatini dars oxirigacha ushlab turish imkonini beradi va ovozlashtirish uchun qulay ko'lamni ta'minlaydi. Tajriba davomida 7-sinf tarbiya darsligidagi "Halollik va rostgo'ylik", "Mehnat farovonlik manbai", "Do'stlik va sadoqat", "Ota-onaga hurmat", "Vatanparvarlik va milliy g'urur" mavzulari asosida badiiy-animatsion materiallar ishlab chiqildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirganda badiiy-pedagogik yondashuv asosida animatsion dublyaj texnologiyasini tarbiya fanida qo'llash o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlandi. Animatsion dublyaj texnologiyasidan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar o'qituvchilar uchun amaliy yo'riqnoma vazifasini o'taydi va ularning badiiy-pedagogik hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar bilan



**2-rasm. Animatsion dublyaj texnologiyasi asosida tayyorlangan animatsiya foto namunasi**

o'tkazilgan suhbat va pedagogik kuzatuv natijalari ham tajriba guruhida o'quvchilarning dars davomida faolroq bo'lganligini o'z fikrini erkin ifodalaganligini tartibsizlik holatlari sezilarli kamayganligini va o'zaro hamkorlikda ishlashga moyillik ortganligini ko'rsatdi. Bu esa badiiy-pedagogik yondashuv nafaqat bilim sifatini balki sinfda ijobiy iqlimni ham shakllantirishiga dalil bo'ldi. Badiiy-pedagogik yondashuv asosida animatsion dublyaj texnologiyasini qo'llash tarbiya fanida axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishning samarali innovatsion

usuli hisoblanadi va u o'quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu texnologiya o'quvchini passiv kuzatuvchi va tinglovchi roldan chiqarib faol ishtirokchi ijodkor va qahramonlarning ichki kechinmalarini o'z his-tuyg'ulari orqali his qiluvchi subyektga aylantiradi. Natijada axloqiy tushunchalar yod olish emas balki his qilish va ichki e'tiqodga aylanish imkonini beradi va bu zamonaviy tarbiya fanining asosiy maqsadlariga erishishning muhim strategik yo'li ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova I.I. Badiiy matnlar orqali o'quvchilarda estetik didni shakllantirishning zamonaviy yo'llari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*. 2023. №3.
2. Bruner J. *The Culture of Education. New Edition with Commentary*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2020. – 240 p.
3. Bulatova O.S. *Pedagogicheskiy artistizm: uchebnik dlya vuzov*. Moskva: Yurayt, 2020. – 117 p.
4. Dale E. *Audio-Visual Methods in Teaching*. 3rd Edition. New York: Dryden Press, 1969.
5. Djanbayeva S.F. Interfaol ta'lim dasturlari orqali ta'limda samaradorlikda erishish. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. *Jizzax*, 2024. B. 133-135.
6. Djanbayeva S.F. Tarbiya fanida badiiy pedagogika orqali o'qitishning pedagogik imkoniyatlari. Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayonni milliy va xalqaro yondashuvlar asosida transformatsiyalash strategiyalari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to'plami. *Toshkent*, 2026. – B. 139-143.
7. Djanbayeva S.F. Tarbiya fanida badiiy pedagogika va milliy musiqa orqali vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni singdirishning pedagogik samarasi // *Fan va tadqiqot samaralari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi*. 2025. Vol. 2, Issue 7.
8. Gizatullina O.I. Innovatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. *Guliston: GulDU nashriyoti*, 2021. 97-104.
9. Komenskiy Ya.A. *Buyuk didaktika*. Moskva: Uchpedgiz, 1955. – 164 p.
10. Lifshits M.A. *Poeticheskaya spravedlivost. Ideya esteticheskogo vospitaniya v istorii obshchestvennoy mysli*. Moskva: Akademicheskii proekt, 2021. – 102 p.
11. Lixachev B.T. *Pedagogika*. Moskva: Prometey, 1998. – 215 p.
12. Mardonov Sh., Zokirova U. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 67 p.
13. Martinez P., Garcia F. *Multimedia learning and character education Educational Technology Research*. 2024. Vol. 72(1).
14. Mamadali Jo'rayev. *Teatr metodikasi tarbiyaviy jarayonda Pedagogika*. 2021. №2. 6 – 79 p.
15. Nurumbekova Y.A., Djanbayeva S.F., Sokiyeva K.X. *Animatsion dublyaj texnologiyasi orqali 7-sinf tarbiya fanini o'qitish (metodik qo'llanma)*. Guliston: Guliston davlat pedagogika instituti, 2026. – 34 p.
16. Shakirova S.T. Badiiy-estetik tarbiyaning pedagogik asoslari *International Journal of Education*. 2022. – 118 p.
17. Surayyo Sagdullayeva, Xurshid Karimov. *Musiqiy pedagogika va tarbiyaviy rivojlanishi. Ilm yana-da oshirish*. 2022. 4-son. – 162 p.
18. Suxomlinskiy V.A. *Bolalarga qalbimni beraman*. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
19. Taranova E.V. *O'smirlar ta'limida badiiy texnologiyalar*. Stavropol: Saratov davlat universiteti, 2019.
20. Ushinskiy K.D. *Inson – tarbiya predmeti*. – Toshkent: O'qituvchi, 1955. - 226 p.
21. Vigotskiy L.S. *Psixologiya iskusstva. Ilmiy izoh va so'zboshi bilan*. – Moskva: Akademiya, 2019. – 600 b.
22. *Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash... PQ-3907-son Qarori*, 2018.
23. Yo'ldoshev Q. *Shaxs tarbiyasi*. – Toshkent: Fan, 2020. – 183 p.



# PEDAGOGIK FAOLIYATDA UCHRAYDIGAN KASBIY MUAMMOLARGA ASOSLANGAN MAKTAB ICHKI KASBIY RIVOJLANISH MODEL

*Toxirova Nafisa Dilshod qizi,  
A.Avloniy nomidagi Pedagogik Mahorat  
Milliy Instituti 2-kurs doktoranti  
nafisatokhirova0@gmail.com  
+998880838822  
<https://orcid.org/0009-0008-4906-2348>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlariga hamda maktablarda mavjud metodik birlashma amaliyotiga tayangan holda, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan aniq kasbiy muammolarni tizimli ravishda aniqlash va ularni kasbiy rivojlanish mazmuniga aylantirishga qaratilgan qo'shimcha mexanizm – "Muammolar banki" va 5R sikli taklif etiladi. Model mavjud kaskadli o'qitish tizimini (master-trener – mentor-o'qituvchi – yetakchi o'qituvchi – fan o'qituvchisi) almashtirmaydi, balki uning mazmunini shakllantirish bosqichiga alohida o'qituvchilar va metodik birlashmalar darajasidagi real ehtiyojlarni uzluksiz ravishda yetkazib turuvchi qo'shimcha qatlam qo'shadi. Maqolada modelning tuzilishi, amaliyotga joriy etish mexanizmi hamda kutilayotgan afzalliklari va cheklovlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** uzluksiz kasbiy rivojlanish; "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati"; mentor-o'qituvchi; metodik birlashma; amaliyotdagi muammo tushunchasi; Muammolar banki; ehtiyojga asoslangan kasbiy rivojlanish; 5R sikli; kaskadli o'qitish modeli; pedagogik amaliyot; maktab ichki kasbiy rivojlanishi.

**Школьная модель непрерывного профессионального развития, основанной на проблемах педагогической практики**

**Тохирова Нафиса Дилшод кизи,**  
Докторант 2-го курса Национального  
института педагогического мастерства  
имени А.Авлони

**Аннотация:** В статье, опираясь на мероприятия "День профессионального развития" и "Час профессионального развития", реализуемые в системе общего среднего образования Узбекистана, а также на уже существующую в школах практику методических объединений, предлагается дополнительный механизм – "Банк проблем" и цикл 5R – для систематического выявления конкретных профессиональных проблем, возникающих в педагогической деятельности учителей, и их преобразования в содержание профессионального развития. Модель не заменяет действующую каскадную систему обучения (мастер-тренер – ментор-учитель – ведущий учитель – учитель-предметник); она добавляет к этапу формирования содержания дополнительный уровень, постоянно передающий реальные потребности отдельных учи-



телей и методических объединений. В статье раскрываются структура модели, механизм внедрения, а также ожидаемые преимущества и ограничения.

**Ключевые слова:** непрерывное профессиональное развитие; “День профессионального развития” и “Час профессионального развития”; ментор-учитель; методическое объединение; понятие “проблема практики”; Банк проблем; профессиональное развитие, основанное на потребностях; цикл 5R; каскадная модель обучения; педагогическая практика; внутришкольное профессиональное развитие.

#### **A school-based model grounded in teachers' problems of practice**

**Nafisa Tokhirova Dilshod qizi,**

*Second-Year PhD student, National Institute of Pedagogical Excellence named after A.Avloni*

**Abstract:** Building on the “Professional Development Day” and “Professional Development Hour” initiatives implemented across Uzbekistan's

general secondary education system, as well as the informal problem-solving practice already carried out within school-based subject associations (*metodik birlashma*), this paper proposes a supplementary mechanism – a Problem Log and a 5R cycle – for systematically identifying the specific problems of practice teachers encounter and translating them into professional development content. The model does not replace the existing cascade training system (master trainer – mentor teacher – lead teacher – subject teacher); rather, it adds a layer that continuously feeds the real needs of individual teachers and subject associations into the content-design stage. The paper describes the model's structure, implementation mechanism, and anticipated benefits and limitations.

**Keywords:** continuing professional development; “Professional Development Day” and “Professional Development Hour”; mentor teacher; subject association (*metodik birlashma*); problem of practice; Problem Log; needs-based professional development; 5R cycle; cascade training model; pedagogical practice; school-based professional development.

**P**edagogik faoliyat o'qituvchidan sinfni boshqarishdan tortib fan mazmunini tushunarli va samarali yetkazishgacha bo'lgan turli kasbiy muammolarni muntazam hal etib borishni talab qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ana shunday muammolarni hal etishga qaratilgan kasbiy rivojlanish tizimi bosqichma-bosqich shakllantirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori [2] hamda Vazirlar Mahkamasining 867-son qarori [3] asosida umumta'lim maktablarida “Kasbiy rivojlanish kuni” (KRK) va “Kasbiy rivojlanish soati” (KRS) tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etildi hamda mazkur jarayon tegishli vazirlik buyruqlari orqali tartibga solindi [4;5]. Ushbu tizim kaskadli modelga asoslanib, unda master-trenerlar mentor-o'qituvchilarni, men-

tor-o'qituvchilar yetakchi o'qituvchilarni, ular esa o'z hududidagi fan o'qituvchilarini tayyorlaydi. 2025–2026-o'quv yilida mazkur tizim 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha 1 550 ta tayanch maktab, 292 nafar master-trener, 3 901 nafar mentor-o'qituvchi hamda 443 743 nafardan ortiq fan o'qituvchisini qamrab oldi. Jarayon esa [krk.avloniy.uz](http://krk.avloniy.uz) raqamli platformasi orqali monitoring qilinmoqda [6;11]. Mazkur islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan ham uzviy bog'liqdir [1].

Yana bir narsa o'rinliki, maktablarda o'qituvchilar o'rtasida kasbiy muammolarni muhokama qilish amaliyoti KRK/KRS tizimi joriy etilishidan ancha oldin fan metodik birlashmalari doirasida shakllangan bo'lib, bugungi

kunda ham davom etmoqda. Biroq ushbu amaliyot, odatda, norasmiy tarzda, hujjatlashtirilmagan holda hamda tizimli takrorlanuvchi siklsiz amalga oshiriladi. Hududiy pedagogik mahorat markazlari darajasida ham malaka oshirish ishlari endilikda malaka toifasi va kasbiy ehtiyojlardan kelib chiqib differensial tarzda tashkil etilmoqda [7]. Biroq mazkur differentsiatsiya hozircha institutsional darajada, ya'ni malaka toifasi kesimida saqlanib qolmoqda hamda alohida o'qituvchi yoki metodik birlashma darajasidagi aniq kasbiy muammolar bilan bevosita bog'lanmaydi. Shu bilan birga, KRK va KRS mashg'ulotlarining mazmuni markazlashgan tartibda institut va universitet mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tomonidan har bir fan yo'nalishi uchun yagona dastur asosida ishlab chiqilib, kaskad modeli orqali barcha guruhlariga bir xil mazmunda yetkaziladi. So'nggi mahalliy tadqiqotlar natijalari ham ushbu jihatni tasdiqlaydi: ularda o'qituvchilarning subyektiv ehtiyojlari va kasbiy rivojlanishdan qoniqish darajasini baholovchi hamda bu ma'lumotlarni kasbiy rivojlanish mazmunini shakllantirish jarayoniga uzatib boruvchi qo'shimcha indikatorlarni ishlab chiqish tavsiya etilgan [6].

Ushbu maqolada aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan qo'shimcha mexanizm "Muammolar banki" va 5R sikli taklif etiladi. Model mavjud tizimni almashtirmaydi, aksincha, metodik birlashmalardagi norasmiy muho-kama amaliyotiga aniq tuzilma beradi hamda uni KRK/KRS mazmunini shakllantirish jarayoni bilan bog'laydi. Natijada metodik birlashma darajasida aniqlangan real ehtiyojlar markaziy dastur ishlab chiquvchilarga uzluksiz ravishda yetkazib borilishi mumkin bo'ladi.

Taklif etilayotgan yondashuv mutlaqo yangi nazariy konsepsiya emas, balki xalqaro amaliyotda e'tirof etilgan bir qator yondashuvlarning sintezidan iborat. Jumladan, ular qatoriga pedagogik kuzatuv sikllarida qo'llaniladigan "amaliyotdagi muammo" (Problem of Prac-

tice) tushunchasi [8], amaliy izlanish (Action Research) sikli [10], ehtiyojga asoslangan kasbiy rivojlanish g'oyasi [12], takomillashtirish metodologiyasidagi (Improvement Science) sinov va o'rganish tamoyili [13] hamda professional ta'lim hamjamiyatlarining (Professional Learning Communities) hamkorlik tamoyillari [9] kiradi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi ushbu yondashuvlarni yagona amaliy model doirasida birlashtirib, ularni O'zbekistonning amaldagi KRK/KRS infratuzilmasi hamda metodik birlashmalar amaliyotiga moslashtirishdan iborat.

## **Taklif etilayotgan model**

### **2.1. Umumiy tavsifi va asoslanishi**

Taklif etilayotgan model kasbiy rivojlanish mazmunini shakllantirish jarayonida o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita bosqichni aniq ajratadi. Birinchi bosqich pedagogik faoliyat davomida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash bo'lib, u metodik birlashma a'zosi bo'lgan har bir o'qituvchi tomonidan uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqich esa aniqlangan muammolarni tahlil qilish va ularga mos mazmunni shakllantirish bo'lib, u metodik birlashma rahbari yoki mentor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi, zarur hollarda esa hududiy pedagogik mahorat markaziga taqdim etiladi. Bunday taqsimot o'qituvchi zimmasiga qo'shimcha yuk yuklamaydi: u faqat duch kelgan muammoni qisqacha qayd etadi, uni tizimlashtirish va kasbiy rivojlanish mazmuniga aylantirish esa metodik birlashma rahbari zimmasiga yuklatiladi [12].

### **2.2. "Muammolar banki"**

"Muammolar banki" metodik birlashma darajasida amaliyotdagi muammolarni yig'ish vositasidir [8]. U qog'oz shaklida (metodik birlashma xonasidagi maxsus daftar yoki quti) yoki elektron shaklda (masalan, Telegram guruhi yoki umumiy google hujjat) orqali yu-


ritilishi mumkin. Murojaat bir-ikki jumladan iborat bo'lishi kifoya. Masalan, "Turli usullarni sinab ko'rgan bo'lsam ham, o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammo saqlanib qolmoqda", "O'quvchilar mavzuni uzoq muddat eslab qola olmayapti" yoki "Mavzuni vizual tarzda tushuntirish uchun samarali g'oyalar kerak" kabi. Zarurat tug'ilganda murojaatlar anonim tarzda ham qabul qilinishi mumkin. Bank doimiy ravishda ochiq bo'lgani sababli, muammolar yuzaga kelishi bilanoq qayd etiladi. Bu esa KRK/KRS mazmunini belgilovchi ishchi guruhlariga metodik birlashmalarda aniqlangan real ehtiyojlar haqida ma'lumotning uzluksiz yetib borishini ta'minlaydi.

### 2.3. 5R sikli

Muammolar bankida yig'ilgan muammolarni kasbiy rivojlanish mazmuniga aylantirish jarayoni 5R sikli asosida tashkil etiladi (1-rasm). Rasmda "koordinator" umumiy atama sifatida qo'llanilgan bo'lib, amaliyotda bu vazifani metodik birlashma rahbari yoki mentor-o'qituvchi bajaradi. Siklning davriyligi metodik birlashma faoliyati hamda KRS jadva-

lidan kelib chiqib, masalan, haftalik yoki oylik tarzda belgilanadi [10].

Raise (Ko'tarish) bosqichida o'qituvchi pedagogik faoliyati davomida duch kelgan muammoni istalgan vaqtda "Muammolar banki"ga qayd etadi. Review (Tahlil qilish) bosqichida metodik birlashma rahbari kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilib, eng dolzarb yoki takrorlanayotgan muammolarni aniqlaydi. Respond (Javob berish) bosqichida ustuvor deb topilgan muammo metodik birlashma yig'ilishi yoki KRS mashg'uloti uchun mavzu sifatida tanlanadi, zarur hollarda esa hududiy pedagogik mahorat markaziga ham taqdim etiladi. Rehearse (Sinab ko'rish) bosqichida o'qituvchilar tavsiya etilgan yondashuv va strategiyalarni o'z dars amaliyotida qo'llab ko'radi. Reflect (Mulohaza qilish) bosqichida esa qo'llangan yondashuvlarning natijalari metodik birlashma yig'ilishida yoki "Muammolar banki" orqali muhokama qilinadi. Ushbu muhokamalar natijasida yangi muammolar yoki avval qayd etilgan muammolarning aniqlashtirilgan ko'rinishlari shakllanib, navbatdagi 5R sikli uchun asos bo'lib xizmat qiladi [13].



1-rasm. Muammoga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish modelining 5R sikli

## 2.4. Ishtirokchilarning vazifalari

Modelda uchta ishtirokchi qatnashadi: o'qituvchi, metodik birlashma rahbari (yoki mentor-o'qituvchi) hamda maktab rahbariyati. Ularning asosiy vazifalari va mas'uliyat sohalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

gogik mahorat markaziga yagona tartib asosida yetkazilishi tavsiya etiladi [9].

### Kutilayotgan afzalliklar va cheklovlar

Model amaliyotga joriy etilganda, KRS mazmuni faqat markazda ishlab chiqilgan ya-

*1-jadval.*

**Model ishtirokchilarining vazifalari va mas'uliyatlari**

| Ishtirokchi                                   | Asosiy vazifalari                                                                                                                                                              | Mas'uliyati                                                                   |
|-----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|
| O'qituvchi                                    | Amaliyotdagi muammoni "Muammolar banki"ga kiritish; KRS mashg'ulotlarida ishtirok etish; tavsiya etilgan yondashuvni darsda sinab ko'rish; natija yuzasidan refleksiya qilish. | Muammoni aniqlash, sinash va refleksiya orqali keyingi siklga hissa qo'shish. |
| Metodik birlashma rahbari / mentor-o'qituvchi | Bankni tahlil qilish; ustuvor muammoni tanlash; buni KRS mavzusi sifatida taklif etish yoki hududiy markazga yetkazish; refleksiya natijalarini umumlashtirish.                | Norasmiy amaliyotni tizimga bog'lash, mazmunni real ehtiyojga moslashtirish.  |
| Maktab rahbariyati                            | Metodik birlashma yig'ilishlari uchun vaqt ajratish; bank yuritilishini qo'llab-quvvatlash; natijalarni maktab rejasiga integratsiya qilish.                                   | Jarayonning barqaror ishlashini tashkiliy ta'minlash.                         |

### Amaliyotga joriy etish mexanizmi

"Muammolar banki"ni tashkil etishda maktab o'zining mavjud ish uslubidan kelib chiqib, qog'oz yoki elektron shaklni tanlashi mumkin [11]. Bunda nozik masalalar (masalan, muayyan o'quvchining shaxsiy holati bilan bog'liq muammolar) "Muammolar banki" orqali emas, balki amaldagi psixologik-pedagogik xizmat doirasida ko'rib chiqilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, mazmunan bir-biriga yaqin yoki takrorlanuvchi murojaatlar alohida muammo sifatida emas, balki bitta umumiy muammo sifatida guruhlashtiriladi.

5R siklining davriyligi metodik birlashma faoliyati hamda KRS jadvaliga muvofiq belgilanadi. Yirik metodik birlashmalarda yoki bir nechta fan yo'nalishini qamrab oluvchi tayan-ch maktablarda har bir fan yo'nalishi uchun alohida "Muammolar banki"ni yuritish maqsadga muvofiqdir. Bunda turli yo'nalishlarda aniqlangan umumiy muammolar hududiy peda-

gona dastur bilan cheklanib qolmay, har bir metodik birlashmaning o'ziga xos ehtiyojlarini ham aks ettira boshlaydi. Bu esa Gaffarov [6] tomonidan tavsiya etilgan, o'qituvchilarning subyektiv kasbiy ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiluvchi indikatorning amaliy ifodasidir. Shuningdek, modelni joriy etish qo'shimcha moliyaviy xarajatlar yoki yangi infratuzilmani talab qilmaydi. Chunki u mavjud metodik birlashmalar faoliyati hamda KRS jarayoniga qo'shimcha mexanizm sifatida integratsiya qilinadi.

Shu bilan birga, modelning samaradorligi metodik birlashma rahbarining murojaatlarni muntazam tahlil qilib borishiga bevosita bog'liq. "Muammolar banki" orqali aniqlangan ehtiyojlarning markaziy dastur mazmuniga qay darajada ta'sir ko'rsatishi esa hududiy pedagogik mahorat markazlari hamda institut o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmining samaradorligiga bog'liq. Mazkur jihat amaliyotda



alohida sinovdan o'tkazilishi lozim. Shuningdek, model hozircha nazariy taklif sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, uning amaliy samaradorligi kelgusida pilot sinovlar orqali baholanishi va tasdiqlanishi zarur [13].

Mazkur maqolada kasbiy rivojlanish mazmunini maktablarda yuzaga kelayotgan real pedagogik ehtiyojlar bilan yanada uzviy bog'lashga qaratilgan amaliy model taklif etildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etish bo'yicha muhim normativ-huquqiy asoslar yaratilgan, KRK va KRS tizimi bosqichma-bosqich joriy etilgan hamda metodik birlashmalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Biroq kasbiy rivojlanish mazmunini shakllantirish jarayonida maktablarda kundalik pedagogik faoliyat davomida yuzaga kelayotgan muammolarni muntazam yig'ish, tizimlashtirish va ular asosida kasbiy rivojlanish mavzularini

belgilashga xizmat qiluvchi yagona mexanizm yetarli darajada shakllanmagan.

Shu nuqtai nazardan, maqolada taklif etilgan "Muammolar banki" va 5R sikli mavjud tizimni maktablarda yuzaga kelayotgan real ehtiyojlar bilan bog'lashga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida asoslandi. Model o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida uchraydigan muammolarni muntazam aniqlash, ularni tahlil qilish hamda kasbiy rivojlanish mazmunini shakllantirish jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Natijada kasbiy rivojlanish jarayonining amaliyotga yo'naltirilganligi va maktab ehtiyojlariga moslashuvchanligini oshirish mumkin. Biroq model hozircha konseptual taklif hisoblanadi. Uning amaliy samaradorligi va ta'lim amaliyotiga ta'siri kelgusida pilot sinovlar hamda empirik tadqiqotlar orqali baholanishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2024-yil 20-dekabrda 867-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug'i.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "2025-2026-o'quv yilida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi 2025-yil 30-iyundagi 216-son buyrug'i.
6. Gaffarov A.M. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili // Maktabgacha va maktab ta'limi. - 2026. - № 5(3). - B. 115-123.
7. Axmedov I.N. Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi: yangi tizim, zamonaviy yondashuv va amaliy natijalar // Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. - 2026. - Maxsus son. - B. 136-140.



8. City E.A., Elmore R.F., Fiarman S.E., Teitel L. Instructional Rounds in Education: A Network Approach to Improving Teaching and Learning. – Cambridge, MA: Harvard Education Press, 2009.
9. DuFour R., Eaker R. Professional Learning Communities at Work: Best Practices for Enhancing Student Achievement. – Bloomington, IN: Solution Tree Press, 1998.
10. Kemmis S., McTaggart R., Nixon R. The Action Research Planner: Doing Critical Participatory Action Research. – Singapore: Springer, 2014.
11. KRK elektron platformasi. A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti. Rasmiy ma'lumotlar. – <https://krk.avloniy.uz>
12. Lee H.-J. Developing a Professional Development Program Model Based on Teachers' Needs // The Professional Educator. – 2004. – Vol. 27, No. 1/2. – P. 39-49.
13. Bryk A.S., Gomez L.M., Grunow A., LeMahieu P.G. Learning to Improve: How America's Schools Can Get Better at Getting Better. – Cambridge, MA: Harvard Education Press, 2015.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining  
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал  
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal  
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

**МАКТАВ ТА'ЛИМИ:**  
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR  
**ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:**  
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ  
**SCHOOL EDUCATION:**  
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2026-yil,  
8-son

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar, Olmazor tumani,  
Ziyo ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligining  
2024-yil 11-sentyabrdagi 392864-raqamli guvohnoma berilgan.

Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-oktyabrdagi 363/5-son qaroriga asosan  
“Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar” ro'yxatiga kiritilgan

Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ . Nashr bosma tabog'i 6,125.  
Adadi: 100 nusxa. Chop etishga ruxsat etildi 06.08.2026.  
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat  
milliy instituti bosmaxonasi  
Bahosi kelishilgan narxda.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan  
olingan matnlar “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” ilmiy-nazariy  
va o'quv-uslubiy jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

© “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” jurnali, 2026.

